

O`ZBEKISTON RESPUBLIKASI

XALQ TA'LIMI VAZIRLIGI

NAVOIY DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI

GEOGRAFIYA O`QITISH METODIKASI

TA'LIM YO`NALISHI UCHUN

O`ZBEKISTON TABIIY GEOGRAFIYASI

FANIDAN

MA`RUZALAR MATNI

Tuzuvchi: Norov Sh.Sh.

NAVOIY - 2016 Yil

O'ZBEKISTON TABIIY GEOGRAFIYASI FANINING MAQSADI, OBYEKTI, PREDMETI, METODLARI VA VAZIFALARI

REJA:

1. O'zbekiston tabiiy geografiyasi fanini o'rganish obyekti.
2. O'zbekiston tabiiy geografiyasining boshqa fanlar bilan aloqasi.
3. O'zbekiston tabiiy geografiyasi fanining ilmiy tadqiqot uslublari.
4. O'zbekistonning tabiiy geografik joylashgan o'rni.

O'zbekistonning umumiy tabiiy-geografik tavsifi, geografik o'rni, chegaralari, maydoni va umumiy tavsifi

O'zbekiston Gresiya, Yugoslaviya, Italiya davlatlari bilan bir kenglikda turadi. O'zbekiston hududi mustaqil iqlim mintaqasiga janubiy va subtropik iqlim mintaqasiga to'g'ri keladi. **Mavzuning maqsadi:** Fanning o'rganish ob'ekti, boshqa fanlar bilan aloqasi, fanning ilmiy tadqiqot uslubini asosiy xususiyatlarini o'rganish kerak.

1. O'zbekiston tabiiy geografiyasi fani tabiiy fan bo'lib, geografiya fanlar sistemasiga kiradi.

Bu fan tabiiy jarayonlarni hududiy va geografik jihatdan o'rganadi.

Bu fan bir tomondan iqtisodiy rivojlanish, ikkinshi tomondan esa tabiat qonunlariga tayangan holda tabiiy komponentlarning o'zaro ta'sir munosabatlarni tadqiq etadi. Uning asosiy o'rganadigan, tekshiradigan ob'ekti Vatanimiz – O'zbekiston tabiiy sharoiti, tabiiy boyliklari, ulardan foydalanish, muhofaza qilish qonuniyatlarini o'rganishni o'z ishiga oladi, yoki boshqasha qilib aytganda, bu fan har xil sistemadagi yoki xar xil masshtabdagi tabiat tafovutlar qonuniyatlarini o'rganadi. Yana bu fan hududiy sistemalar yoki ob'ektlar yoki ob'ektlarni o'rganayotganda atrof geografiya muhitini konkret jarayonlarni ham hisobga olgan holda ish olib boradi.

O'zbekiston tabiiy geografiyasida ayrim tabiiy geografik rayonlarni o'rganishdan turli yirik miqyosdagi davlatlar tabiiy geografik rayonlar zonalarini har tomonlama chuqur tahlil qilishga e'tibor ortmoqda. Shuning uchun bu fanni o'rganish hozirgi vaqtda ahamiyatlidir.

2. O'zbekiston tabiiy geografiyasi fanining boshqa fanlar bilan aloqasi.

Bu fan asosan tabiiy geografiya, umumiy yer bilimi, geologiya, geomorfologiya, iqlimshunoslik, landshaftshunoslik, tabiatdan foydalanish va uni muhofaza qilish, ekologiya va geoeologik monitoring, tarix, kartografiya fanlari bilan aloqadordir.

Bu fan birinshi galda tabiiy geografiya fani bilan yaqindan aloqadadir. Chunki: u yoki bu regionni tabiiy jihatdan o'rganayotganda, o'sha joyning tabiiy sharoiti, tabiiy resurslarining hududiy xususiyatlarini har tomonlama bilmasdan turib, o'sha joyga baho berib bo'lmaydi. Ya'ni tabiat jamiyat taraqqiyotida eng muhim moddiy sharoitlardan biridir.

Tabiiy geografiya fani umumiy yer bilimi bilan ham yaqindan aloqadordir. Chunki, u yoki bu rayonning tabiiy jarayonlarini geografik jihatdan o'rganayotganda umumiy geografik nazariyaga va yer bilimining asosiy tuchunshalaridan, mulohazalaridan bu fan foydalanadi.

Bu fan geologiya, geomorfologiya fanlari bilan ham aloqadordir, chunki rayonlarni relyefini o'rganayotganda shu fanlar nazariya va amaliyot ma'lumotlaridan keng foydalanadi.

O'zbekiston tabiiy geografiyasi fani kartografiya fani bilan ham yaqindan aloqadordir, bu fanda karta -sxema kartogramma, diagramma usullarisiz hesh mumkin emasdir.

Bundan tashqari fanimiz iqlimshunoslik fani bilan ham yaqindan aloqadordir. Chunki, har bir tabiiy geografik rayonni ajratishimiz bu fan asos sifatida ham qo'llaniladi.

3. O'zbekiston tabiiy geografiyasining ilmiy-amaliy tadqiqot uslublari va ulardan maqsad doirasida foydalanish xususiyatlari.

Har bir fan o'zining ilmiy tadqiqot uslublariga egadir. O'zbekiston tabiiy geografiyasi fanining ilmiy tadqiqot uslublari va ulardan maqsad doirasida foydalanish xususiyatlariga kelsak ular quyidagilardan iboratdir: taqqoslash, kartografiya, statistik, tarixiy tizimi-tarkib uslublari va boshqalardir.

O'zbekiston tabiiy geografiyasi fani, jumladan, O'zbekiston tabiiy geografiyasi kartasida, ayniqsa bozor iqtisodiyotiga o'tishda respublikaning mustaqilligini mustahkamlashda hamda kelajakda

O'zbekistonni rivojlangan davlatlar qatoriga shiqishi uchun respublikadagi mavjud iqtisodiy va tabiiy, mehnat resurslaridan oqilona tadbiq qilish va undan foydalanishga juda katta e'tibor berishni taqozo etadi.

Bu jarayonlarni o'rganishda, tahlil qilishda va o'z maslahatlarini berishda O'zbekiston tabiiy geografiyasi fanini roli benihoya kattadir.

O'ZBEKISTONNING O'RGANILISH TARIXI

REJA:

1. *O'zbekistonning tashkil topishi.*
2. *O'zbekistonning tabiiy geografik joylashgan o'rni.*
3. *O'zbekistonning tabiati va tabiiy boyliklarini o'rganilish tarixi*

Mavzuning maqsadi: Respublikaning tashkil topishi, tabiiy geografik o'rni, tabiati va tabiiy boyliklarini o'rganish tarixi haqida ma'lumot berish

O'zbekiston o'zining tarixiy taraqqiyoti jarayonida kishilik jamiyatining qadimgi fan, madaniyat va iqtisodiy markazlardan biri bo'lib kelgan. O'zbekiston tabiati, xususan Amudaryo va Xorazm vohasi haqidagi haqiqatga yaqin geografik ma'lumotlarni Abul Xasan Al - Mas'udiy yozib qoldirgan. U Amudaryo tog'lardan boshlanib, Termiz yonidan o'tib, g'arbga qarab ko'lga quyilishini, bu ko'lga yana bir katta daryo (Sirdaryo) kelib qo'shilishini, Xorazm vohasi» Amudaryodan bir qancha kanallar orqali suv olishligini yozib qoldirgan.

Arab sayyohi va geografi **Abu Isxok Istaxriy** «Iqlimlar kitobi» («Kitobul aqolim»)da Turkiston xaritasini tuzib, unda o'lka geografiyasi haqida umumiy ma'lumotlar berib, Amudaryo va Sirdaryo Orol ko'liga quyilishligini ko'rsatgan.

Arab sayyohi **Yoqut Ibn Abdulla** Turkistonga bir nesh bor sayohat qilib, «Mamlakatlarning alfavit ruyxati» («Mu'tumul buldon») nomli geografiyaga oid asarini yaratdi. Bu asarda Turkistonning tabiati, aholisi, shaharlari, karvon yo'llari haqida batafsil ma'lumotlar beradi.

Mashhur arab geografiya **Ibn Batuta** Turkistonga qilgan sayohatida Ustyurt, Xorazm, Qizilqum orqali Buxoro va Samarqandga keladi. U Ustyurt, Quyi Amudaryo, Zarafshon vodiysi tabiati, Urgansh, Buxoro, Samarqand shaharlari, u yerdagi tarixiy obidalar haqida ma'lumotlar yozib qoldirgan.

Turkiston, jumladan, O'zbekiston hududi tabiati haqidagi dastlabki, ilmiy jihatdan mukammal geografik ma'lumotlar jahonga mashhur bo'lgan IX—XII asrlarda yashagan Turkistonlik qomusshi olimlar tomonidan yozib qoldirilgan. Ular 780 yil Xivada tug'ilib, 850 yili Bag'dodda vafot etgan yurtdoshimiz *Muhammad ibn Muso al-Xorazmiy*, *Ahmad Farg'oniy* (IX asr boshida tug'ilib, 861 yili vafot etgan), *Abu Abdullo Muhammad ibn al Termiziy* (861 yili vafot ztgan), *Abu Nasr Forobiy* (873 yili Turkiston shahri yaqinidagi Forob (Utro) da tug'ilib, 950 yili Damashqda vafot etgan), *Abu Bakr Narshaxiy* (899—959 yillar), *Abu Rayxon Beruniy* (973—1048 yillar), *Abu Ali Ibn Sino* (980—1037 yillar), *Maxmud Koshg'ariy* (XI asr) va boshqalardir.

Turkistonda geografiya fanining rivojlanishida dunyoga mashhur atoqli matematik astronom va geograf *Muhammad ibn Xorazmiyning* xizmatlari buyukdir. Shu tufayli H. H. Hasanov IX—X asrlarni qamrab olgan va Turkiston geografiya fanining tug'ilish davrini «Muhammad Muso Xorazmiy — Balxiy geografiya maktabi» davri deb juda to'g'ri atagan.

Muso Xorazmiy tabiiy fanlarga oid juda ko'p asarlar yaratgan. Ular ishida eng muhim geografik va kartografik asari bu «Yerning tasviri («Surat al-arz») kitobidir. Bu asar «Xorazmiy geografiyasi» nomini olib, unda R. U. Raximbekovning ma'lumotiga ko'ra yer yuzasidagi 537 ta geografik punkt, jumladan 200 dan ortik. tog'larning tafsiloti, mamlakatlar, okeanlar, dengizlar, daryolar, ko'llar haqida ma'lumotlar bo'lib, geografik ob'ektlarning aniq koordinatalari berilgan. Muso Xorazmiy meridian yoyining bir gradusi 111,8 km. ga teng ekanligini (haqiqatda 111,0 km) ham isbotlab berdiki, bu keyingi kartografik ishlar uchun (xarita va atlaslar tuzish uchun) asos bo'ldi.

O'rta Osiyo tabiiy geografiyasining rivojiga katta hissa qo'shgan farg'onalik buyuk astronom, sayyoh, geograf *Axmad Farg'oniy*dir. U ko'p umrini Bag'doddagi «Donolar uyida» o'tkazgan.va ijod

qilgan. Ahmad Farg'oniyning asarlari ishida geografiyaga oid eng muhim kitobi «Astronomiyaga kirish» («Madhal an-nujum») bo'lib, unda yer kurrasining sharsimonligi dalillar bilan isbotlangan. U astronomiyaga, geodeziyaga va geografiyaga oid o'lshov asboblarini yaratish bilan ham shug'ullangan. Ahmad Farg'oniy R. U. Rahimbekovning ma'lumotiga ko'ra daryo suvini o'lshaydigan asbob («miqyosi jadam») ni ixtiro qilgan. Nihoyat, «Astronomiyaga kirish» ning oxirida Ahmad Farg'oniy Turkiston geografiyasiga oid ma'lumotlarni, ya'ni geografik ob'ektlarning koordinatalarini jadval tariqasida asari oxirida bergan.

O'rta Osiyo tabiiy geografiyasiga oid nazariy bilimlarning takomillashishida yurtdoshimiz, «Sharq Arastusi» deb nom olgan qomuschi olim Abu Nasr Forobiyning xizmati nihoyatda kattadir. "U matematik, astronom, buyuk faylasuf, musiqashunos, tabib bo'lishi bilan bir qatorda geograf sifatida ham jahonga mashhur allomadir.

Forobiy tabiiy va ijtimoiy fanlarga tegishli 160 dan ortiq ishlar muallifidir. Bular ishida «Ilmlarning kelib chiqishi va tasnifi» degan asari diqqatga sazovordir. R. U. Rahimbekovning ma'lumotiga ko'ra «Ilmlarning kelib chiqishi va tasnifi» asarida Forobiy tabiat haqidagi fan boshqa barcha ta'limiy fanlardan boy va ko'lami keng deb uqitirib, moddiy dunyoning to'rt «ildizi»— olov, havo, suv va yer mavjudligi haqida fikr yuritgan. Bu esa geografik qobiq unsurlari hisoblangan atmosfera, gidrosfera, litosferaga ancha mos keladi.

R. U. Raximbekovning ma'lumotiga ko'ra Forobiy sayyoh sifatida Turkiston o'lkasini kezib chiqib, ular haqida tabiiy geografik ma'lumotlar bergan.

Movarounnahr tabiati, xususan, iqlimi, suvlari, o'simlik va hayvonot olami haqida, shuningdek Buxoro tarixi haqida mukammal ma'lumotlar yozib qoldirgan yana bir Turkistonlik alloma *Abu Bakr Narshaxiydir*. U o'zining «Buxoro tarixi» asarida Buxoro shahri topografiyasi, tarixi, aholisi va xo'jaligi, Amudaryo va Zarafshon daryolari haqida ancha keng va haqiqatga juda yaqin ma'lumotlar beradi. U Amudaryo Turkistondagi eng katta daryo bo'lib, o'ta loyqaligini, Zarafshon (Haramkom), Baykend (hozirgi Yakkatut temir yul bekati yaqinidagi ko'xna shahar) gacha oqib so'ngra suvi ozayib, tuqayzorlar orqali Qorako'lga borib quyilishini, u ko'lda baliq va qushlar ko'pligini qayd qiladi.

O'zbekiston hududida tabiiy-geografik tasavvurlar ravnaqida buyuk qomuschi olim *Abu Rayxon Beruniyning* xizmatlari benihoya kattadir. U astronomiya fizika, matematika, geografiya, iqlimshunoslik, umumiy geologiya, minerologiya, geodeziya, kartografiya, etnografiya, botanika, tarix, adabiyot va boshqa fanlarning rivojlanishiga katta hissa qo'shgan.

Respublika hududida necha bor markazlashgan davlatlar barpo bo'lgan. Masalan, Amir Temur davlati (1333-1405). Bu qadimgi el xalqi benixoya bosqinli zarbalarga duchor qilingan, bu hol juda yomon oqibatlarga olib keldi. Masalan, Arab istilosi (666-714) Mongol-Ingliz (1218-1266). Chor rossiyasi (1816-1817) Turkistonni bosib oladi. Rossiya bosib olgan davrgasha Turkistonda Qo'qon, Xiva xonliklari va Buxoro Amirligi xukm surgan edi. Bu xonliklarda feodal munosabatlar mavjud edi. Keyinchalik Qo'qon xonligi tugatildi, Buxoro amirligi va Xiva xonligi saqlanib, ular Rossiya imperiyasining mustamlakasi sifatida saqlanadi.

XIX asr 2-yarmi (1876) O'rta Osiyo Chor Rossiya tomonidan bosib olingach, bu yerga rus tadqiqotchilari kelib ko'p tadqiqot ishlarini olib bordilar. masalan, rus zoologi, zoogeograf va sayyoh N. N. Seversov, geograf P. P. Semyonov-Tyanshanskiy, A. P. Fedchenko, A. F. Middendorf, geolog va geograf I. V. Mushketov, G. D. Romanovskiy va boshqalar Turkiston tabiatini o'rganish tarixida muhim ishlarni boshlab berganlar. Sh uningdek Turkistonni tarixiy o'rganish tarixida ayrim bo'limlar va ilmiy jamiyatlarni xizmatlari muxim ahamiyatga molikdir.

Turkiston o'lkasiga tadqiqotlar olib borgan dastlabki zoogeografi N. A. Seversov (1827-86). U Turkiston ko'p hududlarida tadqiqotlar olib borgan. Masalan, Pomir tog'ining orogeografiyasini o'rganishda xizmatlari kattadir. Seversov sayohati davomida zoologiya, botanika, mineralogiya, paleontologiyaga oid ko'plab kolleksiyalar to'plagan.

Rus geografi P. P. Semyonov-Tyanshanskiy Tyanshan tog'ini o'rganishga dastlab qadam qo'ygan olimdir. U tog'ning orografik xususiyatlari, o'simliklar dunyosi, qazilma boyliklari kabi muhim geografik tadqiqotlari alohida ahamiyatga egadir.

Rus tabiatshunosi A. P. Fedchenko (1844-1873) Vatanimiz tabiatini o'rganishda xizmatlari kattadir. U Zarafshon vodiysi Samarqand atroflari, Qizilqum xududi va Farg'ona vodiysidan tadqiqotlar olib borib ko'plab umurtqasiz va suv xayvonlari hamda o'simliklarni ko'p yangi turlarini aniqlagan va ularni to'plagan. Shu materiallar asosida o'zini asarini nashr qilgan (1871).

Geolog va geograf I. V. Mushketov (1850-1902) xizmatlari ham Vatanimiz tabiatini tarixini o'rganishda muhim ahamiyatli ishlar olib borgan. U Tyanshan tog'ini shimoliy qismini orografiyasining geologik jihatdan ochib bergan. U Turkistonda foydali qazilmalarni ko'pligini aniqlagan dastlabki tadqiqotchidir. Shuningdek u Turkiston menerallarini aniqlab ularni ro'yxatini tuzgan. Sayyoh 1877-78 yillar orasida Oloy, Pomir, Qizilqum, Zarafshon vohalarida geologik, gliosilogik kuzatish ishlari olingan va 1881 yil G. D. Romanovskiy bilan birgalikda Turkiston dastlabki geologik xaritasini tuzgan. Qishloq xo'jaligini o'rganishda esa A. F. Middendorfning xizmatlari kattadir.

Turkiston Rossiya tomonidan bosib olingandan keyin xududni har tomonlama o'rganish masalasi ko'rib chiqildi va tadqiqot markazlari, bo'limlari, qo'mitalari, jamiyatlar tuzilib, ular tadqiqot ishlarini boshlagan. Masalan, Turkiston g'arbiy tipografiya (1867) bo'limi, Toshkent meteorologiya (1867) markazi. Turkiston Statistika qo'mitasi (1868) va 1903 yil (aprel)da tashkil qilingan. O'rta va Sharqiy Osiyoni tarixiy arxeologik, linivistik va etnografik jihatdan o'rganish qo'mitasi tashkil qilingan.

Turkiston o'lkasi sovetlarning 1917 yil noyabr oyida bo'lib o'tgan 3-seyrdi hokimiyat ishchi, soldat va dehqon sovetlari qo'liga o'tganligini e'lon qildi va Turkiston o'lkasi xalq kommunistlar kengashi tuzildi. Bu ijtimoiy jarayonning buzilishiga ma'lum ijtimoiy-iqtisodiy noqulayliklarni keltirib chiqardi.

1991 yili 31 avgustda Respublikamiz Oliy Kengashining Sessiyasida O'zbekiston Respublikasining to'la mustaqilligini e'lon qildi. Shu davrdan boshlab O'zbekiston siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy hayotni mustaqil ravishda tashkil eta boshladi. 1991 yil 8 dekabrda 74 yil hukum surgan SSSR rasmiy ravishda tarqatilgan deb e'lon qilindi. Mustaqil davlatlar hamdo'stligi tashkil qilindi. 448,9 ming.km.kv. bo'lib, maydoni jihatdan MDH davlatlari o'rtasida 4, dunyoda 56-o'rinda turadi.

O'zbekiston O'rta Osiyoning markaziy qismida joylashgan. Uning xududining asosiy qismi Amudaryo bilan Sirdaryo orasida bo'lib, mo'tadil va subtropik iqlim mintaqalarida o'rnashgan. O'zbekistonning eng shimoliy nuqtasi Ustyurt platosining shimoli-sharqida, Orol dengizi qirg'og'ida bo'lib, 45° 31' shimoliy kenglikdadir. Eng janubiy nuqtasi esa Termiz shahri yonida, Amudaryo qirg'og'ida bo'lib, 37° 11' shimoliy kenglikka, to'g'ri keladi. Respublikamizning eng g'arbiy nuqtasi Ustyurt platosida 56° 00' sharqiy uzoqlikda, eng sharqiy nuqtasi esa O'zbekiston bilan Kirg'iziston chegarasida, Uzgan shahri yaqinida bo'lib, 37° 10' sharqiy uzoqlikda. O'zbekistonning eng shimoliy nuqtasi bilan eng janubiy nuqtalari orasidagi masofa 925 km, eng g'arbiy nuqtasi bilan eng sharqiy nuqtalari orasidagi masofa esa 1400 km.

O'zbekiston janubi-sharqda Tojikiston bilan, sharqda Qirg'iziston bilan, shimol va shimoli-g'arbda Qozog'iston bilan, janubi-g'arbda esa Turkmaniston bilan chegaradosh. Janubda O'zbekiston tog'gina Surxon-Sherobod vodiysida Afg'oniston bilan chegaradoshdir. Bu yerda Afg'oniston bilan O'zbekiston chegarasi Amudaryo orqali o'tadi.

O'zbekiston maydoni 448,9 ming kv. km bo'lib Norvegiya, Finlyandiya, Buyuk Britaniya va Italiya kabi davlatlar hududidan katta. O'zbekiston Belgiya, Gollandiya va Daniya kabi davlatlarning yer maydonlarini qo'shib hisoblasak ham ulardan 4 marta kattadir. Respublikamiz hududi Shveysariya davlati hududidan 10 marta ziyoddir.

O'zbekiston geografik o'rniga ko'ra juda qulay. Chunki uning hududi Turkistonning markazidagi tabiiy sharoiti qulay va tabiiy boyliklarga serob bo'lgan yerlarni o'z ichiga oladi. O'zbekistonning ko'p qismining tekislikdan iborat bo'lishi hamda serunum voxalarning — Chirchiq-Ohangaron, Farg'ona, Zarafshon, Qashqadaryo, Suxondaryo, Quyi Amudaryoning mavjudligi respublika iqtisodiyotining rivojlanishiga qulay sharoit yaratib bergan.

O'zbekiston O'rta dengiz atrofidagi mamlakatlar bilan deyarli bir geografik kenglikda joylashgan. O'rta dengiz atrofidagi mamlakatlar subtropikka xos landshaft bilan tavsiflanadi. Lekin O'zbekiston iliq okean va dengizlardan uzoqda, materik ishkarisida joylashganligi tufayli tabiiy sharoiti jihatidan O'rta dengiz atrofidagi davlatlardan butunlay farq qiladi. Chunki O'zbekiston hududining

shimoliy qismi oshiq bo'lib, qishda shimoldan va shimoli-sharqdan esuvchi sovuq, quruq havo oqimi bemalol ichki qismlarigacha yetib keladi.

O'zbekistonning tabiiy geografik joylashgan o'rni ancha qulayliklarga egadir. Masalan, 1) Respublikaning O'rta Osiyo markazida joylashganligi, chunki shimoldan janubga yoki g'arbdan sharqqa boradigan asosiy magistral yo'llar O'zbekistondan o'tishi Respublikaning iqtisodiy taraqqiyotiga qulay ta'sir ko'rsatadi. 2) qulay relyef sharoiti, qulay iqlim-tuproq resurslariga egaligi hamda sug'orish suv manbalariga boyligi. 3) O'rta Osiyodagi 9 ta davlatlardan tashqaridaligi. 4) O'zbekistonni markazda joylashuvi qo'shni respublikalar bilan xilma-xil ishlab chiqarish aloqalarini rivojlantirishda, respublikalararo hududiy ishlab chiqarish komplekslarini yaratishda, respublikalarning tutash hududlarida joylashgan turli resurslardan birgalashib foydalanishda katta imkoniyatlar oshib beradi.

Bu qulayliklarni yanada yaxshilash maqsadida Buyuk Ipak yo'lini tiklashda O'zbekiston katta ishlarni amalga oshirmoqda. Masalan, Toshkent-Andijon-Osh-Qashg'ar yo'li barpo qilinmoqda, bunda O'zbekiston faol qatnashmoqda.

Turkmanistondan, Kaspiy dengizi orqali Gruziya, Ozarbayjon, Qora dengiz orqali yevropaga chiqish sohasida ham O'zbekistonning xizmat xarakteri ortmoqda.

3. Tabiiy sharoit va tabiiy resurslar jamiyat taraqqiyotida eng muhim moddiy sharoitlardan biri bo'lib, O'zbekistonda ishlab chiqarish kuchlarining rivojlantirish va joylashtirishda muhim omil hisoblanadi.

Qachonki O'zbekiston haqiqiy mustaqillikka ega bo'lgandan keyin tabiiy resurslarni izlash, o'rganish va ulardan oqilona foydalanish Respublika xo'jaligini har tomonlama rivojlantirish uchun katta va keng istiqbollar oshib berdi.

Hozirgi fan-texnika taraqqiyoti jarayoni davrida tabiatga ta'sir ortib bormoqda. Bunday jarayonda O'zbekistonda tabiiy resurslardan oqilona foydalanish, ulardan tejab-tergab foydalanish va kelajak-avlodlar manfaatlarini ham ko'zlab ish yuritishni taqozo etadi. Tekshirishlar va hayot shuni ko'rsatadiki, O'zbekiston tabiati kishilarning yashashi, Respublikada ishlab chiqarish kuchlarini rivojlantirish hamda kelajak istiqboli uchun juda qulaydir.

O'zbekiston O'rta Osiyoning markaziy qismida joylashgani va uning bir qismi bo'lganligidan O'rta Osiyoda uchraydigan hamma tabiiy komponentlar O'zbekistonda uchraydi. Shu bilan birga ularni xususiyatlari, hajmi bo'yicha har xildir. Buni biz Respublikaning tabiiy resurslarini o'rganayotganimizda ko'rishimiz mumkin.

O'zbekiston maydoni jihatdan MDH 4 o'rinda yoki 2 % hududni egallab, aholisini soni jihatdan 7 % ortiqligi tashkil qiladi (25 mln kishi). O'zbekiston oltin, mis ishlab chiqarishda MDHda 3-o'rinda turadi. O'zbekistonda oltin gaz, mis, vol'fram, molibden, uran boyliklari bo'yicha jahonda 10 liderlar qatog'iga kiradi. O'zbekiston zaxirasida Mendeleyev davriy sistemasida uchraydigan deyarli hamma elementlar uchraydi. Bu jarayon O'zbekiston kelajakda buyuk rivojlangan davlatga aylanishiga qulay imkoniyatlar yaratadi.

O'zbekistonning bunday imkoniyatlari - O'zbekistonning tarixiy xo'jaligini xususiyati, iqtisodiy geografik joylashgan o'rnini qulayligi, boy va xilma-xil tabiiy resurslarga ega bo'lishi, mehnat resurslariga boy va yuqori malakali mutaxassislarini mavjudligi va boshqa iqtisodiy-ijtimoiy rivojlanish xususiyatlarini ustunligi bilan bog'liqdir.

O'ZBEKISTONNING GEOLOGIK TUZILISHI

REJA:

1. O'zbekistonni geologik tuzilishi
2. O'zbekiston xududini turli geologik era va davrlarida shakllanishi
3. O'zbekistonda yer qimirlashlar va yer qazilmalarini vujudga kelishi
4. Zilzila

Mavzuning maqsadi: O'zbekistonni geologik tuzilishi va yer qimirlashlar, foydali qazilmalarning vujudga kelishi, zilzilalar haqida ma'lumot berish.

1. O'zbekistonni geologik tuzilishi. O'zbekiston yer sharidagi eng qadimgi ijtimoiy hayoti va xo'jaligi yaxshi rivojlangan o'lkalardan biri hisoblanadi. Buni tarixiy geografik, arxeologiya va boshqa manbalarda

yaxshi isbotlangandir. Tarixiy davrlarda aholi ancha ko'p bo'lgan, ular asrlar davrida sug'orishga asoslangan dehqonshilikka, xilma xil hunarmandshilikka, yaylov shorvashiligiga ixtisoslashgan. O'zbekiston o'lkasi "Buyuk ipak yo'li" bo'yidagi eng gavjum bozor mamlakati desak bo'ladi. SHuningdek Turkistonliklar, jahon fani va madaniyati, tadqiqotiga katta hissa qo'shgan buyuk allomalar Beruniy, Ibn Sino, Al-Xorazmiy, Ulug'bek va boshqalar o'zbek ma'naviyatiga katta hissa qo'shganlar.

Yer ustini tuzilishi yoki relyef xususiyatlari. Ular har xil geologik davrda, murakkab tektonik xarakterlar va tashqi kushlar ta'sirida hozirgi relyef sharoiti vujudga kelgan.

O'zbekiston hududi geologik jihatdan ancha murakkab bo'lib, u davrda turli geologik davrlarga xos har xil qazilma boyliklar mavjud bo'lib, mamlakatning xalq xo'jaligini rivojlantirishga va kelajakda ulkan mamlakatga aylanishiga bu boyliklar katta imkoniyatlar yaratadi.

To'rtlamshi davrgacha bo'lgan geologik tarixga qisqa tavsif

O'zbekiston hududi o'zining geologik taraqqiyoti mobaynida juda ko'plab muhim paleotektonik va paleogeografik jarayonlarni o'tagan. Geosinklinal sharoitda sodir bo'ladigan jarayonlar bir nasha marta takrorlangan.

Ko'p yillik olib borilgan geologik tekshirish ishlari shuni ko'rsatadiki, O'zbekiston va unga qo'shni hududlar geologik tarixini yuqori arxey davridan boshlab tiklash mumkin. Bu davrda hududda bir nasha dengiz havzalari mavjud bo'lib, ularni ajratib turgan quruqliklarda terrigen, vulkanik va karbonat tog' jinslari to'plangan, bu tog' jinslari arxey davrining oxirlari va proterozoy davrining boshlanishida metamorfozlashgan.

Proterozoy davrining oxirida (rifey) Janubiy Tyanshan tog'lari o'rnida sho'kish jarayonlari natijasida dengiz paydo bo'lgan. Bu davrda Oloy, Turkiston, Zarafshon va Hisor tizmalarining janubida Qoraqum-Tojikiston, shimolida esa Shimoliy Qizilqum quruqligi joylashgan bo'lgan. Yuqori rifeyda O'rta Tyan-shanning shimolida vulkanlar otilgan.

Proterozoyning kembriyga o'tish davrida (vend) Oloy, Turkiston, Zarafshon va Hisor tizmalari o'rnidagi dengiz tektonik harakatlar natijasida shekinib, uning o'rnida tog'lar hosil bo'lgan, vendning oxiriga kelib esa tektonik xarakterlarning so'nishi va yemirilish jarayonlarining kushayishi oqibatida u hududning yer yuzasi tekislangan.

Kembriyning boshlanish davriga kelib hududni yana dengiz bosa boshlaydi va o'rta ordovikda O'zbekiston hududining sharqiy va janubi-sharqiy qismini dengizlar butunlay egallaydi. Ordovikning oxirlarida tog' paydo bo'lish jarayonlari boshlanadi va quyi devonda hududdan dengiz shekinadi, faqat Oloy, Turkiston, Zarafshon va Hisor tizmalari o'rnida qisman saqlanib qoladi. Bu yerda dengiz o'rtasida faqat kishik orollargina mavjud bo'lgan. Bu davrda ba'zi bir joylarda (Ushqulosh, Qoramozor, Bosbatov) vulkanlar otilib turgan.

O'rta devon va quyi triasda tektonik harakatlar yana faollashadi. Shimolda Qoratog', Shotk.ol va Norin, janubda Tyanshan va Kuksharaltog' epiplatforma geosinklinalari, ularning orasida platformaning nisbatan barqaror qismi Qurama-Farg'ona oraliq massivi, O'zbekistonning shimoli – g'arbiy qismida Ustyurt massivi hosil bo'lgan.

Devonning oxirida (rele'f, jivet asrlarida) hamda yuqori devonning famen asrida O'rta Osiyoning katta qismini dengizlar zgallaydi. Shu davrlarda vaqt-vaqti bilan kushli tektonik harakatlar va vulkan jarayonlari ham bo'lib turgan. Vulkanlar otilishi Janubiy Tyanshan tog'larida toshko'mir davrining quyi (namyur yoki serpuxov asrlarida) va o'rta (bashqird asri) bo'limlarida ham sodir bo'lgan.

O'zbekiston va unga yondosh hududlarning tektonik ko'rinishining shakllanishida toshko'mir davrining moskva asrida bo'lib o'tgan tektonik harakatlar ayniqsa katta rol o'ynagan.

Yuqori karbonning oxiri va perm davrlarida hozirgi Oloy tizmasi, Farg'ona sho'kmasi, Ustyurt platosi va Amudaryo havzasi quyi qismlarini yana dengiz bosgan. Faqat Qoratog', Chotqol va Janubiy Tyanshanning ba'zi bir qismlarida tektonik harakatlar sodir bo'lib, Qorjantog' va Qurama tizma, tog'lari joylashgan hududlarda vulkanlar ham otilib turgan.

Permning oxirlari va triasning boshlanish davrlarida Ustyurt, Janubiy Farg'ona hududlarini dengiz bosgan, boshqa hududlarda esa quruqliklar mavjud bo'lib, ular asosan tekisliklardan iborat bo'lgan. Triasning o'rtalarida hududda asosan tekisliklar hukm surgan, ba'zi bir joylarda supa tog'lar ko'tarilib turgan.

Quyida va o'rta yurda O'zbekiston hududida asosan quruqlik sharoiti hukm surgan. Yuqori yuraga kelib respublikaning anchagina qismini (g'arbiy, janubiy) Tetis okeanining shelf qismi egallagan.

Bur davrining boshlanishida O'rta Osiyoning g'arbiy qismida quruqliklar ko'p bo'lib, ayrim yerlarda kulsimon havzalar bo'lgan. hududning boshqa qismi tektonik harakatlar natijasida sho'kkan.

Paleogen davriga kelib kushsiz tektonik harakatlar boshlangan, biroq O'zbekistonning katta qismi dengiz ostida bo'lib, sho'kindi tog' jinslari yotqizilgan.

Professor Yu. A. Skvorsovning (1949) ko'rsatishisha, paleogenda O'zbekistonning tog'li va tekislik qismlari dengiz ostida bo'lib, faqat uning tog'li qismining ba'zi joylarida kishik-kishik orollargina ko'tarilib turgan, biroq bu orollarning joylashgan o'rni va katta-kishikligi hozirga qadar aniqlanmagan.

Paleogen dengizi ostida hosil bo'lgan tog' jinslaridan (asosan ohaktoshlar) topilgan shig'anoqlar O'zbekiston xududidagi paleogen dengizining chuqurligi 200 m. dan oshmaganligini ko'rsatadi. Shunday qilib, paleogen dengizi ostidan shiqqan vaqtda O'zbekiston hududi deyarli tekislikdan iborat bo'lgan. Paleogen davrining oxirlarida esa tektonik harakatlar ancha faollashgan, natijada oligosenning oxirlarida dengiz butunlay shekingan, Turon plitasi vujudga kelgan.

Neogen davriga kelib O'zbekistonning tog'li qismida yangi tektonik harakatlar faollashadi. Bu tektonik harakatlar differensial xarakterga ega bo'lgan, natijada tog' tizmalari ko'tarilib, tog' oraliq va tog' oldi botiqlari sho'ka boshlagan. Olib borilgan geologik ishlar natijasida Oloy-Turkiston tizma tog'larida dengiz sathidan 4500 m balandlikda oligosen davrida (taxminan bundan 38 mln. yil avval) dengizda yashagan *ekzogiro-ferganenzia* deb ataluvshi shiranoq topilgan. Demak, o'sha davrda bu shig'anoq dengiz sathidan 4000 m pastda yotgan. Keyingi tektonik ko'tarilish natijasida shig'anoq yotgan sho'kindi tog' jinslari dengiz sathidan yana 4500 m. balandlikka ko'tarilgan. Shunday qilib, O'zbekiston hududining tog'li qismi oligosen davridan to hozirgi davrga. qadar 8500 m. ko'tarilgan.

Yuqorida qayd qilganimizdek, O'zbekistonning tog'li qismida tektonik harakatlar turli xarakter va kushga ega bo'lgan. Uning bir qismi ko'tarilsa, ikkinshi bir qismi pasaygan. Kutarilgan qismlar tog' tizmalariga, pasaygan qismi esa tog' oralik. botiqlariga to'g'ri keladi. Ko'tarilayotgan qismlardan oqar suv va boshqa tabiiy jarayonlar ishi ta'sirida yemirilgan tog' jinslari sho'kayotgan joylarga to'plana boshlagan. Bunday jarayon neogen davridan boshlangan. Tog' oraliq botiqlardagi neogen davrida yotqizilgan tog' jinsi qatlamlarining tarkibi shuni ko'rsatadiki, bu davrda tog' tizmalarining ko'tarilishi va botiqlarning sho'kishi ancha zaif bo'lgan. Chunki botiqlarda yotqizilgan qatlamlar asosan gilli va qumli tog' jinslaridan tashkil topgan. Bu gilli va qumli qatlamlarning ustki qismi esa qalin qum aralash shag'ral toshlardan tashkil topgan. Bu hol botiqlar o'rab turgan tog' tizmalarining keyinshalik ko'tarilishi kushayganligidan dalolat beradi. Demak, neogen davrining oxirlaridan boshlab tektonik xarakterlarning differensiyalashganligi ancha kushaygan. Tog' tizmalarining ko'tarilishi va tog' oralik. botiqlarining sho'kishi uzoq vaqt davom etgan, natijada tog' oraliq botiqlarida qalinligi bir nasha ming metr keladigan sho'kindi tog' jinsi qatlamlari to'plangan. Masalan, professor N. P. Vasilkovskiyning yozishisha neogen davrida Chirchiq botig'ida to'plangan sho'kindi tog' jinslarining qalinligi 1500 m. dan ziyoddir.

Toshkent shahrida 8 balli zilzilalar 100 yilda bir marta, 7 balli zilzilalar 25 yilda bir marotaba, 6 balli zilzilalar esa har 2 yilda bir marta qaytarilib turar ekan. Kushsiz zilzilalar esa deyarli har kuni seysmik asboblar yordamida qayd etiladi.

Keyingi yillarda seysmolog, geolog va geomorfologlarning olib borgan tekshirish ishlarining ko'rsatishisha, O'zbekiston va unga qo'shni hududlarda kushli zilzilalar yer yoriqlari (razlomlar) va ularning bir-biri bilan tutashgan joylarida bo'lib o'tgan. Masalan, 1966 yilgi Toshkent zilzilasi Korjantog' va uni perpendikulyar kesib o'tgan yer yorig'ining darz ketgan mintaqasi buylab, 1976 va 1984 yillardagi Gazli zilzilalari Osiyo chuqur yorig'i bilan Persid-Balxash yer yorig'i tutashgan mintaqada, 1977 yildagi Isfara-Botkent zilzilasi Janubiy Farg'ona va Qoratog'-Pomir yer yorig'lari kesishgan mintaqada -sodir bo'lgan.

V. I. Ulomov (1982) O'zbekiston va unga qo'shni hududlarda qo'yidagi—Sharqiy Farg'ona, Talas-Farg'ona, Janubiy Tyanshanning g'arbiy va shimoliy qismi va Markaziy Qizilqum seysmogen mintaqalarni ajratgan.

Sharqiy Farg'ona mintaqasida 8—9 balli zilzilalar bo'lib turadi. Bularga 1902 yilning 16 dekabrda bo'lib o'tgan Andijon zilzilasi misol qilib ko'rsatish mumkin. Uning silkinish kuchi 8—9 ballga yetgan.

Talas-Farg'ona mintaqasi O'zbekistonning janubi-sharqiy qismida joylashgan bo'lib, juda kushli zilzilalar bo'lib turadigan mintaqa hisoblanadi. Mazkur mintaqada 1946 yilning 3 noyabrda 7—8 balli *Chotqol* zilzilasi bo'lib o'tgan. Bu zilzilaning markazi 250 km uzoqda joylashgan bo'lishiga qaramasdan, Toshkent shahrida kushli sezilgan.

Janubiy Tyanshanning g'arbiy va shimoliy qismidagi seysmogen mintaqada ham kushli zilzilalar bo'lib turadi va ular bu hududdagi sharqdan g'arbga kesib o'tuvshi chuqur yer yorig'i (razlom) bilan bog'liq.

O'ZBEKISTONNING RELYEFI

REJA:

Kirish

1. O'zbekistonning tog'li qismi

A) Tog' tizmalari

V) Tog' oralig' botig'lari

2. O'zbekistonning tekislik qismi

Mavzuning maqsadi: O'zbekistonni tog'li va tekislik qismi relyefiga ta'rif, eng baland tog' sho'qqisi, eng past botig'i haqida ma'lumot berish.

O'zbekistonning relyefi O'zbekiston hududi o'zining geologik taraqqiyoti mobaynida murakkab jarayonlarni boshidan keshirgan. Shuning uchun uning relyefi juda xilma-xildir.

Respublikaning sharqiy va janubi-sharqiy qismini O'rta Osiyoning eng baland tog'lari Tyanshan va Pomir-Oloy tizmalarining tarmoqlari qoplab olgan. Bu toglar g'arb va shimoli-g'arb-tomon pasayib boradi, sharq va janubi-sharqda esa ularning balandligi dengiz sathidan 7495 m ga yetadi.

O'zbekistonning shimoli-g'arbiy qismi esa Turon tekisligining markaziy qismi bilan band. Shunday qilib, O'zbekiston hududi yer usti tuzilishi jihatidan ikkita katta qismga, ya'ni tog'li va tekisliklarga bo'linadi. Bu qismlar o'z maydonlarining katta-kishikligi bilan bir-biridan keskin farq qiladi. O'zbekiston hududining 70% ga yaqini tekislik, qolgan 30% qismini esa tog'lar egallaydi. Bu qismlarning chegaralari nihoyatda egri-bugri bo'lib, tog'larning ba'zi bir tizmalari tekislik qismining ishkarisiga surilib kirgan, ayrim joylarda tekislik ham tog' tizmalari orasiga qo'ltiq shaklida kirib qolgan.

O'zbekistonning tog'li qismi. O'zbekiston asosan tog' tizmalari va tog' oraliq botiqlaridan iboratdir.

T O G ' t i z m a l a r i . O'zbekistonning shimoli-sharqiy qismida G'arbiy Tyanshanning tog' tizmalari joylashgan. Bu tog' tizmalar biri ikkinchisiga yondosh holda shimoli-sharqdan janubi-g'arb tomonga sho'zilib ketgan. Ularning hammasi shimoli-sharqda Talas Olatoviga borib qadaladi. Talas Olatovi G'arbiy Tyanshanning baland tog'laridan biri bo'lib, uning eng baland sho'qqisi, dengiz sathidan 4488 m balandlikka ko'tarilgan va Manas nomini olgan. Bu tizma chuqur daryo vodiylari va tog' oraliq botiqlarini bir-biridan ajratib turadi.

G'arbiy Tyanshanning shimoliy tizmalaridan biri Ugom tog'lari deb atalib, bu tog'ining janubi-sharqiy yonbag'irlari O'zbekiston Respublikasiga qaraydi. Ugom tog'ining dengiz sathidan o'rtasha balandligi 3500 m, eng baland sho'qqisi esa 4229 m ga (Sayram sho'qqisi) yetadi. Ugom tog'i janubi-g'arb tomonga asta-sekin pasayib boradi. Ugom tog'ining janubi-g'arb qismida Qorjontog' tizmasi joylashgan. Uning o'rtasha balandligi 2000 m, eng baland sho'qqisi (Mingbuloq) 2834 m ga yetadi.

Ugom tog'iga yondosh holda Piskom tog' tizmasi sho'zilgan. Piskom tizma tog'ining dengiz sathidan o'rtasha balandligi 3000—3500 m, eng baland sho'qqisi 4299 m ga yetadi. Uning baland qismida doimiy qor va muzliklar tarqalgan.

G'arbiy Tyanshanning eng uzun va baland tog' tizmalaridan biri Chotqoldir. Chotqol tog' tizmasini O'zbekiston hududida Ohangaron daryo vodiysi ikkiga bo'lgan. Bularning shimoliysi Arashon va Qizilnura, janubiysi esa Qurama tizma tog'lari deb ataladi.

Arashon va Qizilnura tog' tizmalari Ohangaron va Chotqol daryolarining suv ayirg'ishi hisoblanadi. Bu tizmalarining eng baland sho'qqisi dengiz sathidan 3893 m ga ko'tarilgan. Qizilnura tizmasining shimoliy

qismida Katta va Kishik Shimyon sho'qqilari joylashgan. Ular dengiz sathidan 3277 va 2101 m balanddir.

Qurama tizma tog'ining o'rtasha balandligi 2500 m bo'lib, ayrim sho'qqilari 3769 m gasha yetadi. Bu tizmaning janubi-g'arbida unsha baland bo'lmagan Mug'ultog' joylashgan. Ohangaron daryosining boshlanish qismida Ohangaron platosi joylashgan. Ohangaron platosining o'rtasha balandligi dengiz sathidan 3000 m ay-rim joylari 3400 m ga ham ko'tarilgan.

O'zbekiston hududida sharqdan g'arbga sho'zilgan Turkiston tizma tog'ining g'arbiy tarmog'i va shimoliy yonbag'irlarining aksar qismi joylashgan. Bu tizmaning O'zbekiston hududidagi eng baland sho'qqisi SHakartog' bo'lib, uning balandligi 4033 m ga yetadi Tizma g'arb tomon pasaya boradi. Sangzor daryosining boshlanish qismida Turkiston tizmasi ikkiga bo'lingan. Uning janubiy qismi — Shumqortog' deb atalib, sharqdan g'arb tomonga qarab sho'zilib ketgan va balandligi 3194 m ga yetadi, shimoliy qismi—Molg'uzor esa shimoli-g'arb tomon sho'zilgan. Bu tizmaning suv ayirg'ish qismi juda qoyali bo'lib, eng baland joyi 2622 m. Molg'uzor tog'ining balandligi shimoli-g'arb tomon kamayib boradi, tog'ning umumiy kurinishi ham o'zgarib, qoyali sho'qqilar o'rnini usti ancha tekis va silliq bo'lgan balandliklar egallaydi.

Molg'uzor tizmasining shimoli-g'arbiy davomi — Nurota tog'ini Sangzor daryosida hosil bo'lgan «Temurlang darvozasi» ajratib turadi. Nurota unsha baland bo'lmagan ikkita tizmadan iborat. Buning shimoliysi Nurota tog' tizmasi deb atalib, uning balandligi 2169 metrgasha ko'tariladi («Hayot sho'qqisi»).

Nurota tog'ining janubiy tizmasi bir neshta balandliklardan — G'ubduntog', Qaroqshitog', Oqtog' va Qoratog'lardan iborat. Bularning balandligi 1150—2006 metr o'rtasida bo'lib, shimoliy Nurota tog'ining janubiy yon bag'irlaridan boshlanadigan daryo vodiylari ularni bir-biridan ajratib turadi.

Turkiston tizma tog'larining janubdagi Zarafshon tizma tog'larining g'arbiy tarmoqlari Shaqilqalon va Qoratepa nomlari bilan ma'lum.

O'rta Osiyoning eng baland tog'lari Tyanshan va Pomir Oloy tizmalarining tarmoqlari O'zbekistonning sharqiy va Janubi – sharqiy qismini qoplab olgan. Bu tog'lar g'arb va shimoli g'arb tomon pasayib boradi, sharq va janubi-sharqda esa ularning balandligi dengiz sathidan 7495 m ga yetadi. O'zbekistonning 71 % i tekislik, 29 % i tog'lardan iborat.


Tog' oralig' botig'lari. O'zbekistonda eng katta tog' oralig' botig'lari Toshkent – Mirzacho'l, Farg'ona, Sangzor – Nurota, Kitob - Shahrisabz botig'lari.

1. O'zbekistonning tekislik qismi relyefi.

Qizilqum cho'l i qoldig' tog'lar va berk botig'lardan iborat Sulton Uvays 485m, Tomditog' 922 m, Quljuqtog' 874 m, Ovminzatog' 639 m, Aristontog' 693 m, Bo'kantog' 764 m, berk botig'lardan Oyoqog'itma, Qoraxotin, Mingbuloq.

O'zbekistonning shimoli – g'arbiy qismida, Amudaryo etaklarida

Amudaryo del'tasi joylashgan. Qarshi cho'l i, Zarafshon vodiysidagi Qarnob va Malik, Jom cho'l



lari tekislik qismining asosiy relyef shakllari hisoblanadi.

2 – rasm. O'zbekistonning orografik chizmasi.

Tizmalar: 1— Talas olatovi, 2— Ugom, 3— Qorjontog', 4— Piskom, 5— Ara-shon, 6— Qizilnura, 7— Qurama, 8— Mug'ultog', 9— Molg'uzor, 10— Shumqortog', 11 Nurota, 12— Gobduntog', 13— Qoroqshitog', 14— Oqtog', 15— Qoratog', 16 — Shaqilqalon. 17 Koratepa, 18— Ziyoviddin-Zirabuloq 19— Sumsar-Shertog', 20— Osmontosh, 21— Beshnov, 22— Eshak Maydon. 23— Xontaxta, 24— Bobo Surxon, 25— Boysuntog', 26— Ko'-xitang, 27— Bobotog', 28— Quljuqtog', 29— Ovminzatog', 30— Tomditog', 31— *Etimg'*, 32— Bukantog', 33— Sulton Vays.

Qirilar: 34— Qoplanqir, 35—Qorabovur. **Botiqlar:** I— Toshkent Mirzacho'l . P—Farg'ona, III— Sangzor-Nurota, IV — Zarafshon, V— Kitob-SHaxrisabz, VI— Sherobod-Surxondaryo, VII— Oyoqog'itma, VIII — Mingbuloq;, XI — Qoraxotin, .X— Asakaovdon, XI— Borsa-kelmas. XII—Sariqamish.

SAVOL VA TOPSHIRIQLAR:

1. O'zbekiston relyefini xarakterli xususiyatlarini ayting?
2. Respublikamizdagi eng tog' tizmalarini nomini ayting?
3. O'zbekistonning tekislik qismi relyef tuzulishini aniqlang.
4. Tabiiy jihatdan tuzulishi respublikaning iqtisodiy rivojlanishiga noqulayliklar tug'diradimi.
5. O'zbekistondagi cho'l lar haqida ma'lumot bering.
6. Mavzu bo'yicha xulosa shiqaring.

Quyidagi topshiriqni bajaring: Albom va daftaringizga ma'ruza matnidan foydalanib O'zbekistonning orografik tuzulishini ishlanmasini tayyorlang.

O'ZBEKISTONNING IQLIMI

REJA:

Kirish

36. Havo namligi, atmosfera bosimi.
37. Yog'inlar, yil fasllari haqida ma'lumot.
38. Iqlim resurslari.

Mavzuning maqsadi: O'zbekistonda harorat taqsimlanishi, havo namligi, atmosfera bosimi, yog'inlar, yil fasllari hakida ma'lumot

O'zbekiston kontinental iqlimga ega, uzoq davom etadigan jazirama issiq va quruq yoz bilan tavsiflanadi. O'zbekistonning iqlimi uning geografik o'rni va u bilan bog'liq holda quyosh radiyasiyasi, atmosfera sirkulyasiyasi, relyefi, yer yuzasining holati, iqlimga kishilar xo'jalik faoliyatining ta'siri natijasida tashkil topadi. Chunki Kohira O'rta dengizga yaqin bo'lganligi tufayli bulutli kunlar Toshkent va Termizga nisbatan ko'p bo'ladi. Binobarin, O'zbekiston quyoshli o'lka deb bejiz aytilmagan. O'zbekistonda yozda (iyun—avgust oylarida) Quyosh nur soshib turadigan davri nur soshishi mumkin bo'lgan davrning 84—95% ni, qishda (dekabr—fevral) esa 40—50% ni tashkil etadi.

O'zbekistonning tog'li qismida quyoshning nur soshib turish davri tekislikka nisbatan 600—700 soat kam bo'ladi: tog'larning 2000 m balandlik qismida quyosh yiliga o'rtasha 2300—2500 soat nur soshib turadi. Buning asosiy sababi tog' yonbag'ri bo'ylab ko'tarilgan sari bulutli kunlarning ortib borishi, tog' yonbag'rining quyoshga nisbatan holati (ekspozitsiyasi)dir.

O'zbekistonda quyosh ufqdan baland bo'lganligi, bulutsiz kunlarning ko'pligi (Toshkentda bir yilda 90 kun, Termizda esa 57 kun bulutli bo'ladi) oqibatida quyosh uzoq vaqt nur soshib turganligi tufayli uning hududiga kup yoruqlik energiyasi (issiqlik) tushadi. Respublikamiz shimoliy qismida xar sm² yuzaga yiliga 136—140 kilokaloriya issiklik, ya'ni radiasiya tushsa, janubiy qismiga 160 kilokaloriya issiklik tushadi. Yalpi quyosh radiyasiyasining miqdori yil buyi bir xil taqsimlanmagan. Eng ko'p quyosh radiyasiyasi yoz oylariga (qish oylariga nisbatan 5 marta ko'p) to'g'ri keladi. Hatto O'zbekistonning janubida iyulda radiasiya balansi 20 kkal/sm²ga yetadi. Bunga sabab yozda quyosh ufqdan balandda turib, uzoq vaqt yoritib, isitib turishidir. Aksinsha, qishda quyosh nuri yotiq tushadi, bulutli kunlar ko'p bo'lganligidan kam yoritadi, qor koplamining mavjudligi tufayli al'bedo katta bo'ladi. Natijada qishda,

xususan yanvarda yalpi radiasiya miqdori O'zbekistonning markaziy va janubiy qismida musbat bo'lib, bir sm² yuzaga 0,1—1,0 kkal.ni tashkil etadi. Lekin respublikaimizning eng shimoli-g'arbiy qismida (Ustyurtda) ba'zi yillarda qishda radiasiya balansi manfiy bo'lishi mumkin.

O'zbekiston iqlimining vujudga kelishida atmosfera sirkulyasiyasining (havo massalarining almashinib turishi) xam ahamiyati katta. Respublika xududiga yil bo'yi ushta quyidagi asosiy havo massalari ta'sir etib turadi. Arktika, mu'tadil (qutbiy) va tropik.

O'zbekiston hududida atmosfera sirkulyasiyasining o'zgarib turish xususiyatlari haqida yaxshi tasavvurga ega bo'lish maqsadida yilning issiq (yoz) va sovuq (qish) fasliga bo'lib tavsif beramiz.

Qishda O'zbekiston hududi kuproq arktika va mu'tadil (qutbiy) havo massalari ta'sirida bo'lib, ular shimoli-g'arbdan, shimoldan va shimoli-sharqdan kirib keladi.

Ma'lumki, O'rta Osiyo, jumladan O'zbekiston qishda Sibir antisiklonidan vujudga kelgan yuqori bosimli barometrik o'qdan janubda joylashgan. Natijada o'sha yuqori bosimli barometrik o'qdan, ya'ni shimoli-sharqdan O'zbekiston hududiga havo massasi kirib keladi. Bu havo massasi antisiklon xususiyatga ega bo'lganligi tufayli O'zbekistonga kirib kelgash, xavo oshiq lekin keshalari quruq sovuq, kunduzi esa quyosh nuri ta'sirida bir oz isiy boshlaydi, yog'in deyarli yog'maydi. Bunday ob-xavo ush kunga, ba'zan esa besh-etti kungasha davom etishi mumkin. Bunday ob-xavo qish kunlarining 28% ni tashkil etadi. Natijada O'zbekistonga boshqa regionlardan kelgan unsha kushli bo'lmagan havo massalari ham o'sha Sibir antisiklonidan vujudga kelgan (mu'tadil Sibir-qutbiy) havo massasi ta'sirida o'zining xususiyatini o'zgartirib Turon (mahalliy kontinental) havo massasini hosil qiladi.

Qishda O'zbekiston hududiga ba'zan iliq tropik havo massalari Eron-Afg'oniston tomondan kirib keladi. Natijada, O'rta Osiyoning janubiy qismida mu'tadil mintaqa sovuq havosini: Eron va Afronistondan kirib kelgan iliq tropik havosidan ajratib turuvshi qutb fronti vujudga keladi. Front shizig'i atrofida ob-havo bekaror bo'lib, siklonlar harakati kushayib, Kaspiy dengizining janubiy va Kopetdog' bilan Parapamiz tog'larining oralig'idagi Tajang va Murg'ob vodiylari orqali Turkistonga kirib keladixamda shimoli-sharq tomonga qarab harakat qiladi, okibatda Qozog'iston hududida u kushsizlanib qoladi.

Siklonlar o'zi bilan issiq tropik havo massasini olib kelganligi tufayli ular qoplab olgan joylarda havo ilib (harorat 15—20° gasha ko'tariladi), bulutlar kupayib, yog'inlar yog'adi. Bunday ob-xavo qish kunlarining 25%ni tashkil qiladi Qishda siklonlar sharqda va shimoli-sharqqa harakat qiladi, natijada O'zbekistonga shimoli-g'arbdan, shimoldan va g'arbdan mu'tadil va Arktika havo massalari kirib keladi.

Iqlim hosil qiladigan omil				
Fizik omillar		Geografik omillar		
Quyosh radiasiyasi	Atmosfera sirkulyasiyasi	Geografik o'rni	Yer yuzasining holati	Antropogen omillar

2. Yog'inlar, yil fasllari. Yg'inlar notekis taqsimlangan. Qishda Sibir antisikloni ta'sirida bo'ladi. YOzda g'arbiy havo massalari bilan bog'liq.. Tekisliklarda yog'inlar 80 - 120 mm, Tog' oldi oraliq botiqlarda, tog'larda 300 – 550 mm. YOg'inning 30 – 35 % bahorga, 25 – 40 % qishga, 10 – 12 % kuzga, 1 – 10 % yozga to'g'ri keladi.


Mo'tadil va Arktika sovuq havo massalari Rossiya tekisligining janubi-sharqiy qismi orqali shimoli-g'arbiy va shimoliy tomondan O'zbekiston hududiga esadi. Bu havo massalari qish kunlarining 24% ni tashkil qiladi. Shimoli-g'arbiy tomondan bostirib kiradigan havo massasi O'zbekiston hududini ancha sovitib, kunlik haroratni —10—20° pasaytiradi. Buning ustiga ba'zan qishda Arktika sovuq havo massasi xam bostirib kirib, turib qolishi natijasida harorat yanvar oylarida —35°gasha pasayishi mumkin. Bunday sovuqlar 1930 yil dekabrda, 1948 yil dekabr, 1949 yil yanvarda, 1969 yili yanvar oylarida kuzatilgan. 1948/49 yili qishda sodir bo'lgan ana shunday sovuq kunlar O'zbekiston yaqin janubi va hatto Eronda sodir bo'lib, juda ko'p mevali daraxtlarni sovuq urib quritib yuborgan.

Yuqorida qayd qilganimizdek, siklonlarning sharqqa qarab siljishi oqibatida O'zbekiston hududiga g'arbdan mu'tadil mintaqaning dengiz havo massasi ham kirib keladi. Bu havo massasi O'rta va Qopa


dengizlari orqali o'tganligi tufayli nam bo'lib, yomg'ir, ba'zan esa qor yogishiga sabab buladi. Bunday ob-havo qish kunlarining 11%ni tashkil etadi.

Yilning issiq faslida O'zbekistonda havo sirkulyasiyasi qish faslidan keskin farqlanadi. Chunki may oyidan boshlab Turon tekisligi havosi tezda qizib ketishi oqibatida past bosimli markaz — termik depressiyasi vujudga keladi. Natijada havo o'ta qizib mahalliy kontinental Turon tropik havosi shakllanadi va bu davrda O'zbekistonda harorat ko'tarilib Termizda 50°ga yetishi kuzatilgan. Bunday ob-havo (termik depressiyali kunlar) yoz davrining 15% ni tashkil qiladi.

Yozda Turon tekisligining shimolida mu'tadil (qutbiy) front shizig'i joylashib, bir tarmog'i Qozog'istonda, ikkinshi tarmog'i esa Qopa dengizning shimoli va Volga daryosining O'rta oqimida joylashib, xavo bosimi yuqoridir. Natijada termik depresiya usha yukori bosimli xavo massasini xuddi surg'ish (nasos) kabi tortib olishi oqibatida shimoldan, shimoli-g'arbdan va g'arbdan salqin havo massasi Turon tekisligi tomon esadi. Ma'lumotlarga qaraganda yozda shimoliy va shimoli-g'arbiy (yoz kunlarining 38% ni tashkil etadi) xamda g'arbiy (yoz kunlarining 29%) salqin havo massalari Turon tekisligida qishga nisbatan 1,5—2,0 marta ko'p takrorlanadi (10- rasm). Ammo Turon tekisligi qizib ketganligi tufayli uning ob-xavosini u qadar uzgartira olmaydi, faqat xaroratini 3—10°ga pasaytiradi, binobarin, xamon xavo nisbiy namlik kam bulib, kondensasiyalanish jarayoni qiyinlashadi. Shu tufayli Turon tekisligida shimoliy, Shimoli-g'arbiy va g'arbiy xavo massalari yozda kup essa-da, yog'ingarshilik bo'lmaydi. Bu xavo massalari O'zbekiston tog'larida (yuqoriga kutarilgan sari havoning sovib borishi okibatida) sovib, bulutlar xosil kilib, yomgir, ba'zan esa kor tarikasida yog'inlarni vujudga keltiradi.



3 – rasm. Qishda O'zbekiston hududiga esuvchi havo oqimlari



4 – rasm. Yozda O'zbekiston hududiga esuvchi havo oqimlari

O'zbekiston iqlimining tarkib topishida uning yer usti tuzilishi-relyefi xam ta'sir etadi. O'zbekiston xududining sharki va janubi tog'lar bilan uralgan bulib, g'arbi va shimoliy kismi oshik. Shu sababli

uning xududiga shimoldan, shimoli-garbdan va G'arbdan esuvchi sovuq xavo massalari bemalol kirib keladi. Aksinsha, respublikaimiz janubiy qismida Paropamiz kabi tog'larning mavjudligi iliq, tropik xavo massalarining kirib kelishiga to'siq bo'ladi.

3. Iqlim resurslar. O'zbekiston iqlimi kontinental, quyi mo'tadil va subtropik iqlim mintaqasiga kirib, respublika boy agroiqlim resursiga ega kunlar yoki vegetasiya davri quyi Amudaryoda 190-200 kun, Farg'ona vodiysida 210-225 kun, Toshkentda 200-210 kun, O'zbekistonning janubida 230-270 kundir. Mana shu sovuqsiz kunlar harorat umumiy yig'indisi 4500-5500 S haroratni tashkil qiladi. mana shunday iqlim sharoitida issiq sevar,uzoq vegetasiya davrini xohlovshi subtropik o'simliklar o'sishga ekinlar yetkazib berish imkoniyatiga egadir. Yana eng muhimi, 1 yerdan 1 yilda 2-5 marta hosil olish imkoniyatiga egadir.

O'ZBEKISTONNING ICHKI SUVLARI

REJA:

1. O'zbekistondagi daryolar, daryolarning tuyinishi
2. Muzlashi, loyqa oqiziq-lari, xujalik ahamiyati.
3. Kullar, suv omborlar, yer osti suvlari.

Mavzuning maqsadi: O'zbekistondagi daryolar, daryolarning tuyinishi, muzlashi, loyqa oqiziq-lari, xujalik ahamiyati, kullar, suv omborlar, yer osti suvlari haqida ma'lumot berish

1. O'zbekiston ichki suvlariga daryolar, kullar, yer osti suvlari| muzliklardagi suvlar, suv omborlari, kanal va ariqlardan suvlar kiradi. Ichki suvlar faqat respublika iqlim xususiyatlariga emas, balki uning tabiatining boshqa unsurlariga, xususan relyefiga xam bog'liqdir. Relyef ichki suvlarga, jumladan oqim hosil bo'lish jarayoniga bevosita hamda tabiiy - geografik omillar, ayniksa iqlimiy omillar orqali bilvosita ta'sir etadi. Chunki TOG' yonbagirlarining ko'pinsha tik bo'lganligi tufayli yoqqan yomg'ir, erigan qor va muz suvlari tezda pastga oqib tushib, soy va daryolarni hosil qiladi. Buning ustiga ularda mutlaq balandlikning ortib borishi tufayli yog'in kuproq tushadi, haroratning pastligi oqibatida qalin qor qoplami bo'ladi, muzliklarni tuyintirib turadi. Qor va muz suvlarining erishi natijasida yer osti suvlarining hosil bo'lishiga, daryolarni tuyintirib turishiga qulay sharoit yaratadi.

Respublikaimiz yer maydonining 71% ni ishg'ol qilgan tekislik qismida tog'larda vujudga kelgan suvlar bug'lanish (dalalaridan, sug'orish shoxobshalaridan, tuproq yuzasidan o'simliklar orqali) va shimilish natijasida sarflanib ketadi! Chunki tekislik qismida yog'in juda kam, aksinsha bulutsiz jazirama issiq kunlarning uzoq, davom etishi tufayli mumkin bo'lgan bug'lanishning ko'pligi oqibatida daryolar juda kam, yer osti suvlari nisbatan chuqurda joylashib, shurtang.

Daryolar. O'zbekiston daryolari berk havzaga kiradi. Okeanlarga, dengizlarga quyilmaydi. Daryo tarmoqlarining zishligi bimir xil emas, masalan, tekislik qismida har bir kv. km. ga 2 m, adirlarda 70 – 80 m, tog'li hududda 140 – 150 m to'g'ri keladi. Tog'li hududda Norin, Zarafshon, Chirchiq, Qoradaryo kabi daryolar juda sersuv.

Tekislikda yog'in kam va bug'lanish katta bo'lgani uchun oqim tez shakllanmaydi, shuning uchun u yerda daryolar kam.

Amudaryo, Sirdaryo, Qashqadaryo, Surxondaryo, Ugom, Ko'ksuv, Pskom daryolari asosan, tog'lardan suv oladi.

2. Daryolarning tuyinishi V. L. Shuls tomonidan 4 tipga bo'lingan:

1. Muzlik – qor suvlaridan to'yinadigan
2. Qor – muzlik suvlaridan tuyinadigan
3. Qor suvlaridan
4. Qor – yomg'ir suvlaridan tuyinadigan daryolar

Daryolar tekislikda - 10 - 12⁰ qishda 0⁰ dan past bulganda muzlaydi. Yoppasiga muzlamaydi tekislikda vodiysi kengaygan, sayoz va yoyilib, sekin oqadigan qismi muzlaydi. Oktyabrdan boshlab muzlar oqib yurishi kuzatiladi.

O'zbekiston suv resurslariga ham boydir. O'zbekiston hududidagi O'rta Osiyoda eng katta daryolar Amudaryo, Sirdaryo va ularning ko'pchilik irmoi o'tadi, ular Respublikaning asosiy suv manbasi hisoblanadi. Hozirgi O'zbekistondagi suv resurslari 5-5,5 mln gektarni suorish imkoniyatiga egadir. Suvdan oqilona foydalanishni taqozo etadi. O'zbekiston hududida yer osti suv manbalari ham majuddir, ularning

o'rtasha hajmi 6-7 km.kubga tengdir. Ulardan keng foydalanishni taqozo etadi. Bunday iqlim sharoitida suvdan oqilona va ilmiy asosda foydalanish zarur. Tekshirishlar shuni ko'rsatadiki, O'zbekistonda 1-1,5 mln gektar yerlarni o'zlashtirish uchun suv kerakdir.

3.Ko'llar va suv omborlari, yer osti suvlari. O'zbekistondagi kullar daryo vodiylarida joylashgan qayir ko'llar, tog'li qismida joylashgan to'siq (to'g'on) ko'llar, morena ko'llar va tektonik ko'llarga bo'linadi. Ko'llar soni 5360 tadan ortiq. Buni 100 % deb olsak, shundan 56,5 %i tekisliklarda, 43,5 tog'li qismida joylashgan.

Asosiy ko'llar Orol, Arnasoy, Aydar, Tuzkon, Dengizko'l, Somonko'l, Kuntako'l, Shurko'l, Qoraqir, Xojiobko'l, Axsikentko'l, Damko'l, Sario'amish, Karp, Ziirko'l, Abilko'l, Oqko'l, Sudoshe, Bo'zatovko'l, Zokirko'l, Tubonko'l va boshqalar.Suv omborlari – Qayroqqum, Tuyamuyin, SHorbog', Andijon, Kattako'rg'on, Janubiy Surxon, Shimqurg'on, Quyimozor, Pashkamar, Tuyabo'g'iz, Karkidon, Ushqizil va boshqalar.

O'ZBEKISTONNING TUPROQLARI

REJA:

1. Tuproqning turlari
2. Tuproqlarnig joylashishi va xususiyatlari
3. Tuproq eroziyasi

Mavzuning maqsadi: O'zbekiston tuproqlari, ularning tarqalishi, xususiyatlari, tuproq eroziyasi haqida ma'lumot berish.

O'zbekistonning tekisligida tuproqning zonallik xususiyati bo'lganligi uchun cho'l ga xos tuproq turlari shakllansa, tog'li qismida balandlik mintaqalanish vujudga kelgan. Tekislikda tuproq xosil bo'lishi sust bo'ladi.

Respublikamiz tekislik qismida ham qoldiq tog'lar, balandliklar, vodiylar, botiqlar mavjud bo'lib, ularda tuproq hosil bo'lish jarayoni bir-biridan farq qiladi. Buning ustiga yilning ko'p qismi issiq, quruk. va seroftob bo'lganligidan tuproq hosil bo'lish jarayoni sust bo'ladi. Yoz qurg'oqshil, harorat yuqori bo'lganligidan mumkin bo'lgan bug'lanish yog'inga nisbatan 15—20 martagasha ortiq bo'lib, tuproq tarkibida har xil tuzlar to'planib, tuproq ko'p joyda sho'rlashgan.

O'zbekistan hududining yer osti suvlari nisbatan chuqur joylashgan tekisliklarida sur-qo'ng'ir, tog' oldi tekisliklari va adirlarda bo'z, tog'larida jigar rang, qung'ir tog'-o'rmon kabi avtomorf tuproq turlari joylashgan. Aksinsha, yer osti suvlari yuza bo'lgan joylarda gidromorfli tuproqlar —o'tloq, botqoq, botqoq-o'tloq kabi tuproq turlari mavjud. Gidromorfli tuproq turlari yana joyning geomorfologik sharoitiga (daryoning quyi qayirlarida) bog'liq holda tog' oldi tekisliklarida ham uchraydi.

O'zbekistonda arid iqlim sharoitida vujudga kelgan sur-qo'ng'ir tusli, taqir, qumli kabi tuproqlarida shirindi miqdori nixoyatda kam bo'lib, tuproqning usti qatlamida 1,0% atrofida mavjud. Bunga asosiy sabab iqlimiy sharoitlarni (yoz issiq, qurg'oqshil bo'lib, uzoq, davom etishligi) noqulayligi tufayli o'simliklarning nixoyatda siyrak o'sishidir.

O'zbekiston hududida yana sug'oriladigan joylarda madaniy sug'oriladigan tuproqlari turi vujudga kelgan. Chunki kishilar ming yillab tuproqni sug'orib, har xil o'g'itlar solib, ishlov berib tabiiy xususiyatlarini o'zgartirib yuborgan. Bunday tuproq turlariga voha-o'tloq, voha-o'tloq, voha-buz kabi tuproqlar kiradi.

O'zbekistonning tekislik-cho'l qismidagi tuproqlarning o'ziga xos tomonlari shundaki, shirindi miqdori kam bo'lishidan tashqari yuqori karbonatli, sho'rlashgan va ba'zi yerlarida shurhoklar; mavjud. Respublika cho'l qismi tuprog'ining 40% sur-qung'ir tusli tuproqda, 36% qumlarga, 5,4% taqirli tuproqqa, 3,18% :Qumli shul tuproqda, 3,8% shurxokka, 0,5% taqirlarga to'g'ri keladi.

Demak, O'zbekistonning cho'l , qismida eng ko'p tarqalgan tuproq bu sur-qung'ir tuproq turidir. Bu tuproq turi respublika yer fondining 25—30% ni ishg'ol qilib, asosan bur, paleogen, neogen davrlarining qumtosh, gil, mergel, oxaktosh va qadimiy prolyuvial, ellyuvial yotqiziklarda tashkil topgan. Sur-qungir

tuproqlar Ustyurt platosi, Qizilqumdagi qoldiq tog' etaklari va balandliklari, Qarshi, Malik cho'l laridagi qoldiq tog' etaklarida joylashgan.

Sur-qunrir tuproq; tarkibida shirindi miqdori kam bo'lib, ustki qatlamida gumusning miqdori 0,3—0,77% gasha boradi. Sur - tuproq shurtang bo'lib, uning tarkibida kalsiy karbonat ko'p.

Respublika yer maydonini 75 %ni tekisliklar tashkil etadi. Ular Respublikaning markazi, shimoliy g'arbi bo'yi, vohalar va vodiy yerlaridir. Respublika hududida tekislikning katta maydonini egallashi O'zbekiston dehqonshiligiga keng miqyosida foydalanishga va teksliklarda tog'li yerlarga qaraganda transport va boshqa texnika vositalaridan foydalanish ancha qulay.

O'zbekiston yer resurslari bu muhim ishlab chiqarish vositasi hisoblanadi. O'zbekiston yer fondida 40 mln gektardan ortiq maydonni eallaydi. Undan 8-9 % maydoni yoki 4 mln dan ortiq yer dehqonshilikda foydalaniladi, yer maydoni 48-52 % yaylov sifatida foydalaniladi.

Sug'oriladigan yerlarni asosiy qismi cho'l mintaqasiga to'g'ri keladi. O'zbekistonning osh tipik bo'z tuproqlari dengiz yuzidan 500 m balandlikda uchraydi, ular ko'proq sho'rlaydi, yilda sho'rini yuvish talab etiladi. Bu joylar asosan Mirzacho'l , Qarshi, Jizzax, Sherobod, G'arbiy Farg'ona va boshqa yerlardir. Tekisliklarda nam yaqin yerlarda o'tloq botqoq tuproqlar uchraydi. Adirlarda bo'z tuproq, cho'l , qumoq qo'ng'ir tuproqlar tarqalgan. Qizilqum va boshqa cho'l larda qum va qumoq tuproqlar ko'pdir. Tog'larda jigarrang, qo'ng'ir, o'tloqi dasht tuproqlardir. Har bir yerning xususiyatiga qarab tuproq meliorativ holatini yaxshilab borish va tuproqni baholash - yer kadastri ishlarini tezlashtirishni taqozo etadi.

Respublikamizdagi lalmi yerning 20 foizi xavfli darajada eroziyaga, xususan suv eroziyasiga dushor bo'lgan (17-rayem). Bunga asosiy sabab o'tloq va yaylovlardan shorvashilikda noto'g'ri foydalanish, yerlarni to'g'ri haydash, yonbagirlari qiya bo'lgan joylarga bir yillik ekinlar ekish, o'rmonlarga nisbatan noto'g'ri munosabatda bo'lish kabilar sababshidir.

O'zbekiston yer fondining eng ko'p qismi (26,5—27,0 mln. gektari) yaylovlarga to'g'ri keladi. Yaylovlarning 42,0% sur-qung'ir tuproqlar joylashgan yerlarga, 50% qumli, qumoq, o'tloq va buo' tuproqlarga, 8% esa boshqa tuproqlarga to'g'ri keladi. Lekin so'nggi yillarda yaylovlardan noto'g'ri foydalanish (surunkasiga bir joyda mol boqish, tik yonbag'irlarni noto'g'ri haydash, daraxtlarni betartib kesish, geologik - qidiruv ishlari, yul qurish, gaz va boshqa quvurlar yotqizish va boshq.) tufayli yaylovlar sifati yomonlashib, qumlar ko'shib, qayta cho'l lashmoqda, tuppoq eroziyaga ushramoqda. Ma'lumotlarga kura respublika yaylovlarinin 27 foizining sifati o'zgarib ketgan.

O'zbekistonda sug'oriladigan yerlarining 722 ming gektari irrigasion (sug'orilma) eroziyaga ushragan. Bundan tashqari 700 ming ga lalmikor yerlar ham suv eroziyasiga dushor bo'lgan.

Sug'orish eroziyasi asosan nishab yerlarni ko'p suv oqizib, qarovsiz qoldirish oqibatida vujudga kelsa, lalmi yerlardagi eroziya tik yonbag'irlarni noto'g'ri haydab, bir yillik ekin ekish tufayli vujudga keladi.

Respublikamizda 0,6 mln. gektar maydon shamol, eroziyasidan zarar ko'rmoqda. Shamol eroziyasi ayniqsa Farg'ona, Zarafshon vodiysida, Mirzacho'l da, Qashqadaryo va Surxondaryo viloyatlarida kushli. Shamol eroziyasi tufayli tuproqning eng ustki hosildor qatlami zarar ko'radi, ya'ni ushirib ketadi, oqibatda tuproq hosildorligi keskin kamayadi.

O'ZBEKISTONNING O'SIMLIKLARI

REJA:

Kirish

1. O'zbekistonda o'sadigan o'simliklar.
2. Noyob va darivor o'simliklar
3. "O'zbekiston qizil kitobi" ga kiritilgan o'simliklar

Mavzuning maqsadi: O'zbekistonda o'sadigan o'simliklar qoplami, noyob va darivor o'simliklari, "O'zbekiston qizil kitobi" haqida ma'lumot berish.

O'simliklari O'zbekiston hududining kattaligi, tabiiy sharoitining hamma qismida bir xil emasligi, uning o'simlik qoplamiga ham ta'sir etgan. Tabiiy-geografik sharoitga bog'liq holda o'simlik turlari respublika tekislik-cho'l qismidan uning tog'li qismi tomon o'zgarib boradi.

O'zbekiston hududining ko'pchilik qismidagi tabiiy sharoitning o'simliklar o'sishi uchun noqulay bo'lishiga qaramay (yozi issiq, quruq, seroftob, qishi nisbatan sovuq) o'simliklarning 120 oilaga mansub bo'lgan 3700 turi mavjud. Vaxolanki, Qrim yarim orolida 2000, Uzoq SHarqda 1966, Oltoyda esa 1787 o'simlik turi bor.

O'zbekiston hududida o'simliklar uning geomorfologik tuzilishiga bog'liq holda quyidan yuqoriga ko'tarilgan sari o'zgarib boradi.

Biz respublika o'simliklarning balandlik mintaqa buyisha o'zgarishini K. 3. Zokirov taqdim etgan quyidagi mintaqalanish buyisha beramiz: cho'l, adir, tog' va yaylov.

Har bir balandlik mintaqa o'simligi o'sha hudud geomorfologik tuzilishiga, iqlimiy xususiyatlariga, tuproq qoplamiga bog'lik holda sharoitga moslashgandir. Agar respublika tog'li qismida o'simlik qoplami relyefga (tog' yonbag'ining qiyaligiga, quyoshga nisbatan holatiga, tog' jinsiga va boshqalar) bog'liq. holda joylashsa, tekislik qismida eng avvalo tuproqning mexanik tarkibiga, qay darajada shurlashganligiga, yer osti suviga, iqlimiga bog'liq holda joylashadi.

Cho'l mintaqasi. Bu mintaqa O'zbekistonning tekisligining 400—500 m. balandlikkasha bo'lgan qismini o'z ishiga oladi va respublika yer maydonining 70% ni ishg'ol qiladi. Cho'l mintaqasiga O'zbekistonning Qizilqum, Qarshi, Mirzacho'l kabi cho'l lari, Markaziy Farg'ona, Ustyurt, Quyi Amudaryo, Quyi Zarafshon va Quyi Surxondaryo kabi regionlari kiradi.

Cho'l mintaqasining yozi quruq, jazirama, seroftob, yog'inga nisbatan mumkin bo'lgan bug'lanish ko'p, qishi esa shu geografik kenglikda joylashgan O'rta dengiz atrofidagi mamlakatlarga nisbatan sovuq. Bu mintaqada yog'in miqdori kam bo'lib, uning g'arbiy qismida 80—100 mm, sharqida 250—300 mm, tog' oldi qismlarida esa 300—350 mm. ga yetadi. Aksinsha, mumkin bo'lgan bug'lanish g'arbida 1000—2000 mm, qolgan qismlarida 1000 mm atrofida: O'simlik resurslari har bir o'simlik mintaqasida har xil tarqalgandir. Qumloq yerlardan yaylov sifatida foydalaniladi. Ulardan 3-5 s dan ko'k massa olish mumkin. Adir yaylovlarida esa ko'proq 8-10 s ko'k olish mumkin. Tog'larda xashak zaxirasi ortiqdir, gektaridan 15-19 s olish mumkin. Bu yerda yozda eshki, yirik shoxli mollar boqiladi. O'simlik turlari 90 % shorva mollar uchun oziqadir. O'simlik resurslari yaylovdan tashqari yovvoyi mevalardan tog' olshasi, bodom, pista, olma va boshqalar tog'li va tog' oldi yerlarida ko'p tarqalgan. Tog'larda shifobaxsh o'simliklar ham ko'p.

sassi-quvray, pushti, qung'irgul, bir oz qurg'oqshil joylarda shayir, shuvoq, betaga, tikonli astragal butasi o'sadi.

Yaylov balandlik mintaqasining yuqori qismida (3500 m. dan yuqorida) al'p o'tloqlari uchraydi. Al'p o'tloqlari subal'p o'tloqlaridan past bo'lib, yer bag'irlab o'sishi bilan farqlanadi. Namgarshilik bo'lgan yerlarda tung'izsirt (kobrezuya) o'tining bir nasha turlari, gunafsha, qoqio't, yulduzot, sariq, ayiqtovon, yovvoyi kuknori kabilar usadi. Qurg'oqshil, toshloq, yerlarda qiziltikon, toshyog'ar, astragal kabi o'simliklar uchraydi.

Yaylov balandlik mintaqasining eng baland qismida doimiy qor va muzliklar; hamda qoyalar mavjud bo'lgan qismini esa nival mintaqasha ishg'ol qilib, o'simlik deyarli ushramaydi.. Faqat qoyalar orasidagi pastqam joylarda astragal, toshyog'ar kabi o'simliklar o'sadi, xolos.

O'SIMLIK RESURSLARI VA ULARNI MUHOFAZA QILISH

O'zbekiston o'simlik resurslarining ahamiyati juda kattadir. Eng avvalo o'simliklar ham saqlovshi, daryo suvini bir me'yorda saqlab turuvshi, tuproq eroziyasi oldini oluvshi, qumlarni mustahkamlovshi hamda havoni toza saqlab turuvshi muhim omil bo'lish bilan birga kishilarga dam olib, hordiq shiqarib, estetik zavq ham beradi.

O'zbekiston o'simliklari shorvashilikni rivojlantiruvshi yaylov va yem-xashak manbai. Respublika o'simliklarining 90% ga yaqini yem-xashak uchun yaroqli. Hatto cho'l mintaqasidagi yaylovlarning hosildorligi gektariga 3—5 sentnerni (xashak hisobida) tashkil etadi. Toshloqli cho'l larda va Ustyurtdagi yaylovlarning hosildorligi gektariga 2—4 s. bo'lsa, shurxokli cho'l larda esa 2—3! sentnerni tashkil etadi.

O'zbekistonning adir balandlik mintaqasida o'simliklar qalin o'sib, hosildorligi gektariga 8—10 s. gasha boradi. Bu mintaqa shorvashilik uchun yil buyi yaylov hisoblanadi. Ayniqsa efemer, efemeroid, efemeroid-shuvoq, bug'doyiq, taktak (yovvoyi arpa), shalov kabi baland buyli o'tlardan yil buyi shorva mol-lari uchun yaylov sifatida foydalanishdan tashqari pishan xam (gektaridan 4—6 sentnergasha) tayyorlash mumkin.

Tog' balandlik mintaqasidan yozgi va kuzgi yaylov sifatida hamda pishan tayorlashda foydalaniladi. Chunki bu mintaqada buyi 90—100 sm gasha bo'lgan xar xil utlar qalin o'sib, hosildorligi gektaridan 15—20 s. gasha borishi mumkin. Ayniqsa bug'doyiq, javdar, taktak (yovvoyi arpa), tariqbosh, shalov kabi o'simliklar eng muhim yaylov va yem-xashak manbaidir. Lekin tog' mintaqasida relyefining noqulayligi tufayli o'sha pishanzorlarni mexanizm yordamida o'rib olishni ancha qiyinlashadi.

SAVOL VA TOPSHIRIQLAR

1. O'zbekistonda qanday o'simliklar o'sadi
2. Noyob va dorivor o'simliklar qaysilar
3. "O'zbekiston qizil kitobi"ga kiritilgan zsimliklar nomini ayting

Quyidagi topshiriqlarni bajaring:

Daftaringizga "O'zbekiston qizil kitobi"ga kiritilgan o'simliklarni yozing.

O'ZBEKISTONNING HAYVONLARI

REJA:

Kirish

1. O'zbekistonning hayvonot olami
2. Kamayib ketayotgan hayvonlar
3. "O'zbekiston qizil kitobi" ga kiritilgan hayvonlar

Mavzuning maqsadi: O'zbekistonning hayvonot olami, kamayib ketayotgan hayvonlar, "O'zbekiston qizil kitobi" ga kiritilgan hayvonlar haqida ma'lumot berish.

Hayvonot dunyosi. O'zbekistonda hayvonlardan sut emizuvshilarni 97 turi uchraydi. Ulardan jayron, sayg'oq, burama shoxli tog' eshkisi, Buxoro bug'usi va boshqalar "Qizil kitob"ga kiritilgan. Hayvonlarning ba'zilari ovlanadi, shulardan terisi uchun tulki, shiyabo'ri, bo'rsiq va boshqalar ovlanadi. 1950 yildan boshlab ondatralar tayyorlanmoqda. Ularni daryo bo'ylarida suvli joylarda ko'paytirilmoqda. O'zbekistonda 60 xilga yaqin qush ovlanadi.

O'zbekistan hayvonlari tabiatning harakatshan unsuri hisoblanib, geografik muxitning ajralmas bir qismi sifatida respublikamiz landshafti tarkibiga kiradi.

O'zbekiston hududining kattaligi, tabiati hamda rivojlanish tarixi uning hamma qismida bir xil emasligi, shuningdek, kishilarning xujalik faoliyati hayvonlarning tarkibi va geografik tarqalishiga ta'sir etgan. Buning ustiga O'zbekiston hududiniig 71% ni tashkil etgan shulli qismida hayvonlar yozning jazirama, davomli quruq kunlariga, suvsizlikka, kushib-yuruvshi qumlarga moslashgan.

O'zbekiston faunasining o'ziga xos tomoni shundayki, uning turlari ko'p bo'lib, sutemizuvshilarning 97 turi, sudralib yuruvshilarning 57 turi, qushlarning 410 turi mavjud.

O'zbekiston hayvonlari paleoarktika zoogeografi oblastning Markaziy Osiyo kishik oblastiga kiradi. Respublika hayvonot dunyosi juda qadimiyliги bilan ajralib turadi. Ba'zi hayvon turlari respublika hududining o'zida paydo bo'lsa, ba'zi turlari Turkistonning boshqa joylaridan o'tgan. O'zbekiston hududida paydo bo'lgan hayvon turlariga ingishka barmoqli yumronqoziq, ko'k sug'ur, Bobrinskiy qushoyog'i, xujasavdogar, qum bug'ma iloni, Turkiston gekkoni, Turkiston agamasi, katta kurakburun baliqlar, Orol shipi va boshqalar kirib, ular boshqa joylarda deyarli ushraymaydi.

O'zbekistondagi ba'zi hayvon turlari, shunonshi katta qumsishqon, tamaris qumsishqoni, kishik qushyooq, qung'ir yumronqoziq, antilopa, sayg'oq, korsak, qora sassiqquzan, olakuzan, yovvoyi mushuk manul (dala mushugi) kabi hayvonlar Qozog'iston tekisliklaridan kirib kelgan. Jayron, barxon mushugi, qorakol Old Osiyo va Shimoliy Afrika cho'l laridagi xayvonlarga aloqasi bor. Burama shoxli eshki, qunduz, afg'on dala sishqoni, mayna kabi hayvonlar esa Afg'oniston faunasiga xosdir. O'zbekiston tog'larida yashovshi Himoliy ulari, Tibet Quzg'uni, Sibir eshkisi, ilvirs Markaziy Osiyodan kirib kelgan.

O'zbekiston hududida yashovshi sirtlon, shnyaburi, kobra (kuz-oynakli ilon) kabi hayvon turlari Hindistondan kirib kelsa, oq sishqon va qung'ir ayiq yevropaning shimoli uchun xosdir.

O'zbekiston tabiati xilma-xil bulib, uning shul qismida bir xil tabiiy muhit mavjud bo'lsa, tuqaylarda ikkinshi xil, adir va tog'larda yana boshqasha muhit vujudga kelgan. Binobarin, o'sha tabiiy sharoitga bog'liq holda shulga, tuqayga, voxaga, adirga, tog'da, yaylovga moslashgan hayvonlar yashaydi.

Cho'l hayvonlari. Cho'l hayvonlari uzoq davom etgan quruq, jazirama yozga, qumli, shurxok, gilli, toshloq sharoitga moslashgan. Shu sababli ba'zi xayvonlar uzok, davom etgan qurg'oqshil, nihoyatda issiqda, yozga shidamli bo'lib, umrida suv iste'mol qilmay o'simliklar tarkibidagi namlik bilan sheklansa, (yumronqoziqlar, qushoyoqlar, kursishqon) ba'zilar, shunonshi oqquyruq, jayron shopqir bo'lib, uzoqdagi suvloqlardan foydalanadi.

O'zbekistonda 3000 dan ortiq zaxarli ilonlar farmasevtika maqsadlarida ishlatiladi. Shulardan qulvor ilon, ko'k ilon, sharxilon, qorailon, va ko'zoynakli ilonlarni cho'l va tog' etaklaridan ovlanadi, hattoki, Toshkent va Jizzaxdagi maxsus ilon xonalarda zaxarli ilonlarni ko'paytiriladi. Ularni zaxarlari juda qimmat turadi.

SAVOL VA TOPSHIRIQLAR

1. O'zbekistonning hayvonot olamini o'rganish.
2. Kamayib ketayotgan hayvonlar ruyxatini tuzing
3. "O'zbekiston qizil kitobi" ga kiritilgan hayvonlarni aniqlang.
4. O'zbekiston hayvonlarining xalq xujaligidagi ahamiyati nimalardan iborat?
5. Nima uchun va qanday sabablarga ko'ra O'zbekistonda yashovshi ba'zi hayvon turlari kamayib, noyob turga, ba'zilari esa butunlay yo'q qilingan?
6. Nima uchun O'zbekiston «Qizil kitobi» tashkil etildi? «Qizil kitob»ga kirgan eng muhim hayvon turlarini ruyxatini tuzib chiqing.

O'ZBEKISTON TABIIY BOYLIKLARI

REJA:

Kirish

1. Tabiiy boyliklari va ulardan oqilona foydalanish
2. Tabiiy boyliklarni muhofaza qilish
3. Qo'riqxonalar, milliy bog' va buyurtmalar

Mavzuning maqsadi: O'zbekistonni tabiiy boyliklari va ulardan oqilona foydalanish, tabiiy boyliklarni muhofaza qilish, qo'riqxonalar, milliy bog' va buyurtmalar haqida ma'lumot berish.

O'ZBEKISTON TABIIY BOYLIKLARINI MUXOFAZA QILISH

Tabiat va inson orasidagi munosabatlar azaldan xammani qiziqtirib kelayotgan eng muhim muammolardan biri xisoblanadi. Ayniqsa, sanoat va transportning tez usishi, aholining kupayishi va urbanizatsiyasi, qishlok, xujalik ishlab chiqarishini kimyolashtirish, yerlarni betartib, rejasiz

o'zlashtirish, suv boyliklaridan xujasizlarsha foydalanish bir tomondan respublika boyliklaridan kuproq foydalanishga imkoniyat bersa, ikkinshi tomondan atrof-muhitga salbiy ta'sir etib, uning dastlabki tabiiy muvozanatini buzilishiga olib kelmoqda. Natijada respublika havo va suvi ifloslanmoqda, tuproq zroziyasi tezlashmoqda, usimlik va hayvonlarning ba'zi turlari kamayib yoki yuqolib ketmoqda, tabiiy yodgorliklar shikastlanmoqda. Binobarin, O'zbekiston tabiatini qo'riqlash masalasi respublika uchun zarur bulgan tabiiy boyliklarni — tuproqni eroziyadan saqlash, usimlik va hayvonot dunyosini muhofaza qilish, suv va havoni toza saqlash, xushmanzara joylarni va tabiatning ajoyib yodgorliklarini uz holisha saqlash kabilarni o'z ishiga oladi.

Agar atmosfera va suv boyliklari pokiza saqlanmasa, tuproqning eroziyaga ushrashi va ifloslanishiga shek quyilmasa, usimlik va hayvon turlarini kamayib ketishining oldi olinmasa xalq xujaligi juda katta zarar kuradi, aholi salomatligiga salbiy ta'sir etib, naslimiz buziladi, oqibat natijada ulkamizni kelajak avlodga «qashshoqlashgan»holda meros kilib qoldiramiz.

O'zbekistonda tabiiy boyliklardan foydalanish uziga xos xususiyatga ega. Chunki respublika axrlisining 90% atrofida gisi voxalarda joylashgan. Buning ustiga O'zbekistonning asosiy shaharlari, qishloqlari, zavod-fabrikalari, suroriladigan yerlari, paxta dalalari xam vohalarda joylashgan. Natijada vohalar (Toshkent-Mirzashul, Farg'ona, Zarafshon, Surxondaryo, Qashqadaryo, Quyi Amudaryo vohalari) sanoat, maishiy-kommunal sho'kindilari va qishloq, xujalikda ishlatilgan kimyoviy moddalar bilan ifloslangan.

O'zbekiston xududining katta qismini ishg'ol qilgan cho'l va tog'lari hozir tezkorlik bilan o'zlashtirilmoqda. SHu tufayli o'sha joylarda tabiatni muxofazasiga alohida e'tibor bermasak tabiat muvozanati buzilib, tabiiy boyliklarning holati yomonlashib, ba'zi tabiat unsurlari kamyob bo'lib o'sadi. Bunga ilgari O'zbekiston cho'l larida kun yashaydigan xongul, tog'larida gala-gala yashaydigan kakliklar, qir va tog'larda o'suvshi lolalarni noyob turga aylanib ketganligi yaqqol, misoldir.

O'zbekiston tabiatini muhofaza qilishning shora - tadbirlari va asosiy yunalishlari. O'zbekiston tabiatini muxofaza qilish va tabiiy resurslardan oqilona foydalanish uchun:

- O'zbekiston hududida atrof - muxit ifloslanishining oldini olish, ekologik vaziyat eng yomon mintaqa va shaharlarda muhit holatini tubdan yaxshilashga erishish, aholi salomatligi uchun o'ta xavfli moddalar miqdorini yul quyiladigan darajaga tushirishni ta'minlash;
- tabiiy resurslarning iste'molini barsha bug'inlarida, extiyot qilib, tejab, sanoatning kam shiqindili texnologiyasini joriy etib, shiqindisiz kompleks ishlab chiqarishga o'tish;
- korxonalarda xom ashyoni tejab, ulardan kompleks foydalanish, ishlab chiqarish va iste'mol shiqindilarini qayta ishlash maqsadida eski dastgohlarni yangiz amonaviy dastgoxlar bilan almashtirishga erishish;
- ishlab chiqarish kushlarining tabiatni muhofaza qilish qoidalariga asoslanib joylashtirish;
- tabiiy muhitning xolati va ifloslanishini ekologik nazorat ostiga olib, kuzatishning yagona avtomatlashgan tartibini yaratish;
- tabiat unsurlari barsha turlarining tabiiy xususiyatlari va rang-barangligini uz xolisha saklashga erishish;
- tabiiy yodgorliklarni hisobga olish va ularning, o'z holisha saqlashga erishish;
- aholi orasida, ayniqsa, bog'shalarda, o'rta va oliy o'quv yurtlarida tabiatni muhofaza qilishga qaratilgan ta'lim va tarbiyani kushaytirish;
- tabiatni ifloslanishidan kelib shik.ayotgan salbiy oqibatlarni, ayniqsa, kishilarning salomatligiga ta'sirini chuqur o'rganib, uning oldini olish shoralarini zudlik bilan ishlab shiqish;
- xalq xujaligi rahbarlari va mutaxassislariga tabiatni muhofaza qilish ta'limini berishga aloxida e'tiborni kushaytirish maqsadida soha malakasini oshirish institutlarida «tabiatdan oqilona foydalanish va muxofaza qilish» mavzusi buyisha kurslar tashkil qilish;
- ifloslantiruvshi moddalarni tabiatga chiqarishga yul qo'yilgan darajadan oshirilganligi xamda tabiiy boyliklardan samarasiz foydalanganligi uchun korxonalar, tashkilotlar, birlashmalar, xo'jaliklar va boshqa tashkilotlardan jarima olish. Aksinsha, tabiatni muxofaza qilish qonunlariga

korxonalar va tashkilotlarni rag'batlantirish tartibini amalga oshirish.

- keng xalq ommasini tabiatni muhofaza qilish ishidan xabardor etish va unga jalb etish maqsadida radio, oynajahon, ro'znoma va oynomalarda muntazam targ'ibot ishlarini kushaytirish.

O'zbekiston atmosferasini toza saqlash uchun quyidagi shora-tadbirlarni ko'rish va amalga oshirish kerak:

Yaqin yillarda Toshkent, Chirchiq, Navoiy, Farg'ona, Angren, Olmaliq, Andijon, Quqon, Namangan, Bekobod kabi shaharlarda va boshqa hududlarda noqulay vaziyatlarni yuzaga keltirayotgan korxonalarni shiqindilarini tartibga solish.

O'zbekiston juda katta mineral boyliklarga ega oltin, mis, molibden, volfram, qo'rg'oshin va rux, tabiiy gaz qimmatbaho toshlar jihatidan jahonda birinchi o'rinlarda turadi. Bundan tashqari fosforit, tuz, oltingugurt, alyuminiy xom ashyosi pardozlash va qurilish materiallarining katta zaxirasi mavjud.

O'zbekiston yoqilg'i balansida aktiv regionlardan hisoblanadi. Gaz va neft boyliklari ko'p yerda uchraydi. Shimoliy So'x, Janubiy Olamushuk, Polvontosh, Shimyon, Sho'rsov, Mingbuloq konlari bor. Ularda neft va gaz qazib olinadi. Bu konlar ko'pchiligi antiklinal tuzilishga ega bo'lib, yura-neogen va paleogen yotqiziqalarda joylashgandir. Neft yana Surxon vodiysida Amudaryo, Xovdog', Kashtog' va boshqa yerlardan olinadi. Bu konlarning nefti og'ir, tarkibida oltingurur ko'pdir.

Buxoro va Qashqadaryo regionlarida gaz konlari ko'p. Sho'rtan, Zevarda, Muborak, Ushqir, Jarqoq gaz konlari keyingi vaqtda katta istiqbolga ega bo'lgan Ko'kdumaloq gazi ishga tushirildi. Qidirib topilgan tabiiy gaz Respublikaning 35 yil, neft esa 30 yil ehtiyojini qoplaydi. Chunki u 2 trln metr kub gaz zaxirasiga egadir. O'zbekiston tabiiy gaz bo'yicha MDH va Rossiya va Turkmanistondan keyin 3-o'rinda turadi.

O'zbekiston katta ko'mir zahiralari ega bo'lib, Markaziy Osiyoda 2-o'rinda turadi. Bu konlar Toshkent viloyatida Angren, Surxondaryoda, Sharg'un va Boysun konlaridir. Shular ishida Angren koni ahamiyati katta bo'lib, uni oshiq usulda qazish imkoniyatiga ega hamda bu kon Toshkent industrial regioniga yaqin bo'lishi va nihoyat ko'mir qatlamlar orasida xo'jalik ahamiyatiga ega bo'lgan gil, kaolin, qum, bentanit, slanes va boshqa turli jinslar uchraydi. Shuning uchun Angren ko'mir konining ahamiyati katta.

Rudali resurslar. O'zbekiston xilma xil rudali boyliklarga ega temir koni Sulton Uvays tog'larida uchraydi, temir tarkibida nikel, kobalt, brom, platina va boshqa ma'danlar uchraydi. Temir yana Nurota, Chotqol tog'larida ham uchraydi. Ulardan hozir qazib olinmayapti.

O'zbekistonda marganesning bir neshta konlari bor. Ular Zarafshon, Korjontov va Morguzar tog'larida topilgan.

O'zbekiston rangdor metallarga boy. Mis zaxirasi bo'yicha Qozog'iston va Rossiyadan keyin ushinshi o'rinda turadi. Mis konlari Olmaliqda qazib olinadi. Polimetall konlari Surxondaryo viloyatida, Nurota, Qurama tizmalarida uchraydi. O'zbekistonda qiyin eriydigan metallardan mobilden rudasi ko'plar Nurota, Zirabuloq, Qoratepa tolarida joylashgan. Yana volfram konlari G'arbiy Tyanshanda, Sargardon va boshqa joylarda uchraydi. Hozir asosan ingishka va Qo'ytosh konlaridan molibden olinmoqda.

Savol va topshiriqlar

1. Nima sababdan O'zbekiston tabiatini muhofaza qilish muammosi yuzaga keldi?
2. O'zbekiston tabiiy resurslariga nimalar kiradi va ular qanday guruxlarga bo'linadi?
3. O'zbekiston tabiatini ifloslovshi asosiy manbalarni gapirib bering.
4. Respublika tabiatini muhofaza qilishning asosiy yo'nalishi va ko'riladigan shora-tadbirlar haqida nimalarni bilasiz?
5. Havo va suvni toza saqlab muhofaza qilish uchun qanday shora-tadbirlarni amalga oshirish kerak?
6. Nima uchun va qanday sabablarga ko'ra tuproq eroziyaga ushragan hamda ifloslangan, uni oldini olish uchun qanday vazifalarni amalga oshirish kerak?
7. Biologik resurslardan oqilona foydalanib, qayta tiklab, muhofaza ostiga olish sohasidagi shora-tadbirlarni gapirib bering.
8. Nima uchun landshaftlarni muhofaza ostiga olinadi?
9. Landshaftlarni va noyob, turi ozayib ketayotgan biologik resurslarni muxofaza qilishda qurixonalarning ahamiyatini gapirib bering.
10. Yozuvsiz xaritangizga O'zbekistondagi qurixonalar, buyurtmalar xalq bog'i, parvarishxonalarini tushirib, ular haqida gapirib bering.

11. Tabiiyot yodgorliklari deganda nimalarni tuchunasiz? O'zbekistondagi tabiat yodgorliklari xususiyatlariga ko'ra qanday turlarga bo'linadi?
12. Siz yashab turgan hududda qanday quriqxon, buyurtma yoki tabiat yodgorliklari bor

O'ZBEKISTONNI TABIIY GEOGRAFIK RAYONLASHTIRISH

REJA:

Kirish

1. O'zbekistonni tabiiy geografik rayonlashtirish masalari
2. O'zbekistonni tabiiy geografik jixatdan rayonlashtirish
3. Tabiiy rayonlarni ekologiyasi

Mavzuning maqsadi: O'zbekistonni tabiiy geografik rayonlashtirish, provinsiya, provinsiyasha, okrug, rayon, landshaft haqida ma'lumot berish.

O'zbekistonning tabiiy-geografik rayonlashtirilishi tabiiy-geografik rayonlashtirishning ba'zi bir uslubiy masalalari

Kompleks tabiiy-geografik rayonlashtirish — tabiiy geografiyaning eng muhim birinshi darajali muammolaridan biri hisoblanadi. Tabiiy-geografik rayonlashtirishning ilmiy jihatdan puxta asoslangan prinsipi, uslubi va taksonomik birligi (sxemasi) faqat ilmiy axamiyatga ega bo'lishdan tashqari xalq xujaligining turli sohalari uchun ham amaliy ahamiyatga egadir. Chunki tabiiy boyliklardan oqilona foydalanish, ularni muxofaza qilib, o'zgartirish, xalq xujaligini intensiv rivojlantirish, xalq xujalik tarmoqlarini ixtisoslashtirish eng avvalo hudud tabiati ishidagi tafovutlarni har tomonlama va ilmiy jihatdan puxta bilishni taqozo ztadi. Tabiiy-geografik rayonlashtirish bu hududda ma'lum qonuniyat asosida joylashgan va tabiatda ob'ektiv mavjud bo'lgan, bir-biridan tabiiy xususiyatlari jihatidan farqlanadigan har xil tabiiy - hududiy komplekslarni aniqlashdir.

Tabiiy - geografik rayonlashtirishning prinsipi bu tabiiy geografik bo'linishning ob'ektiv holda mavjudligiga qat'iy rioya qilishdir. Tabiiy -geografik rayonlashtirishning hududiy birlik prinsipi, komplekslik prinsipi, ob'ektivlik prinsipi nisbiy bir xillik prissipi, genetik prinsipi va boshqa prinsiplari mavjud.

Ma'lum hududni tabiiy - geografik jihatdan rayonlashtirishda tadqiqotshilar har xil uslublardan foydalanishlari mumkin. Ularning eng muhimlari: turli xil xaritalarni bir-biriga taqqoslash uslubi; landshaft va tipologik komplekslar xaritalaridan regional birliklarni aniqlash uslubi; xarakterli landshaft komplekslarining ustunlik uslubi; kartografik uslub; tabiiy geografik birliklarni bevosita dalada (joyda) aniklash uslubi¹.

Tabiiy-geografik rayonlashtirishning yana bir muxim tomoni bu rayonlashtirishning taksonomik birliklari (chizmasi) dir. SHu vaqtgasha Uzbekiston hududini rayonlashtirishning hamma qabul qilgan yagona taksonomik birligi yuq.

Vaholanki O'rta Osiyo, jumladan O'zbekiston hududini tabiiy-geografik rayonlashtirish bilan L. S. Berg (1913), S. I. Abolin (1929), V. M. SHetirkin (1944); E. M. Murzayev (1953, 1958), P. S. Makeyev (1956), L. N. Babushkin, N. A. Kogay (1964) shug'ullanganlar va o'z taksonomik birliklarini tavsiya etganlar. Bular ishida L. N. Babushkin, N. A. Kogaylarning rayonlashtirish tizimi diqqatga sazovordir. Chunki ularning tabiiy-geografik rayonlashtirish tizimi O'zbekiston hududini hamma qismini tulig'isha qamrab olgan.

L. N. Babushkin, N. A. Kogay O'rta Osiyoning bir qismi hisoblangan O'zbekiston hududini tabiiy - geografik rayonlashtirishda quyidagi taksonomik birliklar tizimini qo'llaydi: mamlakat (o'lka) — provinsiya — provinsiyasha — okrug — rayon — landshaft.

L. N. Babushkin, N. A. Kogay rayonlashtirish tizimiga ko'ra O'zbekiston hududining asosiy qismi Turon provinsiyasiga kiradi. L. N. Babushkin, N. A. Kogay Turon provinsiyasini tekislik va tog'oldi— tog'lik deb ikki provinsiyashaga ajratadi. Tekislik provinsiyashasiga Ustyurt, Quyi Amudaryo, Qizilqum va Quyi Zarafshon okruglarini; tog'oldi —tog'lik provinsiyashasiga esa O'rta Sirdaryo, Farg'ona,

O'rta Zarafshon, Qashqadaryo va Surxondaryo okruglarini kiritadi. Hap bir okrug o'z navbatida rayonlarga, rayonlar esa landshaftlarga bo'linadi.

Biz O'zbekiston hududini tabiiy-geografik rayonlashtirishda uni o'rta umumta'lim maktablar dasturiga yaqinlashtirish va talabalarga qulaylik tug'dirish maqsadida quyidagi rayonlashtirish tizimini qo'lladik: Provinsiya — provinsiyasha — okrug — rayon — landshaft.

Ma'lumki, O'zbekiston hududining asosiy qismi Turon tabiiy geografik provinsiyasiga, faqat Ustyurt platosi esa Markaziy Qozog'iston provinsiyasiga kiradi.

Ma'lum xududni tabiiy geografik rayonlashtirishda olimlar landshaft va tipologik komplekslar xaritalaridan regional birliklarini aniqlash, kartografik, tabiiy geografik birliklarni bevosita dalada aniqlash uslublaridan foydalanishadi.

O'zbekiston hududini tabiiy geografik rayonlashtirish bilan L. S. Berg, S. I. Abolin, V. M. Shetirkin, E. M. Murzayev, P. S. Makayev, L. N. Babushkin, N. A. Kogaylarning rayonlashtirish tizimi diqqatga sazovordir.

Bugungi kunda fan va amaliyot yer yuzasining istalgan nuqtasidan uzviy bog'liq bo'lgan ulkan hajmdagi ma'lumotlarni olmoqdaki, ularni taxlil etishva boshqaruvda qo'llash muhim ahamiyat kasb etadi. Bu ma'lumotlarni tahlil etish, jamlash va maqsadli foydalanish sinalgan usullardan biri yer yuzasini rayonlashtirish bo'lib hisoblanadi.

Rayonlashtirish nuqtaviy ma'lumotlarni fazoviy tartibga solish uning qonuniyatlarini kashf etishni muayyan qatog'lar tizimlar tarkib va tartiblarni aniqlashni ifoda etadi.

L. N. Babushkin, N. A. Kogay Turkistonning bir qismi hisoblangan O'zbekiston hududini tabiiy geografik rayonlashtirishda quyidagi taksonomik birliklardan foydalanganlar: mamlakat – provinsiya – provinsiyasha – okrug – rayon – landshaft.

SHunga binoan O'zbekiston hududining asosiy qismi Turon provinsiyasiga kiradi. Turon provinsiyasini tekislik va tog' oldi – tog'lik deb ikki provinsiyaga ajratadi. Tekislik provinsiyashasiga Ustyurt, Quyi Amudaryo, Qizilqum va Zarafshon okruglarini kiritadi.

Tog' oldi – tog'lik provinsiyashalariga Toshkent mirzacho'l, Farg'ona, Qashqadaryo, Surxondaryo, G'arbiy Tyanshan, Turkiston – Nurota, Hisor – Zarafshon, Bobotog' okruglarini kiritishgan.

Mazkur tabiiy geografik rayonlashtirish o'lkamizni tabiiy geografik jihatdan batafsil o'rganishga yordam beradi.

SAVOL VA TOPSHIRIQLAR

1. O'zbekistonni tabiiy geografik jihatdan rayonlashtirish qanday amalga oshirilgan?
2. O'zbekistonni tekislik va tog' oralig' provinsiyashalariga misol keltiring.
3. Taksonomik birlik nima?

ZARAFSHON OKRUGI

REJA:

1. Okrugning relyefi
2. Iqlimi
3. Zarafshon daryosi

Mavzuning maqsadi: Okrugning relyefi, iqlimi, tabiiy geografik rayonlari haqida ma'lumot berish. Bu okrug Zarafshon daryosinig Quyi Buxoro va Qorakul delta larini, Turkistonning markaziy yer po'stining tektonik jarayonlar natijasida sho'kkan qismida joylashgan Zarafshon vodiysinig o'rta qismini o'z ishiga olib birg' biridan Xazar yo'lagi orqali ajralib turadi. Bu okrugni shimoldan va g'arbdan Qizilqum okrugi, Janubi – g'arbdan Sandiqli qumligi, Janubdan Eshakshi qumligi, sharqdan Qiziltepa, Azkamar, Quyimozor, Qaynog'osh, Qushtepa, Qumsulton balandliklari o'rab turadi. O'rta Zarafshon Samarqand botig'ida shimol tomondan Shumqortog', G'ubdintog', Qaroqshitog', Oqtog', Qoratog', Janubdan Qoratepa, Ziyovuddin, Zirabuloq tog'lari bilan o'ralgan, sharqiy chegarasi Tojikiston bilan chegaradosh.

Okrugning mutloq balandligi Samarqand shahri 727 m, Kattaqo'rg'on shahri 450 m, Navoiy shahri 347 m.

Okrugda paleogen, neogen, antropogen davr sho'kindi jinslaridan tarkib topgan. Okrug ayrim yerlarda tog'ayib ayrim joylarda kengayadi. U Xazar yo'lagida tog'ayib, so'ng Abusalim tepaligida kengayib, Shoptoli qishlog'ida janubi – g'arbga qarab kengayib Buxoro delta sini hosil qildi. Deltaning uzunligi 102 km. o'rtasha kengligi 50 – 55 km, eng keng yeri 70 km.

Zarafshon daryosi Turkiston, Zarafshon va Oloy tog'lari tutuashgan Ko'ksuv tog' tugunidagi Zarafshon muzligidan 2772,5 m balandlikdan Mastshoh nomi bilan boshlanadi. U Ayniy qishlog'i yonida Fandaryo bilan qushilib Zarafshon nomini oladi. Uzunligi 751 km (Sandiqli qumligigasha) , suv yig'adigan maydoni 12374 km² .

SAVOL VA TOPSHIRIQLAR

1. Zarafshon okrugiga O'zbekistonning qaysi qismi kiradi?
2. Okrug iqlimining asosiy xususiyatlarini belgilang.

QIZILQUM OKRUGI

REJA:

1. Okrugning relyefi
2. Iqlimi

3. Tabiiy geografik rayonlari

Mavzuning maqsadi: Okrugning relyefi, iqlimi, tabiiy geografik rayonlari haqida ma'lumot berish. KIZILQUM OKRUGI Turon tekisligidagi eng katta cho'l lardan biri bo'lgan qizil-qum asosan Amudaryo bilan Sirdaryo orasida joylashgan. Lekin Qizilqum okrugiga Qizilqum cho'l ining O'zbekiston hududida joylashgan qismi kiradi.

Qizilqum okrugini shimoli-g'arbda Quyi Amudaryo okrugini bilan, janubi-sharqda Quyi Zarafshon okrugini bilan, sharqda esa Toshkent-Mirzashul okrugini bilan chegaralanadi. Okrugning janubi-g'arbi Turkmaniston, shimoli-sharqi Qozog'iston bilan bo'lgan davlat chegarasiga to'g'ri keladi.

Qizilqum janubi-sharqdan shimoli-g'arbga qarab pasayib boradi. Uning o'rtasha mutloq balandligi 200—300 m bo'lsa, janubi-sharqda 350—400 m, shimoli-g'arbda esa 90—100 m ga tushib qoladi.

Qizilqum okrugini yer usti tuzilishi jihatidan bir xil emas. Bu yerda botiqlar, tekisliklar, yassi platolar va qoldiq tog'lar mavjud. Lekin uning ko'pchilik qismini mutloq balandligi 200 m

Okrug shimoli – g'arbda Quyi Amudaryo okrugini bilan, janubi – sharqda Zarafshon, sharqda Toshkent – Mirzacho'l okrugini bilan chegaralanadi. Uning janubi – g'arbi Turkmaniston, shimoli – sharqi Qozog'iston bilan bqlgan davlat chegaralariga to'g'ri keladi.

Okrugning mutloq balandligi 200 – 300 m, janubi – sharqi 350 – 400 m, shimoli – g'abrda 90 – 100 m. U yerda botiqlar, tekisliklar, yassi platolar va qoldiq tog'lar mavjud.

Botiqlari: Mingbuloq, Mullali, Qaraxotin, Oyoqog'itma.

Qoldiq tog'lari: Quljug'tog' (Irlir sho'qqisi 764m), yetimtog' (568m), Tomditog' (Otog' sho'qqisi 922m), Sulto Uvays tog'i (Ashitog' sho'qqisi 473 m).

Qizilqum okrugini tabiiy boyliklarga serob xudud hisoblanadi. Eng muhim boyligi mineral resurslari (oltin, uran, gaz, fosforit, korund, grafit)dir. Bundan tashqari okrugda iqlim resurslari, yaylov-utloqlari, yer osti suvlari, muyna beruvshi hayvonlari xam mavjud bo'lib, ular yurt boyligidir.

Qizilkum okrugini o'z navbatida L. N. Babushkin, N. A. Kogay (1964) ning rayonlashtirish tizimi buyisha Sultonvays, SHimoliy Qizilkum, Bo'kan-Etimtog', Janubiy Qizilkum, Tomdi — Quljug'tog' kabi tabiiy-geografik rayonlarga bo'linadi.

I. **Sultonvays tabiiy-geografik rayoni** shu nom bilan ataluvshi qoldiq tog'ning va uning atrofidagi xududlarni uz ishiga oladi. Sultonvays tog'i YEmirilgan va assimetrik tuzilgan bo'lib, janubiy yon bag'riga nisbatan tik. Tog' Amudaryoning o'ng qirg'og'ida joylashib, kenglik buylab 40—45 km ga sho'zilgan, o'rtasha kengligi 10—15 km, eng baland Ashitog' sho'qqisi 475 m ga yeta-

di. Sultonvays tog'i g'arbga qarab pasayib bir - biridan ajralgan SHayx, Jeyli, Quyanshiq, Zangibobo, Jumurtog' kabi balandliklarni hosil qiladi. Iqlimi cho'l ga xos xususiyatlar bilan tavsiflanib, skeletli sur-ko'ng'ir tuproq tarqalgan bo'lib, asosan shuvoq o'sadi.

II. Shimoliy Qizilqum tabiiy-geografik rayoni. Bu rayon Qizilqumning 42° shimoliy kenglikdan shimolda bo'lgan yerlarini, ya'ni Bukantog' va yetimtog'larning shimoliy qismidagi xududlarni uz ishiga olib, asosan, qum massivlaridan iborat. Rayon xududining ko'p qismini pliosen — eski to'rtlamchi davr platolarining yemirilishidan (nurashidan) vujudga kelgan eol qumliklari, xususan, qumlarning ari uyasisimon marza, eol relyef shakllari egallaydi. Rayon Qizilqum okrugining eng soquq (yanvarning o'rtasha harorati $-7,8^\circ$), vegetasiyasi qish 0 ga teng bo'lgan rayoni hisoblanadi. Yozi esa okrugdagi eng past xaroratga ega bo'lib, iyulning o'rtacha harorati $+29^\circ$ dir. Asosiy tuprog'i qumli tuproq; bo'lib, unda oq saksovul va boshqa o'simliklar o'sib Qizilqum turli eol qumli landshaft bilan tavsiflanadi. Shuningdek, ba'zi sur-qo'ng'ir tuproqlar tarqalgan yerlarda efemer o'simliklar o'sadi Rayonning g'arbiy qismida Oqshadaryoning qadimiy delta tekisliklari mavjud (bo'lib, u meridian buylab 75—80 km ga sho'zilib, kengligi 6—7 km ga yetadi. Bu yerlar allyuvial yotqiziqlar bilan (qoplanib, taqirlar, sho'rxoklar mavjud bo'lib, qora saksovul va boshqa o'simliklar o'sadi).

III. Bukan-Etimtog' tabiiy-geografik rayoni. Rayon o'z ichiga Bo'kantog', yetimtog', Oltintog' va Kokpatos tog'larini hamda tog' oldi prolyuvial tekisliklarini oladi. Rayonning sharqdan g'arbga uzunligi 230—340 km. Rayonning asosiy qismini Bukantog' egallab bir qasha (Tubabergan, Buzdantog') tog'lardan iborat bo'lib, eng baland Irlir sho'qqisi. Bo'kantog'ning janubida esa Oltintog' (baland yeri 522 m) joylashib, u sharqda Kokpatas balandligiga tutashib ketadi. Rayonning sharqida yetimtog' joylashib, u yetimtog' 1 va 2, Kiyiktog' va Toktintog' kabi past tog'lardan iborat bo'lib, eng baland yeri 565 m ga yetadi. Bu tog'lar paleozoy erasining har xil cho'kindi va otqindi jinslaridan iborat bo'lib, yalang hamda soylar bilan kesilgan. Tog'larning etagida shag'al va gipsdan tashkil topgan prolyuvial tekisliklar joylashgan.

Tog'larning janubiy tog' oldi mintaqasida esa tog' oldi tekisliklari, qum massivlari, berk tubi shurxoklardan iborat botiqlar joylashgan. Ularning eng muximi O'zbekistonning eng past — (12 m) yeri bo'lgan Mingbuloq botig'idir.

Rayon iqlimiy xususiyatlari jihatidan Shimoliy Qizilqum bilan Janubiy Qizilqum orasidagi o'tkinchi mintaqa hisoblanib, qish tog'larda mo'tadil xususiyatga ega bo'lsa, botiqlarda sovuq, yoz esa quruq; va issiq. Iqlimning bunday xususiyatlari rayon tuproq va o'simlik qoplami xususiyatlariga ta'sir etgan. Binobarin, rayon quyidagi landshaftlarga bo'linadi.

1. Bo'kantog', OLTINTOG', YETIMTOG', KIYIKTOG' va Toktintog'larni o'z ichiga olgan paleozoy negizli, shuvoq o'suvchi sur-qung'ir tuproqli past tog'lar landshafti.
2. Sur-qung'ir tuproqli shuvoq formasiyasi mavjud bo'lgan tog' oldi prolyuvial tekisliklar landshafti.
3. Oq saksovullar o'suvshi past tog'lardagi eol qum landshafti.
4. Mezokaynazoy negizidan iborat bo'lgan sarisazanli shurxoklardan tashkil topgan berk botiqlar landshafti. Bu tur landshaft Mingbuloq botig'ini o'z ishiga oladi.

IV. Janubiy Qizilqum tabiiy-geografik rayoni.

Qizilkumning 42° shm kengligidan janubda joylashgan ikkita kum massivi — Buzauboy va Yomonqumni o'z ishiga oladi. Yomonkum .ETIMTOG' bilan TOMDITOG' orasida joylashgan. yemonkumning janubi va janubi-g'arbida esa Buzauboy qum massivi o'rnashgan. Bu ikki qumlikda xam ari uyasisimon, marza qum relef shakllari keng tarqalgan. Lekin Amudaryo sohillariga yaqinlashgash barxan qumliklari xam uchraydi.

Rayon Qizilqum okrugining qishi nisbatan iliq (yanvarning o'rtasha xarorati -4 — $-4,8^\circ$), yozi esa issik, (iyulning urtasha Harorati $+31^\circ$) va quruq bo'lgan qismi hisoblanib, harorati $+10^\circ$ dan yuqori bo'lgan davrdagi harorat yig'indisi 4850° yetadi.

Rayon uz navbatida quyidagi landshaftlarga bo'linadi.

1. Rayon xududining eng kup qismini ish'ol qilgan oq saksovul usuvshi qizilkum turli eol kum landshafti. Bu landshaft yemonkum va Buzauboy kumliklarini uz ishiga oladi.

2. Efemer usimliklari tarqalgan sur-kung'ir tuproqli pliosen — eski turtlamshi davr platolar landshafti.

3. Amudaryo qayirlari va qirg'oqlaridagi utloq-botqoq allyuvial tuproqlarda o'suvshi tuqay va qamishzorlar bilan o'ralgan delta hamda undagi qayirlar landshafti.

4. Amudaryoning suroriladigan utloq tuproqli delta va undagi qayirlar madaniy landshafti.

Qizilqum okrugini quyidagi tabiiy geografik rayonlarga bo'lamiz:

1. Sulton Uvays tabiiy geografik rayoni
2. Shimoliy Qizilqum tabiiy geografik rayoni
3. Bo'kan yetimtov tabiiy geografik rayoni
4. Janubiy Qizilqum tabiiy geografik rayoni
5. Tomdi – Quljuqtog' tabiiy geografik rayoni

Okrugda oltin, slyuda, asbest, boksit, simob, grafit, volfram, talk, granat, yashma, island, shpati, gaz, neft, uran, oltingugurt konlari mavjud.

Bu tabiiy boyliklarni muhofaza qilish va ulardan oqilona foydalanish, konlar atrofini rekultivasiya qilish zarur.

SAVOL VA TOPSHIRIQLAR

1. Qizilqum okrugini tabiiy sharoitini ta'riflang.
2. Qizilqum uchun qanday relyef shakllari xos?
3. Qizilqum okrugini qanday tabiiy geografik rayonlarga ajratamiz?
4. Okrugni tabiatini muhofaza qilish uchun qanday ishlarni amalga oshirish mumkin?

QUYI AMUDARYO OKRUGI

REJA:

1. Okrugning relyefi
2. Iqlimi
3. Tabiiy geografik rayonlari

Mavzuning maqsadi: Quyi Amudaryo okrugini tabiiy geografik o'rni, tabiiy geografik rayonlari va uning iqlimi haqida ma'lumot berish.

Okrug Qoraqum cho'l i bilan Orol dengizi orasida joylashib, o'z ishiga Amudaryoning qadimiy va hozirgi zamon del'tasini oladi. Okrugni g'arbdan Ustyurt, janubdan O'ngizorti Qoraqum, sharqdan Qizilqum va Sultonuvays tog'lari, shimoldan esa Orol dengizi o'rab turadi. Maydoni 46 ming. kv. km tashkil etadi.

Okrugda bo'r davri yotqiziqlari ko'p tarqalgan, uning ustini paleogen, neogen, antropogen davr jinslari qoplab yotibdi. Qadimiy delta sida gil, gilli qum, qumoqlar tarqalgan.

Relyefi asosan, qadimiy o'zanlar orasida nisbiy balandligi 60 – 80 m ga yetadigan tepaliklar, marzalar, qoldiq tog'lardan iborat. Qoldiq tog'lardan Quyanshiq, Qoratorov, Qumbelto'v, Jumirtov, Borlitov, Kuskantov, Qoshqantov, Beltov, Manqir, Tuzqir, Tarimqiya, Zangibobo va boshqalar.

Qadimiy daryo o'zanlari – SHortanboy, Kreyg – o'zak, Qora – o'zak, Kindiksoy, Qorako'lsoy, Ko'xnadaryo, Daryoliq, Daudan va boshqalar.

Okrug O'zbekistonning eng sovuq hududlaridan biri hisoblanadi. Yanvarning o'rtasha harorati – 4,5^o, - 7,6^o S, eng past harorati - 33^o (Taxiatoshda), eng qurg'oqshil hududida yiliga 79 – 108 mm yog'in tushadi. Okrug Orol dengizi orasida joylashib o'z ishiga Amudaryoning qadimiy va hozirgi zamon delta sini oladi. Okrugni g'arbdan Ustyurt, janubdan Ungizorti Qoraqum, sharqdan Qizilkum va Sultonvays tog'lari, shimoldan esa Orol dengizi o'rab turadi. Quyi Amudaryoning ushbu chegara orasidagi maydoni 46 ming kv km ni tashkil ztadi.

Quyi Amudaryo okrugini janubi-sharqdan shimoli-g'arb tomonga sho'zilgan bo'lib, shu tomonga kengayib, pasayib boradi. Okrug janubda Tuyamuyin tangligidan boshlanib, Orol dengizigasha davom etadi. SHu masofada uning uzunligi 400 km bo'lib, kengligi bir xil emas. Eng janubiy qismida Tuyamuyin tangligida okrugning kengligi taxminan 10—12 km bulib, shu yerdan Amudaryoning qadimiy delta si boshlanadi va shimoli-g'arbg qarab kengayib, Xorazm-Toshhovuz tekisligini hosil qiladi hamda kengligi 75—80 km ga yetadi. Amudaryoning qadimiy delta si Taxiatosh tangligigasha davom etadi va torayadi, so'ngra shi-molga tomon yana kengayib qadimiy delta tugab, Amudaryoning hozirgi zamon delta si boshlanadi hamda Orol dengizigasha davom etadi. Shu yunalish buyisha del'ta pasayadi va kengayib, ba'zi yerlarda 140—150 km ga yetadi.

QUYI Amudaryo okrugini angropogen davrning allyuvial-delta yotqiziqlarining asta-sekin to'planishi va uning delta sining Orol dengizi tomonga o'sishi tufayli vujudga kelgan. Binobarin, Quyi

Amudaryoda quruqlikning vujudga kelish jarayoni janubi-sharqdan, ya'ni Tuyamuyin tangligidan shimoli-g'arb, shimol tomonga qarab davom etgan. Amudaryoning hozirgi zamon delta sini Orol dengiziga tutashgan mintaqasida «eng yosh» delta bo'lib, uning maydoni Orol dengizi suv sathining pasayishi hisobiga muttasil kengayib bormoqda. So'nggi 35 yil ishida Orol dengizi suv sathining 15,5 metr pasayishi tufayli uning suvi ba'zi joylarida 100 km gasha shekinib, quruqlikka aylanib qoldi.

Quy Amudaryo yotqiziq-lari yoshi va litologik tuzilishi jihatidan bir xil emas. Okrugdagi eng qadimiy jinslar uning negizini tashkil etuvshi bur davr yotqiziq-lari bo'lib, ustini paleogen, neogen va; antropogen jinslari qoplab olgan.

Quy Amudaryoniing qadimiy delta si antropogen allyuvial yotqizik.laridan (gil, gilli qum, qumoq, qumloq va boshq.) iborat bo'lib, ularning qalinligi (bur; davrning tub jinslari ustidan) 20 m, ba'zi joylarda 100 m. ga yetadi. SHuningdek, qadimiy delta shetlarida, ba'zi kishik botiqlarda kul yotqiziq-lari ham uchraydi.

Quy Amudaryoning hozirgi zamon deltasi esa, asosan, antropogen davr allyuvial, eol yotqiziq-laridan — qumoq, qumli, gilli qum, gil kabi jinslardan tashkil topib, qalinligi 80— 140 m ga yetadi.

Orol dengizining quruqlikka aylangan qismida esa hozirgi zamon yotqiziq-lari (qumoq, qumloq, gil) bo'lib, ular tarkibida har xil tuzlar mavjud, ba'zi joylari esa botqoqlashgan.

Quy Amudaryo okrugining qadimdan sug'orib dexkonshilik qilinadigan yerlari (Xorazm) da qalinligi 2—3 m ga yetuvshi agroirrigasiya qatlami vujudga kelgan.

Quy Amudaryo okrugi yer usti tuzilishi jihatidan yassi tekislik bulib, shimolga va shimoli-g'arbiga qarab bir oz nishabdir. Lekin qalingi juda sezilarsiz (qiyaligi 0,0017) ligi tufayli Amudaryo tarmoqlanib, ilon izi bo'lib, sekin oqadi. SHuning uchun Amudaryoning qadimiy o'zanlari vujudga kelib uning relyefini ancha murakkablashtirgan. O'sha qadimiy o'zanlar orasida nisbiy balandliklari 60—80 mta yetuvshi bir nasha tepaliklar, marzalar va qoldiq tog'lar mavjud.

Quy Amudaryo okrugining rayonlari

1. Chimboy – Qung'iroq tabiiy geografik rayoni
2. Xorazm tabiiy geografik rayoni
Bu rayon quyidagi landshaftlarga ega.
 1. Tabiiy-geografik rayonning janubi-sharqiy qismida joylashgan, efemer o'simliklari bilan band bo'lgan, sur-qung'ir tuproqli qadimiy (pliosen — eski to'rtlamshi davr) platolar landshaft.
3. Amudaryoning allyuvial-delta tekisligidagi ko'ra saksovul usuvshi taqir-shurxok va shurxokli delta - tekisliklar landshafti.
4. Amudaryoning qadimiy o'zanlari atrofida va rayonning janubi Ungizorti Qoraqumiga tutashgan joylardagi yantoq o'suvshi delta tekisligining eol qumli landshafti.
4. Amudaryoning yangi qayirlarida joylashgan tuqay o'simliklari bilan qoplangan utloq va botqoq allyuvial tuprokli qayirlar landshafti.
5. Kullar atrofida va kishik shurxokli botqoqlarda joylashgan bir yillik sho`ralar (soyanka) o`suvchi delta –tekisliklaridagi sho`rxoklar landshafti.
6. Xorazm vohasining delta-tekislikligidagi o'tloq, tuproqli madaniy landshaft.

SAVOL VA TOPSHIRIQLAR

1. Quy Amudaryo Qizilqum okrugi bilan bir geografik kenglikda joylashsada, landshafti jihatidan tubdan farq qiladi, sababini tuchuntirib bering.
2. O'zbekiston Atlasidan (birinchi qismi) foydalanib okrugda qaysi davr yotqiziq-lari keng tarqalganligini aniqlab, sababini tuchuntirib bering.
3. Okrug relyefini o'zgartirishda qanday omillar muhim vazifani o'ynagan?
4. Nima uchun okrugda yog'in respublika bo'yisha eng kam tushadi, aksinsha, mumkin bo'lgan bug'lanish yog'inga nisbatan 20 marta ortiq?
5. Tuproq va o'simlik xaritalarini tahlil qilib, okrugda keng tarqalgan tuproq - o'simlik turlari ro'yxatini tuzib chiqing.
6. Orol dengiz suv satxining pasayishini okrug tabiatiga ko'rsatayotgan salbiy ta'sirini tuchuntirib bering. 7. Okrugda qanday qo'riqxon va buyurtmalar bor hamda ular qanday maqsadda barpo etilgan?
3. Nima uchun okrug rayon va landshaftlarga ajratildi?

USTYURT OKRUGI

REJA:

1. Okrugning relyefi
2. Iqlimi
3. Tabiiy geografik rayonlari

Mavzuning maqsadi: Ustyurt okrugini tabiiy sharoiti, relyefi, iqlimi, rayonlarini o'rganish

Ustyurt okrugini O'zbekistonning eng shimoliy – g'arbiy qismida joylashib, shimolda va g'arbda Qozog'iston bilan, Janubda Turkmaniston, sharqda esa Quyi Amudaryo okrugini va Orol dengizi bilan chegaralangan.

Ustyurt arid – denudasion plato hisoblanib, balandligi 100 – 200 m atrofida shinklar bilan o'ralgan. Ustyurt platosi geologik tuzilishi jihatdan epipolezoy plitasining bir qismi hisoblanib, negizi paleozoy yotqiziqalaridan iborat, ustini qalin 3 – 4,5 km mezozoy va kaynozoy davrining sho'kindi jinslari qoplab olgan.

Shinklar tektonik jarayonlar (uzulmalar) Orolning abrazion faoliyati va qadimiy daryo eroziyasi natijasida hosil bo'lgan.

Ustyurt okrugida yanvarning o'rtasha harorati – 11, -12⁰ S, iyulniki 27 , 28⁰ S, eng past harorat – 37⁰ S, eng yuqori harorat 44⁰ S ga yetadi.

Sovuq bo'lmaydigan kunlar 153 kuni tashkil etadi. Bu yerda yog'in miqdori 100 -120 mm, Qishda 17%, bahorda 34 %, yozda 23 %, kuzda 26 % i yog'adi. Ustyurt okrugida oqar suvlar yo'q.

Ustyurt okrugini quyidagi tabiiy geografik rayonlarga bo'linadi:

1. SHimoliy Ustyurt tabiiy geografik rayoni
2. Markaziy Ustyurt tabiiy geografik rayoni
3. Janubiy Ustyurt tabiiy geografik rayoni

SAVOL VA TOPSHIRIQLAR

1. Ustyurt okrugini tabiiy geografik o'rnini belgilang.
2. SHinklar nima, arid - denudasion platoshi?
3. Iqlimi haqida nimalar deya olasiz?

MIRZACHO'L OKRUGI

REJA:

1. Okrugning relyefi
2. Iqlimi
3. Tabiiy geografik rayonlari

Mavzuning maqsadi: Mirzacho'l okrugini tabiiy sharoiti, relyefi, iqlimi, rayonlarini o'rganish

Bu okrug Sirdaryo vodiysining o'rta qismi, Chirchiq hamda Ohangaron vodiylarining qo'yi qismida joylashgan bo'lib, Toshkent – Mirzacho'l botig'ini o'z ishiga oladi. Okrug janub tomondan Nurota, Molguzar va Turkiston tizmalari bilan, sharqdan Mug'ultog', Qurama tog'lari bilan, shimoli – sharqdan Chotqol, Qorjantog' tizmalarining tog' etaklari bilan o'ralgan. Shimol va g'arb tomondan okrugning chegarasi shartli ravishda O'zbekistonning Qozog'iston bilan bo'lgan davlat chegarasi orqali o'tadi. Janubi – sharqda esa 8 km kenglikdagi Xo'jand darvozasi orhali Farg'ona vodiysidan ajralib turadi. Unga Toshkent Sirdaryo, Jizzax viloyatlari hududlari to'g'ri keladi.

Okrug geologik jihatdan G'arbiy Tyanshan va Turkiston megaantiklinali orasidagi sinklinalda joylashib, so'ngra Sirdaryo va uning doimiy hamda vaqtli irmoqlari keltirgan jinslar bilan to'ldirilgan.

Bu yerda Sho'ro'zak, Sardoba, Qorao'y, Yog'ochota va boshqa botiqlar Sirdaryoning o'sha qadimiy o'zanlaridir. Okrugning o'rtacha nisbiy balandligi 373 m – 385 m, Guliston shahri 276 m, Sirdaryo shahri 240 m, Chinoz 278 m, Yangiyo'l shahri 338 m, Bo'zsuvda Chirchiq vodiysining balandligi 473 m ni tashkil etadi.

Okrugning iqlimi kontinental, Arktika havo massalari bemalol kirib keladi. Qishning o'rtasha havo harorati –1, -3⁰ S, iyulning o'rtasha havo harorati 27 – 29⁰ S. eng past harorat –28, -35⁰ S. Yog'inlar notekis

taqsimlangan, o'rtasha yillik yog'in miqdori 250 – 300 mm, okrugning shimoli – sharqida 300 – 400 mm ga yetadi.

3. Mirzacho'l okrugini quyidagi tabiiy geografik rayonlarga ajratiladi:

1. Forish – Jizzax tabiiy geografik rayoni
2. Mirzacho'l tabiiy geografik rayoni

SAVOL VA TOPSHIRIQLAR

1. Mirzacho'l okrugiga O'zbekistonning qaysi qismi kiradi?
2. Okrug iqlimining asosiy xususiyatlarini belgilang.
3. Okrug qanday tabiiy geografik rayonlarga bo'linadi?

FARG'ONA OKRUGI

REJA:

1. Okrugning relyefi
2. Iqlimi
3. Tabiiy geografik rayonlari

Mavzuning maqsadi: Farg'ona okrugini tabiiy sharoiti, relyefi, iqlimi, rayonlarini o'rganish
Farg'ona tabiiy geografik okrugini O'zbekistonning eng sharqida Tyanshan va Oloy tizimlari orasidagi Farg'ona vodiysida joylashgan. Bu okrugning atrofi tog'lar bilan o'ralgan.

Farg'ona tabiiy geografik okrugini janubdan Turkiston va Oloy, sharqdan Farg'ona va Oto'ynoq, shimoldan Chotqol, shimoli – g'arbdan esa Qurama va Qoramozor tog' tizimlari, g'arbdan Mug'ultog' o'rab turadi. Faqat g'arb tomondan okrug torgina "Farg'ona" yoki "Xo'jand" darvozasi orqali Dalvarzin va Mirzacho'l tekisliklari bilan tutashib ketadi. Farg'ona tabiiy geografik okrugining uzunligi g'arbdan sharqqa 370 km, o'rtasha kengligi 80 – 100 km, eng keng joyi esa sharqiy qismida bo'lib, 150 km ga yetadi.

Farg'ona okrugining tekislik qismi Farg'ona botig'i deyiladi, uning atrofini geologik xususiyatlari va relyefi jihatidan bir – biridan farqlanadigan adir va tog'lar o'rab turadi. Farg'ona okrugini tektonik botig'dan iborat bo'lib, asosan prolyuvial – allyuvial jinslar bilan to'lgandir.

Farg'ona okrugining iqlimi quruq, davomli, yozi issiq, qishi mo'tadil, shu kenglikda joylashgan qo'shni Toshkent – Mirzacho'l okrugidan biroz farq qiladi. Okrugning atrofini o'rab olgan tog'lardan esadigan sovuq havo qishda Farg'ona botig'ining markaziy qismida to'planib qoladi, natijada yanvarning o'rtasha harorati – 3⁰ S bo'ladi. Eng past harorat - 30 , - 31⁰ S ga tushadi. Eng issiq 40 – 42⁰ S gasha yetadi.

Okrugda kushli shamollar tez – tez takrorlanib turadi. Bu kushli shamollar tuproq qatlamining ustki qismini ushirib, shang – to'zon vujudga keltiradi. "Qo'qon" va "Bekobod" deb ataladigan shamollar xarakterlidir.

Farg'ona okrugining tabiiy geografik rayonlari

1. Markaziy farg'ona tabiiy geografik rayoni
2. Adirlar tabiiy geografik rayoni

SAVOL VA TOPSHIRIQLAR

1. Farg'ona okrugini qanday tabiiy xususiyatlari bor?
2. Okrugning iqlimi haqida nimalar deya olasiz?
3. Okrug qanday rayonlarga ajratilgan?

QASHQADARYO OKRUGI

REJA:

1. Okrugning relyefi
2. Iqlimi
3. Tabiiy geografik rayonlari

Mavzuning maqsadi: Qashqadaryo okrugini tabiiy sharoiti, relyefi, iqlimi, rayonlarini o'rganish
Okrug O'zbekistonning janubiy qismidagi Qarshi botig'ini o'z ishiga oladi. U shimolda Qoratepa, Zirabuloq, Ziyovuddin tog'lari bilan, sharqda Hisor tizmasining janubi- g'arbiy qismining quyi etaklari bilan

o'ralgan. Okrugning janubida O'zbekistonning Turkmaniston bilan bo'lgan davlat chegarasi o'tadi. G'arbda Quyi Zrafshon okrugi bilan chegaradosh. Jarqoq va Dengizko'l platolari bu ikkala okrugni bir – biridan ajratib turadi. Okrug qalin alyuvial, prolyuvial jinslardan iborat. Ular o'rta va antropogen davrga xos.

Qarshi shahrining shimolida Qung'irtog' (517 m), Koson shahrining janubida Kosontog', Maymoqtog' (500 m), Sandiqli qumligining sharqida Olovuddin tog', Okrugning g'arbida Jarqoq platosi, Qarshi, Nishon, Karnob, Malik cho'l lari va Sandiqli qumligi kabi qatog' cho'l lari mavjud.

Okrug iqlimi boshqa okruglar iqlimidan farq qiladi. Qishi iliq, o'rtasha harorat 0° , $+2^{\circ}$ S, eng past harorat -22° S, -29° S, yozda havo harorati $+28^{\circ}$ S, $+29^{\circ}$ Sni tashkil etadi. Eng yuqori harorat $+43^{\circ}$ S, $+47^{\circ}$ S dir. YOg'in miqdori 180 mm bo'lib, uning 45 – 50 %i bahorga, 37 – 40 % qishga, 10 – 15 % kuzga to'g'ri keladi.

Okrugda alyuvial – o'tloq, qisman botqoq – o'tloq, o'tloq – voha, bo'z – voha tuproqlari, sho'r yerlarda sur – qo'ng'ir, qum, qumli taqir, taqir sho'rxok tuproqlar tarqalgan.

Qashqadaryo okrugini tabiiy geografik rayonlari

1. Quyi Qashqadaryo rayoni
2. Qarshi tabiiy geografik rayoni

SAVOL VA TOPSHIRIQLAR

1. Qashqadaryo okrugiga O'zbekistonning qaysi qismi kiradi?
2. Okrug iqlimining asosiy xususiyatlarini belgilang.
3. Okrug qanday tabiiy geografik rayonlarga bo'linadi?

SURXONDARYO OKRUGI

REJA:

1. Okrugning relyefi
2. Iqlimi
3. Tabiiy geografik rayonlari

Mavzuning maqsadi: Surxondaryo okrugini tabiiy sharoiti, relyefi, iqlimi, rayonlarini o'rganish

O'zbekistonning eng janubiy qismidagi Sherobod – Surxon vodiysining tekislik qismini egallaydi. G'abrda Kelif – sherobod – Sariqamish past tog'lari va Surxon tog'lari, shimoli – sharqida Hisor tizmasining janubiy yonbag'ri, sharqda esa Bobotog'ning g'arbiy yonbag'rining quyi qismi bilan o'ralgan. Uning janubiy chegaralari esa Amudaryo orqali o'tadi.

Okrug sinklinal botiqda joylashgan. Neogen va antropogen davrning qalin alyuvial va prolyuvial yotqiziqlari bilan to'lgan. Okrugda tog'lar ko'tarilib, botiqlar sho'kib bormoqda. Surxondaryoning shimoli – sharqidan, janubi g'arbida 170 km sho'zilgan. U yerda balandligi 270 – 550 m keladigan qiya tekisliklar ko'p.

Surxondaryo okrugini g'arbdan, shimoldan va sharqdan o'rab turgan tog'lar yozda ham qishda havo massalarining okrugga o'tishiga ancha to'sqinlik qiladi. Shuning uchun okrug butun respublikamizdagi eng issiq o'lkadir. Yillik o'rtasha harorati $+17^{\circ}$ S.

Yoz quruq va jazirama issiq, qish yumshoq va iliq keladi, shuning uchun ham ham okrug subtropik o'simliklar o'sa oladi.


Okrug berk botiqda joylashganligi tufayli yog'in kam. (133 mm – 360 mm). Daryolari

Surxondaryo To'polondaryo va Qoratog'daryoning qushilishidan vujudga keladi. Amudaryogasha bo'lgan qismida 60 ga yaqin soylar kelib qo'shilishadi. Ularning eng kattalari Toshko'priksoy, Oqqopsoy, Shurshisoy, Quruqsoy, Lalmikorsoy va Lovlovsoylardir.

Sheroboddaryo Amudaryoning o'ng irmog'i, Irg'ali va Qizilsoy daryolarining qushilishidan hosil bo'ladi. Uzunligi 186 km.

Okrugda Janubiy Surxon (suv sig'imi 800 mln m^3), Ushqizil (suv sig'imi 165 mln m^3) suv ombori mavjud.

Jinnidaryo **Qashqadaryoning birinshi ancha sersuv irmog'i hisoblanib, Hisor tizmasining Oqota, Shertog' sho'qqilaridan boshlanadi. Uzunligi 57 km, suv yig'adigan havzasining maydoni 367 km^2 , qor va muz erishidan tuyinadi.**



Surxondaryo okrugining orografik chizmasi:

1. Taxtaqorashi dovoni. 2. Hazrati Sulton sho`qqisi —4648 m. 3. Shaqilqalon tog`ining Zebon sho`qqisi —2336 m. 4. Qoratepa tog`ning Kamqo`ton sho`qqisi —2595 m. 5. Ziyovuddin TOG`INING Dardko`l sho`qqisi —914 m. 6. Xuroson sho`qqisi —3744 m. 7. Chaqchar tizmasi. 8. Kushtang TOG`I. 9. Zarkosa chuvdisi 2230 m.

Oqsuv daryosining uzunligi 115 km, suv yig`adigan havzasining maydoni 1050 km², Hisor tizmasidagi Botirboy va Seversev muzliklaridan boshlanuvshi Botirboy va Xonakasuv irmoqlarining qo`shilishidan vujudga keladi.

Tanxozdaryo uzunligi 104 km, suv yig`adigan maydoni 459 km². Daryo Hisor tog`idagi G`oziko`ldan boshlanadi. Sarturg`ay irmog`igacha bo`lgan yuqori oqimi Qaranko`l nomi bilan yuritiladi.

Yakkabog`daryo uzunligi 108 km, havzasining maydoni 1060 km² Daryo Hisor tizmasining janubi – g`arbiy tarmoqlaridan boshlanib, Tanxoz daryosiga kelib quyiladi.

G`uzordaryo uzunligi 86 km, havzasining maydoni 3220 km² G`uzordaryo Chaqchar tog`idan boshlanuvshi Kattauru va Kichikuru, O`lmas tog`idan boshlanuvchi irmoqlarni qo`shilishidan vujudga keladi.

To`polondaryo Hisor tog`idagi Hazrati Sulton (4643m) cho`qqisi yaqinidan Qorasuv nomi bilan boshlanib, so`ngra Tamchuch nomini oladi va G`ova irmog`ini qo`shib olgach To`polondaryo nomini oladi.

Qoratog`daryo - Hisor tizmasining janubiy yonbag`ridan boshlanib, uzunligi 112 km, havzasining maydoni 682 km² daryo qor va muzlarning erishidan tuyinadi.

Sangardak Hisor tog`idan Tegikonor nomi bilan boshlanadi, Qizilsoy irmog`ini qo`shib olgach Qizilsuv, so`ngra Sangardak nomini oladi. Uzunligi 114 km, havzasining maydoni 948 km² bo`lib, qor va yomg`ir suvlaridan tuyinadi.

Xujaipok Xo`jabo`zborak tog`idan boshlanib, uzunligi 97 km, maydoni 765 km². **Sheroboddaryo** uzunligi 186 km, Amudaryoning o`ng irmog`i. Boysun tizmasining shimoli – g`arbidagi Belao`ta tog`idan boshlanadi.

Surxondaryo okrugi tabiiy geografik rayonlari

1. Termiz – Denov tabiiy geografik rayoni
2. Sherobod tabiiy geografik rayoni

SAVOL VA TOPSHIRIQLAR

1. Surxondaryo okrugiga O'zbekistonning qaysi qismi kiradi?
2. Okrug iqlimining asosiy xususiyatlarini belgilang.
3. Okrug qanday tabiiy geografik rayonlarga bo'linadi?

CHIRCHIQ – OHANGARON OKRUGI

REJA:

1. Okrugning relyefi
2. Iqlimi
3. Tabiiy geografik rayonlari
4. Daryolari

Mavzuning maqsadi: Chirchiq – Ohangaron okrugini tabiiy geografik o'rni, chegaralari, iqlimi, tabiiy geografik rayonlari haqida ma'lumot berish.

Chirchiq – Ohangaron okrugini G'arbiy Tyanshan tog' tizmasining O'zbekiston hududidagi qismi kiradi. Okrug mustaqil tabiiy – geografik o'lka sifatida g'arbda Mirzacho'l okrugini bilan o'ralgan, shimolda, sharqda va janubda uning chegarasi shartli ravishda O'zbekistonning Qozog'iston, Qirg'iziston hamda Tojikiston bilan bo'lgan davlat chegarasiga to'g'ri keladi. Bu chegara shimoli – g'arbda Qorjantog', shimolda Talas Olatog'i, sharqda Piskom tog'larining o'q qismlari, janubda esa Qurama, Mug'ul tog'larining suvayirg'ish qismlari orqali o'tadi.

Chirchiq – Ohangaron okrugini o'zining geologik rivojlanish tarixi, yer yuzasining tuzulishi va geografik muhitning boshqa xususiyatlari jihatidan Tyanshan tog' tizimining qolgan qismlaridan farq qiladi. Okrug hududida paleozoy ohaktoshlari, qumtoshlari va slaneslaridan iborat. Ular orasida esa granit, granidiorit va porfir kabi otqindi jinslar ham uchraydi. Tog'larning yonbag'irlarida va quyi etaklarida hamda daryo vodiylarida yosh mezo – kaynazoy yotqiziqlari, paleogen va neogen davr shag'al va gil qatlamlari ham bor.

2. Chirchiq – Ohangaron okrugining iqlim xususiyati Mirzacho'l okrugining iqlimidan keskin farq qiladi: qish sovuq, yoz esa salqin va sernam bo'ladi. Yanvarning o'rtacha harorati – 3° , - 14° S. Qish oylarida shimoliy va shimoliy – sharqiy havo massalari ta'sirida eng past harorat – 32° S dan pastga tushishi mumkin. Okrugda yoz oylarining harorati Mirzacho'l okrugiga nisbatan bir oz past – iyul oyining o'rtasha harorati $20 - 26^{\circ}$ S. eng yuqori harorati esa ayrim joylarda $30 - 40^{\circ}$ S ga yetadi. Sovuqsiz kunlarning umumiy soni bir yilda 200 ga boradi.

Yog'in miqdori tog'larning g'arbiy qismida 1000 mm ga yetadi, sharqiy yonbag'rida 200 mm, asosiy qismi qish va bahor oylariga to'g'ri keladi.

3. Chirchiq – Ohangaron okrugining tabiiy geografik rayonlari

1. Tog'li Chirchiq tabiiy geografik rayoni
2. Yuqori Ohangaron tabiiy geografik rayoni

Daryolari

Asosiy daryolari Chirchiq va Ohangaronidir. Chirchiq daryosi Chotqol, Pskom daryolarining qo'shilishidan vujudga keladi. So'ngra o'ng tomondan Ugom, Qizilsuv, Qoraqiya, Oqtosh, Sho'ralisoy, shap tomondan Quramqulsoy, G'alavasoy, Oqsoqotasoy, Parkentsoy, Boshqizilsoy kabi irmoqlarni qo'shib oladi.

Chotqol daryosi Qorag'ulja va Qoraqasmoq daryolarining qushilishidan vujudga keladi, uzunligi 223 km, suv yig'adigan havzasining maydoni 6870 km^2 .

Pskom daryosi Maydantol bilan Og'ayin daryolarining qushilishidan vujudga keladi, uzunligi 70 km, suv sarfi $82,2 \text{ m}^3$, maydoni 2840 km^2 .

Chirchiq daryosining eng yirik irmog'i Ugom daryosidir. U Talas Olatog'ining janubiy yonbag'iridan Oqburxon nomi bilan boshlanadi. Uzunligi 70 km, havzasining maydoni 889 km^2 .

Ohangaron tog'li qismida tog' vodiya oqadi. Angren shahridan o'tkash, uning vodiysi kengayadi, keng qayirlar vujudga keladi. Ohangaron daryosining Yakkaarshasoy, yertoshsoy, Serkaqirildisoy, Dukent, Qarabov, Niyozbosh kabi irmoqlari bor.

SAVOL VA TOPSHIRIQLAR

1. G'arbiy Tyanshan okrugiga O'zbekistonning qaysi qismi kiradi?
2. Okrug iqlimining asosiy xususiyatlarini belgilang.
3. Okrug qanday tabiiy geografik rayonlarga bo'linadi?

ADABIYOTLAR

1. I. A. Karimov O'zbekistonda milliy istiqloq, iqtisod, siyosat, mafkura. 1 tom. T., 1996.
2. I. A. Karimov O'zbekiston buyuk kelajak sari. T., 1998.
3. I. A. Karimov O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. T., 1997.
4. Qurboniyozov G. O'zbekiston geografiyasi. T., 1997.
5. O'zbekiston Qizil kitobi 1996 yil
6. O'zbekiston Respublikasi «Yer kodeksi», «Davlat yer kadastri» to'g'risida qonun. T.: «Adolat», 1998.
7. Baratov P. O'zbekiston tabiiy geografiyasi
8. Abdullayev X. A. O'zbekiston tuproqlari. T., 1973.
9. Babushkin A. N., Kogay N. A. Fiziko-geografisheskie rayonirovanie Sredney Azii. Tr. TashGU, - vip.307. T. 1967.
10. Shetirkin V. M. Srednyaya Aziya. Opit kompleksnoy geografisheskoy xarakteristiki i rayonirovaniya. Tashkent, 1960.
11. Babayev A. G. Istoriko-geografisheskiy analiz dinamiki geosistem pustin. Problemi osvoyeniya pustin, 1986, №5.
12. Babushkin L. N., Kogay N. A. Fiziko-geografisheskoy rayonirovanie Uzbekskoy SSR. Trudi TashGU, vip.231. – Tashkent, 1964.

O'ZBEKISTONNING TUPROQLARI

REJA:

1. Tuproqning turlari
2. Tuproqlarnig joylashishi va xususiyatlari
3. Tuproq eroziyasi

Mavzuning maqsadi: O'zbekiston tuproqlari, ularning tarqalishi, xususiyatlari, tuproq eroziyasi haqida ma'lumot berish.

O'zbekistonning tekisligida tuproqning zonallik xususiyati bo'lganligi uchun cho'l ga xos tuproq turlari shakllansa, tog'li qismida balandlik mintaqalanish vujudga kelgan. Tekislikda tuproq xosil bo'lishi sust bo'ladi.

Respublikamiz tekislik qismida ham qoldiq tog'lar, balandliklar, vodiylar, botiqlar mavjud bo'lib, ularda tuproq hosil bo'lish jarayoni bir-biridan farq qiladi. Buning ustiga yilning ko'p qismi issiq, quruk. va seroftob bo'lganligidan tuproq hosil bo'lish jarayoni sust bo'ladi. Yoz qurg'oqshil, harorat yuqori bo'lganligidan mumkin bo'lgan bug'lanish yog'inga nisbatan 15—20 martagasha ortiq bo'lib, tuproq tarkibida har xil tuzlar to'planib, tuproq ko'p joyda sho'rlashgan.

O'zbekiston hududining yer osti suvlari nisbatan chuqur joylashgan tekisliklarida sur-qo'ng'ir, tog' oldi tekisliklari va adirlarda bo'z, tog'larida jigar rang, qung'ir tog'-o'rmon kabi avtomorf tuproq turlari joylashgan. Aksinsha, yer osti suvlari yuza bo'lgan joylarda gidromorfli tuproqlar —o'tloq, botqoq, botqoq-o'tloq kabi tuproq turlari mavjud. Gidromorfli tuproq turlari yana joyning geomorfologik sharoitiga (daryoning quyi qayirlarida) bog'liq holda tog' oldi tekisliklarida ham uchraydi.

O'zbekistonda arid iqlim sharoitida vujudga kelgan sur-qo'ng'ir tusli, taqir, qumli kabi tuproqlarida shirindi miqdori nixoyatda kam bo'lib, tuproqning usti qatlamida 1,0% atrofida mavjud. Bunga asosiy sabab iqlimiy sharoitlarni (yoz issiq, qurg'oqshil bo'lib, uzoq, davom etishligi) noqulayligi tufayli o'simliklarning nixoyatda siyrak o'sishidir.

O'zbekiston hududida yana sug'oriladigan joylarda madaniy sug'oriladigan tuproqlari turi vujudga kelgan. Chunki kishilar ming yillab tuproqni sug'orib, har xil o'g'itlar solib, ishlov berib tabiiy

xususiyatlarini o'zgartirib yuborgan. Bunday tuproq turlariga vo-ha-o'tloq, vo-ha-o'tloq, vo-ha-buz kabi tuproqlar kiradi.

O'zbekistonning tekislik-cho'l qismidagi tuproqlarning o'ziga xos tomonlari shundaki, shirindi miqdori kam bo'lishidan tashqari yuqori karbonatli, sho'rlashgan va ba'zi yerlarida shurhoklar; mavjud. Respublika cho'l qismi tuprog'ining 40% sur-qung'ir tusli tuproqda, 36% qumlarga, 5,4% taqirli tuproqqa, 3,18% :Qumli cho'l tuproqda, 3,8% shurxokka, 0,5% taqirlarga to'g'ri keladi.

Demak, O'zbekistonning cho'l, qismida eng ko'p tarqalgan tuproq bu sur-qung'ir tuproq turidir. Bu tuproq turi respublika yer fondining 25—30% ni ishg'ol qilib, asosan bur, paleogen, neogen davrlarining qumtosh, gil, mergel, oxaktosh va qadimiy prolyuvial, ellyuvial yotqiziklarda tashkil topgan. Sur-qungir tuproqlar Ustyurt platosi, Qizilqumdagi qoldiq tog' etaklari va balandliklari, Qarshi, Malik cho'l laridagi qoldiq tog' etaklarida joylashgan.

Sur-qunrir tuproq; tarkibida shirindi miqdori kam bo'lib, ustki qatlamida gumusning miqdori 0,3—0,77% gasha boradi. Sur - tuproq shurtang bo'lib, uning tarkibida kalsiy karbonat ko'p.

Respublika yer maydonini 75 %ni tekisliklar tashkil etadi. Ular Respublikaning markazi, shimoliy g'arbi bo'yi, vohalar va vodiy yerlaridir. Respublika hududida tekislikning katta maydonini egallashi O'zbekiston dehqonshiligiga keng miqyosida foydalanishga va tekisliklarda tog'li yerlarga qaraganda transport va boshqa texnika vositalaridan foydalanish ancha qulay.

O'zbekiston yer resurslari bu muhim ishlab chiqarish vositasi hisoblanadi. O'zbekiston yer fondida 40 mln gektardan ortiq maydonni eallaydi. Undan 8-9 % maydoni yoki 4 mln dan ortiq yer dehqonshilikda foydalaniladi, yer maydoni 48-52 % yaylov sifatida foydalaniladi.

Sug'oriladigan yerlarni asosiy qismi cho'l mintaqasiga to'g'ri keladi. O'zbekistonning och tipik bo'z tuproqlari dengiz yuzidan 500 m balandlikda uchraydi, ular ko'proq sho'rlaydi, yilda sho'rini yuvish talab etiladi. Bu joylar asosan Mirzacho'l, Qarshi, Jizzax, Sherobod, G'arbiy Farg'ona va boshqa yerlardir. Tekisliklarda nam yaqin yerlarda o'tloq botqoq tuproqlar uchraydi. Adirlarda bo'z tuproq, cho'l, qumoq qo'ng'ir tuproqlar tarqalgan. Qizilqum va boshqa cho'llarda qum va qumoq tuproqlar ko'pdir. Tog'larda jigarrang, qo'ng'ir, o'tloqi dasht tuproqlardir. Har bir yerning xususiyatiga qarab tuproq meliorativ holatini yaxshilab borish va tuproqni baholash - yer kadastr ishlarini tezlashtirishni taqozo etadi.

Respublikamizdagi lalmi yerning 20 foizi xavfli darajada eroziyaga, xususan suv eroziyasiga dushor bo'lgan (17-rasm). Bunga asosiy sabab o'tloq va yaylovlardan shorvashilikda noto'g'ri foydalanish, yerlarni to'g'ri haydash, yonbagirlari qiya bo'lgan joylarga bir yillik ekinlar ekish, o'rmonlarga nisbatan noto'g'ri munosabatda bo'lish kabilar sababshidir.

O'zbekiston yer fondining eng ko'p qismi (26,5—27,0 mln. gektari) yaylovlarga to'g'ri keladi. Yaylovlarning 42,0% sur-qung'ir tuproqlar joylashgan yerlarga, 50% qumli, qumoq, o'tloq va bo'z tuproqlarga, 8% esa boshqa tuproqlarga to'g'ri keladi. Lekin so'nggi yillarda yaylovlardan noto'g'ri foydalanish (surunkasiga bir joyda mol boqish, tik yonbag'irlarni noto'g'ri haydash, daraxtlarni betartib kesish, geologik - qidiruv ishlari, yul qurish, gaz va boshqa quvurlar yotqizish va boshq.) tufayli yaylovlar sifati yomonlashib, qumlar ko'shib, qayta cho'l lashmoqda, tuppoq eroziyaga ushramoqda. Ma'lumotlarga kura respublika yaylovlarining 27 foizining sifati o'zgarib ketgan.

O'zbekistonda sug'oriladigan yerlarining 722 ming gektari irrigasion (sug'orilma) eroziyaga uchragan. Bundan tashqari 700 ming ga lalmikor yerlar ham suv eroziyasiga duchor bo'lgan.

Sug'orish eroziyasi asosan nishab yerlarni ko'p suv oqizib, qarovsiz qoldirish oqibatida vujudga kelsa, lalmi yerlardagi eroziya tik yonbag'irlarni noto'g'ri haydash, bir yillik ekin ekish tufayli vujudga keladi.

Respublikamizda 0,6 mln. gektar maydon shamol, eroziyasidan zarar ko'rmoqda. Shamol eroziyasi ayniqsa Farg'ona, Zarafshon vodiysida, Mirzacho'l da, Qashqadaryo va Surxondaryo viloyatlarida kushli. Shamol eroziyasi tufayli tuproqning eng ustki hosildor qatlami zarar ko'radi, ya'ni ushirib ketadi, oqibatda tuproq hosildorligi keskin kamayadi.

SAVOL VA TOPSHIRIQLAR

1. O'zbekiston tuproqlari, ularning tarqalishi va shirindi miqdori qancha?
3. O'zbekiston tuproqlarining xususiyatlarini aniqlang.

4. Tuproq eroziyasini oldini olish uchun qanday ishlar amalga oshiriladi?
5. O'zbekiston yer resurslaridan qishloq xo'jaligida foydalanishda qaysi tuproq turi ko'p maydonni egallaydi?
6. O'zbekistonda tuproq eroziyasini qaysi turi ustunlik qiladi? Sababini tushuntirib bering.
7. Qanday joylarda tuproq shurlashadi va unga qarshi qanday shoralar ko'riladi?
8. Nima uchun va qanday omillar ta'sirida tuproq ifloslanadi?

Quyidagi topshiriqlarni bajaring:

Daftaringizga O'zbekiston tuproq xaritasidan foydalanib tuproq turlarini va tarqalishini yozing.

O'ZBEKISTONNING O'SIMLIKLARI

REJA:

Kirish

1. O'zbekistonda o'sadigan o'simliklar.

2. Noyob va darivor o'simliklar

3. "O'zbekiston Qizil kitobi" ga kiritilgan o'simliklar

Mavzuning maqsadi: O'zbekistonda o'sadigan o'simliklar qoplami, noyob va darivor o'simliklari, "O'zbekiston Qizil kitobi" haqida ma'lumot berish.

O'simliklari O'zbekiston hududining kattaligi, tabiiy sharoitining hamma qismida bir xil emasligi, uning o'simlik qoplamiga ham ta'sir etgan. Tabiiy-geografik sharoitga bog'liq holda o'simlik turlari respublika tekislik-cho'l qismidan uning tog'li qismi tomon o'zgarib boradi.

O'zbekiston hududining ko'pchilik qismidagi tabiiy sharoitning o'simliklar o'sishi uchun noqulay bo'lishiga qaramay (yozi issiq, quruq, seroftob, qishi nisbatan sovuq) o'simliklarning 120 oilaga mansub bo'lgan 3700 turi mavjud. Vaxolanki, Qrim yarim orolida 2000, Uzoq Sharqda 1966, Oltoyda esa 1787 o'simlik turi bor.

O'zbekiston hududida o'simliklar uning geomorfologik tuzilishiga bog'liq holda quyidan yuqoriga ko'tarilgan sari o'zgarib boradi.

Biz respublika o'simliklarning balandlik mintaqasi buyisha o'zgarishini K. 3. Zokirov taqdim etgan quyidagi mintaqalanish buyisha beramiz: cho'l, adir, tog' va yaylov.

Har bir balandlik mintaqasi o'simligi o'sha hudud geomorfologik tuzilishiga, iqlimiy xususiyatlariga, tuproq qoplamiga bog'liq holda sharoitga moslashgandir. Agar respublika tog'li qismida o'simlik qoplami relyefga (tog' yonbag'ining qiyaligiga, quyoshga nisbatan holatiga, tog' jinsiga va boshqalar) bog'liq holda joylashsa, tekislik qismida eng avvalo tuproqning mexanik tarkibiga, qay darajada shurlashganligiga, yer osti suviga, iqlimiga bog'liq holda joylashadi.

Cho'l mintaqasi. Bu mintaqasi O'zbekistonning tekisligining 400—500 m. balandlikdagi bo'lgan qismini o'z ishiga oladi va respublika yer maydonining 70% ni ishga oladi. Cho'l mintaqasiga O'zbekistonning Qizilqum, Qarshi, Mirzacho'l kabi cho'l lari, Markaziy Farg'ona, Ustyurt, Quyi Amudaryo, Quyi Zarafshon va Quyi Surxondaryo kabi regionlari kiradi.

Cho'l mintaqasining yozi quruq, jazirama, seroftob, yog'inga nisbatan mumkin bo'lgan bug'lanish ko'p, qishi esa shu geografik kenglikda joylashgan O'rta dengiz atrofidagi mamlakatlarga nisbatan sovuq. Bu mintaqada yog'in miqdori kam bo'lib, uning g'arbiy qismida 80—100 mm, sharqida 250—300 mm, tog' oldi qismlarida esa 300—350 mm. ga yetadi. Aksinsha, mumkin bo'lgan bug'lanish g'arbida 1000—2000 mm, qolgan qismlarida 1000 mm atrofida: O'simlik resurslari har bir o'simlik mintaqasida har xil tarqalgandir. Qumloq yerlardan yaylov sifatida foydalaniladi. Ulardan 3-5 s dan ko'k massa olish mumkin. Adir yaylovlarida esa ko'proq 8-10 s ko'k olish mumkin. Tog'larda xashak zaxirasi ortiqdir, gektaridan 15-19 s olish mumkin. Bu yerda yozda eshki, yirik shoxli mollar boqiladi. O'simlik turlari 90 % shorva mollar uchun oziqadir. O'simlik resurslari yaylovdan tashqari yovvoyi mevalardan tog' olshasi, bodom, pista, olma va boshqalar tog'li va tog' oldi yerlarida ko'p tarqalgan. Tog'larda shifobaxsh o'simliklar ham ko'p.

sassiqquvray, pushti, qung'irgul, bir oz qurg'oqshil joylarda shayir, shuvoq, betaga, tikonli astragal butasi o'sadi.

Yaylov balandlik mintaqasining yuqori qismida (3500 m. dan yuqorida) al'p o'tloqlari uchraydi. Al'p o'tloqlari subal'p o'tloqlaridan past bo'lib, yer bag'irlab o'sishi bilan farqlanadi. Namgarshilik bo'lgan yerlarda tung'izsirt (kobrezia) o'tining bir nasha turlari, gunafsha, qoqio't, yulduzut, sariq, ayiqtovon, yovvoyi kuknori kabilar usadi. Qurg'oqshil, toshloq, yerlarda qiziltikon, toshyog'ar, astragal kabi o'simliklar uchraydi.

Yaylov balandlik mintaqasining eng baland qismida doimiy qor va muzliklar; hamda qoyalar mavjud bo'lgan qismini esa nival mintaqasha ishga olilib, o'simlik deyarli ushramaydi. Faqat qoyalar orasidagi pastqam joylarda astragal, toshyog'ar kabi o'simliklar o'sadi, xolos.

O'SIMLIK RESURSLARI VA ULARNI MUHOFAZA QILISH

O'zbekiston o'simlik resurslarining ahamiyati juda kattadir. Eng avvalo o'simliklar ham saqlovshi, daryo suvini bir me'yorda saqlab turuvshi, tuproq eroziyasi oldini oluvshi, qumlarni mustahkamlovshi hamda havoni toza saqlab turuvshi muhim omil bo'lish bilan birga kishilarga dam olib, hordiq shiqarib, estetik zavq ham beradi.

O'zbekiston o'simliklari shorvashilikni rivojlantiruvshi yaylov va yem-xashak manbai. Respublika o'simliklarining 90% ga yaqini yem-xashak uchun yaroqli. Hatto cho'l mintaqasidagi yaylovlarning hosildorligi gektariga 3—5 sentnerni (xashak hisobida) tashkil etadi. Toshloqli cho'l larda va Ustyurtdagi yaylovlarning hosildorligi gektariga 2—4 s. bo'lsa, shurxokli cho'l larda esa 2—3! sentnerni tashkil etadi.

O'zbekistonning adir balandlik mintaqasida o'usimliklar qalin o'sib, hosildorligi gektariga 8—10 s. gasha boradi. Bu mintaqa shorvashilik uchun yil buyi yaylov hisoblanadi. Ayniqsa efemer, efemeroid, efemeroid-shuvoq, bug'doyiq, taktak (yovvoyi arpa), shalov kabi baland buyli o'tlardan yil buyi shorva mol-lari uchun yaylov sifatida foydalanishdan tashqari pishan xam (gektaridan 4—6 sentnergasha) tayyorlash mumkin.

Tog' balandlik mintaqasidan yozgi va kuzgi yaylov sifatida hamda pishan tayorlashda foydalaniladi. Chunki bu mintaqada buyi 90—100 sm gasha bo'lgan xar xil utlar qalin o'sib, hosildorligi gektaridan 15—20 s. gasha borishi mumkin. Ayniqsa bug'doyiq, javdar, taktak (yovvoyi arpa), tariqbosh, shalov kabi o'simliklar eng muhim yaylov va yem-xashak manbaidir. Lekin tog' mintaqasida relyefining noqulayligi tufayli o'sha pishanzorlarni mexanizm yordamida o'rib olishni ancha qiyinlashadi.

SAVOL VA TOPSHIRIQLAR

1. O'zbekistonda qanday o'simliklar o'sadi
2. Noyob va dorivor o'simliklar qaysilar
3. "O'zbekiston Qizil kitobi"ga kiritilgan o'simliklar nomini ayting

Quyidagi topshiriqlarni bajaring:

Daftaringizga "O'zbekiston Qizil kitobi"ga kiritilgan o'simliklarni yozing.

O'ZBEKISTONNING HAYVONLARI

REJA:

Kirish

1. O'zbekistonning hayvonot olami
2. Kamayib ketayotgan hayvonlar
3. "O'zbekiston Qizil kitobi" ga kiritilgan hayvonlar

Mavzuning maqsadi: O'zbekistonning hayvonot olami, kamayib ketayotgan hayvonlar, "O'zbekiston Qizil kitobi" ga kiritilgan hayvonlar haqida ma'lumot berish.

Hayvonot dunyosi. O'zbekistonda hayvonlardan sut emizuvshilarni 97 turi uchraydi. Ulardan jayron, sayg'oq, burama shoxli tog' echkisi, Buxoro bug'usi va boshqalar "Qizil kitob"ga kiritilgan. Hayvonlarning ba'zilari ovlanadi, shulardan terisi uchun tulki, shiyabo'ri, bo'rsiq va boshqalar ovlanadi. 1950 yildan boshlab ondatralar tayyorlanmoqda. Ularni daryo bo'ylarida suvli joylarda ko'paytirilmoqda. O'zbekistonda 60 xilga yaqin qush ovlanadi.

O'zbekistan hayvonlari tabiatning harakatchan unsuri hisoblanib, geografik muxitning ajralmas bir qismi sifatida respublikamiz landshafti tarkibiga kiradi.

O'zbekiston hududining kattaligi, tabiati hamda rivojlanish tarixi uning hamma qismida bir xil emasligi, shuningdek, kishilarning xujalik faoliyati hayvonlarning tarkibi va geografik tarqalishiga ta'sir etgan. Buning ustiga O'zbekiston hududiniig 71% ni tashkil etgan shulli qismida hayvonlar yozning jazirama, davomli quruq kunlariga, suvsizlikka, ko'chib-yuruvchi qumlarga moslashgan.

O'zbekiston faunasining o'ziga xos tomoni shundayki, uning turlari ko'p bo'lib, sutemizuvchilarning 97 turi, sudralib yuruvshilarning 57 turi, qushlarning 410 turi mavjud.

O'zbekiston hayvonlari paleoarktika zoogeografi oblastning Markaziy Osiyo kichik oblastiga kiradi. Respublika hayvonot dunyosi juda qadimiyligi bilan ajralib turadi. Ba'zi hayvon turlari respublika

hududining o'zida paydo bo'lsa, ba'zi turlari Turkistonning boshqa joylaridan o'tgan. O'zbekiston hududida paydo bo'lgan hayvon turlariga ingishka barmoqli yumronqoziq, ko'k sug'ur, Bobrinskiy qushoyog'i, xujasavdogar, qum bug'ma iloni, Turkiston gekkoni, Turkiston agamasi, katta kurakburun baliqlar, Orol chipi va boshqalar kirib, ular boshqa joylarda deyarli ushraymaydi.

O'zbekistondagi ba'zi hayvon turlari, chunonchi katta qumsichqon, tamaris qumsichqoni, kichik qushyooq, qung'ir yumronqoziq, antilopa, sayg'oq, ko'rsak, qora sassiqquzan, olakuzan, yovvoyi mushuk manul (dala mushugi) kabi hayvonlar Qozog'iston tekisliklaridan kirib kelgan. Jayron, barxon mushugi, qorakol Old Osiyo va Shimoliy Afrika cho'llaridagi xayvonlarga aloqasi bor. Burama shoxli echki, qunduz, afg'on dala sichqoni, mayna kabi hayvonlar esa Afg'oniston faunasiga xosdir. O'zbekiston tog'larida yashovchi Himolay ulari, Tibet Quzg'uni, Sibir echkisi, ilvirs Markaziy Osiyodan kirib kelgan.

O'zbekiston hududida yashovchi sirtlon, chyabo'ri, kobra (ko'z-oynakli ilon) kabi hayvon turlari Hindistondan kirib kelsa, oq sichqon va qo'ng'ir ayiq yevropaning shimoli uchun xosdir.

O'zbekiston tabiati xilma-xil bo'lib, uning cho'l qismida bir xil tabiiy muhit mavjud bo'lsa, tuqaylarda ikkinshi xil, adir va tog'larda yana boshqasha muhit vujudga kelgan. Binobarin, o'sha tabiiy sharoitga bog'liq holda cho'lga, tuqayga, voxaga, adirga, tog'da, yaylovga moslashgan hayvonlar yashaydi.

Cho'l hayvonlari. Cho'l hayvonlari uzoq davom etgan quruq, jazirama yozga, qumli, shurxok, gilli, toshloq sharoitga moslashgan. Shu sababli ba'zi xayvonlar uzok, davom etgan qurg'oqshil, nihoyatda issiqda, yozga chidamli bo'lib, umrida suv iste'mol qilmay o'simliklar tarkibidagi namlik bilan sheklansa, (yumronqoziqlar, qushoyoqlar, kursishqon) ba'zilar, chunonchi oqquyruq, jayron chopqir bo'lib, uzoqdagi suvloqlardan foydalanadi.

O'zbekistonda 3000 dan ortiq zaxarli ilonlar farmasevtika maqsadlarida ishlatiladi. Shulardan qulvor ilon, ko'k ilon, sharxilon, qorailon, va ko'zoynakli ilonlarni cho'l va tog' etaklaridan ovlanadi, hattoki, Toshkent va Jizzaxdagi maxsus ilon xonalarda zaxarli ilonlarni ko'paytiriladi. Ularni zaxarlari juda qimmat turadi.

SAVOL VA TOPSHIRIQLAR

1. O'zbekistonning hayvonot olamini o'rganish.
2. Kamayib ketayotgan hayvonlar ruyxatini tuzing
3. "O'zbekiston qizil kitobi" ga kiritilgan hayvonlarni aniqlang.
4. O'zbekiston hayvonlarining xalq xujaligidagi ahamiyati nimalardan iborat?
5. Nima uchun va qanday sabablarga ko'ra O'zbekistonda yashovshi ba'zi hayvon turlari kamayib, noyob turga, ba'zilar esa butunlay yo'q qilingan?
6. Nima uchun O'zbekiston «Qizil kitobi» tashkil etildi? «Qizil kitob»ga kirgan eng muhim hayvon turlarini ruyxatini tuzib chiqing.

Quyidagi topshiriqlarni bajaring:

Daftaringizga O'zbekiston tabiatini muxofaza qilish organlari tomonidan qo'riqlanadigan hayvonlarni xaritaga tushirish.

O'ZBEKISTON TABIIY BOYLIKLARI

REJA:

Kirish

1. Tabiiy boyliklari va ulardan oqilona foydalanish

2. Tabiiy boyliklarni muhofaza qilish

3. Qo'riqxonalari, milliy bog' va buyurtmalar

Mavzuning maqsadi: O'zbekistonni tabiiy boyliklari va ulardan oqilona foydalanish, tabiiy boyliklarni muhofaza qilish, qo'riqxonalari, milliy bog' va buyurtmalar haqida ma'lumot berish.

O'ZBEKISTON TABIIY BOYLIKLARINI MUXOFAZA QILISH

Tabiat va inson orasidagi munosabatlar azaldan xammani qiziqtirib kelayotgan eng muhim muammolardan biri xisoblanadi. Ayniqsa, sanoat va transportning tez usishi, aholining kupayishi va

urbanizatsiyasi, qishlok, xujalik ishlab chiqarishini kimyolashtirish, yerlarni betartib, rejasiz o'zlashtirish, suv boyliklaridan xujasizlarsha foydalanish bir tomondan respublika boyliklaridan kuproq foydalanishga imkoniyat bersa, ikkinshi tomondan atrof-muhitga salbiy ta'sir etib, uning dastlabki tabiiy muvozanatini buzilishiga olib kelmoqda. Natijada respublika havo va suvi ifloslanmoqda, tuproq zroziyasi tezlashmoqda, usimlik va hayvonlarning ba'zi turlari kamayib yoki yuqolib ketmoqda, tabiiy yodgorliklar shikastlanmoqda. Binobarin, O'zbekiston tabiatini qo'riqlash masalasi respublika uchun zarur bulgan tabiiy boyliklarni — tuproqni eroziyadan saqlash, usimlik va hayvonot dunyosini muhofaza qilish, suv va havoni toza saqlash, xushmanzara joylarni va tabiatning ajoyib yodgorliklarini uz holisha saqlash kabilarni o'z ishiga oladi.

Agar atmosfera va suv boyliklari pokiza saqlanmasa, tuproqning eroziyaga ushrashi va ifloslanishiga shek quyilmasa, usimlik va hayvon turlarini kamayib ketishining oldi olinmasa xalq xujaligi juda katta zarar kuradi, aholi salomatligiga salbiy ta'sir etib, naslimiz buziladi, oqibat natijada ulkamizni kelajak avlodga «qashshoqlashgan»holda meros kilib qoldiramiz.

O'zbekistonda tabiiy boyliklardan foydalanish uziga xos xususiyatga ega. Chunki respublika axrlisining 90% atrofida gisi voxalarda joylashgan. Buning ustiga O'zbekistonning asosiy shaharlari, qishloqlari, zavod-fabrikalari, suroriladigan yerlari, paxta dalalari xam vohalarda joylashgan. Natijada vohalar (Toshkent-Mirzashul, Farg'ona, Zarafshon, Surxondaryo, Qashqadaryo, Quyi Amudaryo vohalari) sanoat, maishiy-kommunal sho'kindilari va qishloq, xujalikda ishlatilgan kimyoviy moddalar bilan ifloslangan.

O'zbekiston xududining katta qismini ishg'ol qilgan cho'l va tog'lari hozir tezkorlik bilan o'zlashtirilmogda. SHu tufayli o'sha joylarda tabiatni muxofazasiga alohida e'tibor bermasak tabiat muvozanati buzilib, tabiiy boyliklarning holati yomonlashib, ba'zi tabiat unsurlari kamyob bo'lib o'sadi. Bunga ilgari O'zbekiston cho'l larida kun yashaydigan xongul, tog'larida gala-gala yashaydigan kakliklar, qir va tog'larda o'suvshi lolalarni noyob turga aylanib ketganligi yaqqol, misoldir.

O'zbekiston tabiatini muhofaza qilishning shora - tadbirlari va asosiy yunalishlari. O'zbekiston tabiatini muxofaza qilish va tabiiy resurslardan oqilona foydalanish uchun:

- O'zbekiston hududida atrof - muxit ifloslanishining oldini olish, ekologik vaziyat eng yomon mintaq va shaharlarda muhit holatini tubdan yaxshilashga erishish, aholi salomatligi uchun o'ta xavfli moddalar miqdorini yul quyiladigan darajaga tushirishni ta'minlash;
- tabiiy resurslarning iste'molini barsha bug'inlarida, extiyot qilib, tejab, sanoatning kam shiqindili texnologiyasini joriy etib, shiqindisiz kompleks ishlab chiqarishga o'tish;
- korxonalarda xom ashyoni tejab, ulardan kompleks foydalanish, ishlab chiqarish va iste'mol shiqindilarini qayta ishlash maqsadida eski dastgohlarni yangiz amonaviy dastgoxlar bilan almashtirishga erishish;
- ishlab chiqarish kushlarining tabiatni muhofaza qilish qoidalariga asoslanib joylashtirish;
- tabiiy muhitning xolati va ifloslanishini ekologik nazorat ostiga olib, kuzatishning yagona avtomatlashgan tartibini yaratish;
- tabiat unsurlari barsha turlarining tabiiy xususiyatlari va rang-barangligini uz xolisha saklashga erishish;
- tabiiy yodgorliklarni hisobga olish va ularning, o'z holisha saqlashga erishish;
- aholi orasida, ayniqsa, bog'shalarda, o'rta va oliy o'quv yurtlarida tabiatni muhofaza qilishga qaratilgan ta'lim va tarbiyani kushaytirish;
- tabiatni ifloslanishidan kelib shik.ayotgan salbiy oqibatlarini, ayniqsa, kishilarning salomatligiga ta'sirini chuqur o'rganib, uning oldini olish shoralarini zudlik bilan ishlab shiqish;
- xalq xujaligi rahbarlari va mutaxassislariga tabiatni muhofaza qilish ta'limini berishga aloxida e'tiborni kushaytirish maqsadida soha malakasini oshirish institutlarida «tabiatdan oqilona foydalanish va muxofaza qilish» mavzusi buyisha kurslar tashkil qilish;
- ifloslantiruvshi moddalarni tabiatga chiqarishga yul qo'yilgan darajadan oshirilganligi xamda tabiiy boyliklardan samarasiz foydalanganligi uchun korxonalar, tashkilotlar, birlashmalar,

xo'jaliklar va boshqa tashkilotlardan jarima olish. Aksinsha, tabiatni muxofaza qilish qonunlariga rioya qilgan

korxonalar va tashkilotlarni rag'batlantirish tartibini amalga oshirish.

- keng xalq ommasini tabiatni muhofaza qilish ishidan xabardor etish va unga jalb etish maqsadida radio, oynajahon, ro'znoma va oynomalarda muntazam targ'ibot ishlarini kushaytirish.

O'zbekiston atmosferasini toza saqlash uchun quyidagi shora-tadbirlarni ko'rish va amalga oshirish kerak:

Yaqin yillarda Toshkent, Chirchiq, Navoiy, Farg'ona, Angren, Olmaliq, Andijon, Quqon, Namangan, Bekobod kabi shaharlarda va boshqa hududlarda noqulay vaziyatlarni yuzaga keltirayotgankorxonalarini shiqindilarini tartibga solish.

O'zbekiston juda katta mineral boyliklarga ega oltin, mis, molibden, volfram, qo'roshin va rux, tabiiy gaz qimmatbaho toshlar jihatidan jahonda birinchi o'rinlarda turadi. Bundan tashqari fosforit, tuz, oltingugurt, alyuminiy xom ashyosi pardozlash va qurilish materiallarining katta zaxirasi mavjud.

O'zbekiston yoqilg'i balansida aktiv regionlardan hisoblanadi. Gaz va neft boyliklari ko'p yerda uchraydi. Shimoliy So'x, Janubiy Olamushuk, Polvontosh, Shimyon, Sho'rsuv, Mingbuloq konlari bor. Ularda neft va gaz qazib olinadi. Bu konlar ko'pchiligi antiklinal tuzilishga ega bo'lib, yura-neogen va paleogen yotqiziqlarda joylashgandir. Neft yana Surxon vodiysida Amudaryo, Xovdog', Kashtog' va boshqa yerlardan olinadi. Bu konlarning nefti og'ir, tarkibida oltingurur ko'pdir.

Buxoro va Qashqadaryo regionlarida gaz konlari ko'p. Sho'rtan, Zevarda, Muborak, Ushqir, Jarqoq gaz konlari keyingi vaqtda katta istiqbolga ega bo'lgan Ko'kdumaloq gazi ishga tushirildi. Qidirib topilgan tabiiy gaz Respublikaning 35 yil, neft esa 30 yil ehtiyojini qoplaydi. Chunki u 2 trln metr kub gaz zaxirasiga egadir. O'zbekiston tabiiy gaz bo'yicha MDH va Rossiya va Turkmanistondan keyin 3-o'ringa turadi.

O'zbekiston katta ko'mir zahiralari ega bo'lib, Markaziy Osiyoda 2-o'ringa turadi. Bu konlar Toshkent viloyatida Angren, Surxondaryoda, Sharg'un va Boysun konlaridir. Shular ishida Angren koni ahamiyati katta bo'lib, uni oshiq usulda qazish imkoniyatiga ega hamda bu kon Toshkent industrial regioniga yaqin bo'lishi va nihoyat ko'mir qatlamlar orasida xo'jalik ahamiyatiga ega bo'lgan gil, kaolin, qum, bentanit, slanes va boshqa turli jinslar uchraydi. Shuning uchun Angren ko'mir konining ahamiyati katta.

Rudali resurslar. O'zbekiston xilma xil rudali boyliklarga ega temir koni Sulton Uvays tog'larida uchraydi, temir tarkibida nikel, kobalt, brom, platina va boshqa ma'danlar uchraydi. Temir yana Nurota, Chotqol tog'larida ham uchraydi. Ulardan hozir qazib olinmayapti.

O'zbekistonda marganesning bir neshta konlari bor. Ular Zarafshon, Korjontov va Morguzar tog'larida topilgan.

O'zbekiston rangdor metallarga boy. Mis zaxirasi bo'yicha Qozog'iston va Rossiyadan keyin ushinshi o'ringa turadi. Mis konlari Olmaliqda qazib olinadi. Polimetall konlari Surxondaryo viloyatida, Nurota, Qurama tizmalarida uchraydi. O'zbekistonda qiyin eriydigan metallardan mobilden rudasi ko'plar Nurota, Zirabuloq, Qoratepa tolarida joylashgan. Yana volfram konlari G'arbiy Tyanshanda, Sargardon va boshqa joylarda uchraydi. Hozir asosan ingishka va Qo'ytosh konlaridan molibden olinmoqda.

SAVOL VA TOPSHIRIQLAR

1. O'zbekistonda qanday tabiiy boyliklar mavjud?
2. Tabiiy boyliklarni muhofaza qilish uchun qanday ishlar amalga oshirilmoqda?
3. O'zbekistonda qanday qo'riqxonalar, milliy bog' va buyurtmalar tashkil etilgan? sardobalar, Oqshoq soyligidagi Abdullabandim (suv ombori) krl-diqlari yaqqol misoldir.

Lekin Uzbekiston tabiiyot yodgorliklarini x.isobga olish bo-rasidagi ishlar-endi boshlandi, binabarin, bundan buen jamoatshilik kushi bilan tabiat yodgorliklarini x.isobga olib, uni tark.alish xaritasini tuzib, x.imoya ostiga olish kerak. Shuning-dek, ajoyib tabiat yodgorliklarini xisobga oluvshi O'zbekiston «Ko'k kitob»ini tuzish vaqti keldi.

Savol va topshiriqlar

Nima sababdan O'zbekiston tabiatini muhofaza qilish muammosi yuzaga keldi?

O'zbekiston tabiiy resurslariga nimalar kiradi va ular qanday guruxlarga bo'linadi?

O'zbekiston tabiatini ifloslovshi asosiy manbalarni gapirib bering.

Respublika tabiatini muhofaza qilishning asosiy yo'nalishi va ko'riladigan shora-tadbirlar haqida nimalarni bilasiz?

Havo va suvni toza saqlab muhofaza qilish uchun qanday shora-tadbirlarni amalga oshirish kerak?

Nima uchun va qanday sabablarga ko'ra tuproq eroziyaga ushrgan hamda ifloslangan, uni oldini olish uchun qanday vazifalarni amalga oshirish kerak?

Biologik resurslardan oqilona foydalanib, qayta tiklab, muhofaza ostiga olish sohasidagi shora-tadbirlarni gapirib bering.

Nima uchun landshaftlarni muhofaza ostiga olinadi?

Landshaftlarni va noyob, turi ozayib ketayotgan biologik resurslarni muxofaza qilishda quriqxonalarining ahamiyatini gapirib bering.

Yozuvsiz xaritagizga O'zbekistondagi quriqxonalar, buyurtmalar xalq bog'i, parvarishxonalarini tushirib, ular haqida gapirib bering.

Tabiiyot yodgorliklari deganda nimalarni tuchunasiz? Uzbekistondagi tabiat yodgorliklari xususiyatlariga ko'ra qanday turlarga bo'linadi?

Siz yashab turgan hududda qanday quriqxona, buyurtma yoki tabiat yodgorliklari bor

Quyidagi topshiriqlarni bajaring:

Daftaringizga O'zbekiston tabiiy boyliklari zahirasi haqida malumot yozing. Qo'riqxona, milliy bog' va buyurtmalarni jadval ko'rinishida yozing.

O'ZBEKISTONNI TABIIY GEOGRAFIK RAYONLASHTIRISH

REJA:

Kirish

1.O'zbekistonni tabiiy geografik rayonlashtirish masalari

2.O'zbekistonni tabiiy geografik jixatdan rayonlashtirish

3.Tabiiy rayonlarni ekologiyasi

Mavzuning maqsadi: O'zbekistonni tabiiy geografik rayonlashtirish, provinsiya, provinsiyasha, okrug, rayon, landshaft haqida ma'lumot berish.

O'zbekistonning tabiiy-geografik rayonlashtirilishi

tabiiy-geografik rayonlashtirishning ba'zi bir uslubiy masalalari

Kompleks tabiiy-geografik rayonlashtirish — tabiiy geografiyaning eng muhim birinshi darajali muammolaridan biri hisoblanadi. Tabiiy-geografik rayonlashtirishning ilmiy jihatdan puxta asoslangan prinsipi, uslubi va taksonomik birligi (sxemasi) faqat ilmiy axamiyatga ega bo'lishdan tashqari xalq xujaligining turli sohalari uchun ham amaliy ahamiyatga egadir. Chunki tabiiy boyliklardan oqilona foydalanish, ularni muxofaza qilib, o'zgartirish, xalq xujaligini intensiv rivojlantirish, xalq xujalik tarmoqlarini ixtisoslashtirish eng avvalo hudud tabiati ishida tafovutlarni har tomonlama va ilmiy jihatdan puxta bilishni taqozo ztadi. Tabiiy-geografik rayonlashtirish bu hududda ma'lum qonuniyat asosida joylashgan va tabiatda ob'ektiv mavjud bo'lgan, bir-biridan tabiiy xususiyatlari jihatidan farqlanadigan har xil tabiiy - hududiy komplekslarni aniqlashdir.

Tabiiy - geografik rayonlashtirishning prinsipi bu tabiiy geografik bo'linishning ob'ektiv holda mavjudligiga qat'iy rioya qilishdir. Tabiiy -geografik rayonlashtirishning hududiy birlik prinsipi, komplekslik prinsipi, ob'ektivlik prinsipi nisbiy bir xillik prissipi, genetik prinsipi va boshqa prinsiplari mavjud.

Ma'lum hududni tabiiy - geografik jihatdan rayonlashtirishda tadqiqotshilar har xil uslublardan foydalanishlari mumkin. Ularning eng muhimlari: turli xil xaritalarni bir-biriga taqqoslash uslubi; landshaft va tipologik komplekslar xaritalaridan regional birliklarni aniqlash uslubi; xarakterli landshaft komplekslarining ustunlik uslubi; kartografik uslub; tabiiy geografik birliklarni bevosita dalada (joyda) aniklash uslubi¹.

Tabiiy-geografik rayonlashtirishning yana bir muxim tomoni bu rayonlashtirishning taksonomik birliklari (chizmasi) dir. SHu vaqtgasha Uzbekiston hududini rayonlashtirishning hamma qabul qilgan yagona taksonomik birligi yuq.

Vaholanki O'rta Osiyo, jumladan O'zbekiston hududini tabiiy-geografik rayonlashtirish bilan L. S. Berg (1913), S. I. Abolin (1929), V. M. SHetirkin (1944); E. M. Murzayev (1953, 1958), P. S. Makeyev (1956), L. N. Babushkin, N. A. Kogay (1964) shug'ullanganlar va o'z taksonomik birliklarini tavsiya etganlar. Bular ishida L. N. Babushkin, N. A. Kogaylarning rayonlashtirish tizimi diqqatga sazovordir. Chunki ularning tabiiy-geografik rayonlashtirish tizimi O'zbekiston hududini hamma qismini tulig'isha qamrab olgan.

L. N. Babushkin, N. A. Kogay O'rta Osiyoning bir qismi hisoblangan O'zbekiston hududini tabiiy - geografik rayonlashtirishda quyidagi taksonomik birliklar tizimini qo'llaydi: mamlakat (o'lka) — provinsiya — provinsiyasha — okrug — rayon — landshaft.

L. N. Babushkin, N. A. Kogay rayonlashtirish tizimiga ko'ra O'zbekiston hududining asosiy qismi Turon provinsiyasiga kiradi. L. N. Babushkin, N. A. Kogay Turon provinsiyasini tekislik va tog'oldi— tog'lik deb ikki provinsiyashaga ajratadi. Tekislik provinsiyashasiga Ustyurt, Quyi Amudaryo, Qizilqum va Quyi Zarafshon okruglarini; tog'oldi —tog'lik provinsiyashasiga esa O'rta Sirdaryo, Farg'ona, O'rta Zarafshon, Qashqadaryo va Surxondaryo okruglarini kiritadi. Hap bir okrug o'z navbatida rayonlarga, rayonlar esa landshaftlarga bo'linadi.

Biz O'zbekiston hududini tabiiy-geografik rayonlashtirishda uni o'rta umumta'lim maktablar dasturiga yaqinlashtirish va talabalarga qulaylik tug'dirish maqsadida quyidagi rayonlashtirish tizimini qo'lladik: Provinsiya — provinsiyasha — okrug— rayon — landshaft.

Ma'lumki, O'zbekiston hududining asosiy qismi Turon tabiiy geografik provinsiyasiga, faqat Ustyurt platosi esa Markaziy Qozog'iston provinsiyasiga kiradi.

Ma'lum xududni tabiiy geografik rayonlashtirishda olimlar landshaft va tipologik komplekslar xaritalaridan regional birliklarini aniqlash, kartografik , tabiiy geografik birliklarni bevosita dalada aniqlash uslublaridan foydalanishadi.

O'zbekiston hududini tabiiy geografik rayonlashtirish bilan L. S. Berg, S. I. Abolin, V. M. SHetirkin, E. M. Murzayev, P. S. Makayev, L. N. Babushkin, N. A. Kogaylarning rayonlashtirish tizimi diqqatga sazovordir.

Bugungi kunda fan va amaliyot yer yuzasining istalgan nuqtasidan uzviy bog'liq bo'lgan ulkan hajmdagi ma'lumotlarni olmoqdaki, ularni taxlil etishva boshqaruvda qo'llash muhim ahamiyat kasb etadi. Bu ma'lumotlarni tahlil etish, jamlash va maqsadli foydalanish sinalgan usullardan biri yer yuzasini rayonlashtirish bo'lib hisoblanadi.

Rayonlashtirish nuqtaviy ma'lumotlarni fazoviy tartibga solish uning qonuniyatlarini kashf etishni muayyan qatog'lar tizimlar tarkib va tartiblarni aniqlashni ifoda etadi.

L. N. Babushkin, N. A. Kogay Turkistonning bir qismi hisoblangan O'zbekiston hududini tabiiy geografik rayonlashtirishda quyidagi taksonomik birliklardan foydalanganlar: mamlakat – provinsiya – provinsiyasha – okrug – rayon – landshaft.

SHunga binoan O'zbekiston hududining asosiy qismi Turon provinsiyasiga kiradi. Turon provinsiyasini tekislik va tog' oldi – tog'lik deb ikki provinsiyaga ajratadi. Tekislik provinsiyashasiga Ustyurt, Quyi Amudaryo, Qizilqum va Zarafshon okruglarini kiritadi.

Tog' oldi – tog'lik provinsiyashalariga Toshkent mirzacho'l , Farg'ona, Qashqadaryo, Surxondaryo, G'arbiy Tyanshan, Turkiston – Nurota, Hisor – Zarafshon, Bobotog' okruglarini kiritishgan.

Mazkur tabiiy geografik rayonlashtirish o'lkamizni tabiiy geografik jihatdan batafsil o'rganishga yordam beradi.

SAVOL VA TOPSHIRIQLAR

O'zbekistonni tabiiy geografik jihatdan rayonlashtirish qanday amalga oshirilgan?

O'zbekistonni tekislik va tog' oralig' provinsiyashalariga misol keltiring.

Taksonomik birlik nima?

Quyidagi topshiriqlarni bajaring:

Daftaringizga O'zbekistonni tabiiy geografik rayonlashtirishda ishtirok etgan olimlar nomini va qilgan ishlarini yozing.

ZARAFSHON OKRUGI

REJA:

1. Okrugning relyefi
2. Iqlimi
3. Zarafshon daryosi

Mavzuning maqsadi: Okrugning relyefi, iqlimi, tabiiy geografik rayonlari haqida ma'lumot berish. Bu okrug Zarafshon daryosining Quyi Buxoro va Qorakul deltalarini, Turkistonning markaziy yer po'stining tektonik jarayonlar natijasida sho'kkan qismida joylashgan Zarafshon vodiysining o'rta qismini o'z ishiga olib birg' biridan Xazar yo'lagi orqali ajralib turadi. Bu okrugni shimoldan va g'arbdan Qizilqum okrugi, Janubi – g'arbdan Sandiqli qumligi, Janubdan Eshakchi qumligi, sharqdan Qiziltepa, Azkamar, Quyimozor, Qaynog'osh, Qushtepa, Qumsulton balandliklari o'rab turadi. O'rta Zarafshon Samarqand botig'ida shimol tomondan Chumqortog', G'ubdintog', Qaroqshitog', Oqtog', Qoratog', Janubdan Qoratepa, Ziyovuddin, Zirabuloq tog'lari bilan o'ralgan, sharqiy chegarasi Tojikiston bilan chegaradosh.

Okrugning mutloq balandligi Samarqand shahri 727 m, Kattaqo'rg'on shahri 450 m, Navoiy shahri 347 m.

Okrugda paleogen, neogen, antropogen davr sho'kindi jinslaridan tarkib topgan. Okrug ayrim yerlarda tog'ayib ayrim joylarda kengayadi. U Xazar yo'lagida tog'ayib, so'ng Abusalim tepaligida kengayib, Shoptoli qishlog'ida janubi – g'arbga qarab kengayib Buxoro delta sini hosil qildi. Deltaning uzunligi 102 km. o'rtasha kengligi 50 – 55 km, eng keng yeri 70 km.

Zarafshon daryosi Turkiston, Zarafshon va Oloy tog'lari tutuashgan Ko'ksuv tog' tugunidagi Zarafshon muzligidan 2772,5 m balandlikdan Mastshoh nomi bilan boshlanadi. U Ayniy qishlog'i yonida Fandaryo bilan qushilib Zarafshon nomini oladi. Uzunligi 751 km (Sandiqli qumligigasha) , suv yig'adigan maydoni 12374 km².

SAVOL VA TOPSHIRIQLAR

1. Zarafshon okrugiga O'zbekistonning qaysi qismi kiradi?
2. Okrug iqlimining asosiy xususiyatlarini belgilang.

QIZILQUM OKRUGI

REJA:

1. Okrugning relyefi
2. Iqlimi
3. Tabiiy geografik rayonlari

Mavzuning maqsadi: Okrugning relyefi, iqlimi, tabiiy geografik rayonlari haqida ma'lumot berish. KIZILQUM OKRUGI Turon tekisligidagi eng katta cho'l lardan biri bo'lgan qizil-qum asosan Amudaryo bilan Sirdaryo orasida joylashgan. Lekin Qizilqum okrugiga Qizilqum cho'l ining O'zbekiston hududida joylashgan qismi kiradi.

Qizilqum okrugi shimoli-g'arbda Quyi Amudaryo okrugi bilan, janubi-sharqda Quyi Zarafshon okrugi bilan, sharqda esa Toshkent-Mirzashul okrugi bilan chegaralanadi. Okrugning janubi-g'arbi Turkmaniston, shimoli-sharqi Qozog'iston bilan bo'lgan davlat chegarasiga to'g'ri keladi.

Qizilqum janubi-sharqdan shimoli-g'arbga qarab pasayib boradi. Uning o'rtasha mutloq balandligi 200—300 m bo'lsa, janubi-sharqda 350—400 m, shimoli-g'arbda esa 90—100 m ga tushib qoladi.

Qizilqum okrugi yer usti tuzilishi jihatidan bir xil emas. Bu yerda botiqlar, tekisliklar, yassi platolar va qoldiq tog'lar mavjud. Lekin uning ko'pchilik qismini mutloq balandligi 200 m

Okrug shimoli – g'arbda Quyi Amudaryo okrugi bilan, janubi – sharqda Zarafshon, sharqda Toshkent – Mirzacho'l okrugi bilan chegaralanadi. Uning janubi – g'arbi Turkmaniston, shimoli – sharqi Qozog'iston bilan bqlgan davlat chegaralariga to'g'ri keladi.

Okrugning mutloq balandligi 200 – 300 m, janubi – sharqi 350 – 400 m, shimoli – g'abrda 90 – 100 m. U yerda botiqlar, tekisliklar, yassi platolar va qoldiq tog'lar mavjud.

Botiqlari: Mingbuloq, Mullali, Qaraxotin, Oyoqog'itma.

Qoldiq tog'lari: Quljug'tog' (Irlir cho'qqisi 764m), yetimtog' (568m), Tomditog' (Otog' cho'qqisi 922m), Sulton Uvays tog'i (Ashitog' cho'qqisi 473 m).

Qizilqum okrugi tabiiy boyliklarga serob xudud hisoblanadi. Eng muhim boyligi mineral resurslari (oltin, uran, gaz, fosforit, korund, grafit)dir. Bundan tashqari okrugda iqlim resurslari, yaylov-utloqlari, yer osti suvlari, muyna beruvchi hayvonlari xam mavjud bo'lib, ular yurt boyligidir.

Qizilkum okrugi o'z navbatida L. N. Babushkin, N. A. Kogay (1964) ning rayonlashtirish tizimi buyisha Sultonvays, Shimoliy Qizilqum, Bo'kan-Etimtog', Janubiy Qizilqum, Tomdi — Quljug'tog' kabi tabiiy-geografik rayonlarga bo'linadi.

I. Sultonvays tabiiy-geografik rayoni shu nom bilan ataluvshi qoldiq tog'ning va uning atrofidagi xududlarni uz ishiga oladi. Sultonvays tog'i YEmirilgan va assimmetrik tuzilgan bo'lib, janubiy yon bag'riga nisbatan tik. Tog' Amudaryoning o'ng qirg'og'ida joylashib, kenglik buylab 40—45 km ga sho'zilgan, o'rtasha kengligi 10—15 km, eng baland Ashitog' cho'qqisi 475 m ga yetadi. Sultonvays tog'i g'arbga qarab pasayib bir - biridan ajralgan Shayx, Jeyli, Quyanshiq, Zangibobo, Jumurtog' kabi balandliklarni hosil qiladi. Iqlimi cho'l ga xos xususiyatlar bilan tavsiflanib, skeletli sur-qo'ng'ir tuproq tarqalgan bo'lib, asosan shuvoq o'sadi.

II. Shimoliy Qizilqum tabiiy-geografik rayoni. Bu rayon Qizilqumning 42° shimoliy kenglikdan shimolda bo'lgan yerlarini, ya'ni Bukantog' va yetimtog'larning shimoliy qismidagi xududlarni uz ishiga olib, asosan, qum massivlaridan iborat. Rayon xududining kup qismini pliosen — eski turtlamshi davr platolarining yemirilishidan (nurashidan) vujudga kelgan eol qumliklari, xususan, qumlarning ari uyasisimon marza, eol relyef shakllari egallaydi. Rayon Qizilqum okrugining eng soquq (yanvarning o'rtasha harorati—7,8°), vegetasiyasi qish 0 ga teng bo'lgan rayoni hisoblanadi. Yozi esa okrugdagi eng past xaroratga ega bo'lib, iyulning o'rtasha harorati +29° dir. Asosiy tuprog'i qumli tuproq; bulib, unda oq saksovul va boshqa o'simliklar usib Qizilqum turli eol kumli landshaft bilan tavsiflanadi. Shuningdek, ba'zi sur-qo'ng'ir tuproqlar tarqalgan yerlarda efemer o'simliklar o'sadi Rayonning g'arbiy qismida Oqchadaryoning qadimiy delta tekisliklari mavjud (bo'lib, u meridian buylab 75—80 km ga cho'zilib, kengligi 6—7 km ga yetadi. Bu yerlar allyuvial yotqiziqlar bilan(qoplanib, taqirlar, sho'rxoklar mavjud bo'lib, qora saksovul va boshqa o'simliklar o'sadi.

III. Bukan-Etimtog' tabiiy-geografik rayoni. Rayon o'z ichiga Bukantog', yetimtog', Oltintog' va Kokpatos tog'larini hamda tog' oldi prolyuvial tekisliklarini oladi. Rayonning sharqdan g'arbga uzunligi 230—340 km. Rayonning asosiy qismini Bukantog' egallab bir qasha (Tubabergan, Buzdantog') tog'lardan iborat bulib, eng baland Irlir sho'qqisi. Bo'kantog'ning janubida esa Oltintog' (baland yeri 522 m) joylashib, u sharqda Kokpatas balandligiga tutashib ketadi. Rayonning sharqida yetimtog' joylashib, u yetimtog' 1 va 2, Kiyiktog' va Toktintog' kabi past tog'lardan iborat bo'lib, eng baland yeri 565 m ga yetadi. Bu tog'lar paleozoy erasining har xil cho'kindi va otqindi jinslaridan iborat bo'lib, yalang hamda soylar bilan kesilgan. Tog'larning etagida shag'al va gipsdan tashkil topgan prolyuvial tekisliklar joylashgan.

Tog'larning janubiy tog' oldi mintaqasida esa tog' oldi tekisliklari, qum massivlari, berk tubi shurxoklardan iborat botiqlar joylashgan. Ularning eng muximi O'zbekistonning eng past — (12 m) yeri bulgan Mingbuloq botig'idir.

Rayon iqlimiy xususiyatlari jig'atidan SHimoliy Qizilqum bilan Janubiy Qizilkum orasidagi o'tkinshi mintaqa hisoblanib, qish tog'larda mu'tadil xususiyatga ega bo'lsa, botiqlarda sovuq, yoz esa quruq; va issik.. Iqlimning bunday xususiyatlari rayon tuproq va o'simlik qoplami xususiyatlariga ta'sir etgan. Binobarin, rayon quyidagi landshaftlarga bo'linadi.

5. Bo'kantog', OLTINTOG', YETIMTOG', KIYIKTOG' va Toktintog'larni o'z ishiga olgan paleozoy negizli, shuvoq o'suvshi sur-qung'ir tuproqli past tog'lar landshafti.
6. Sur-qung'ir tuproqli shuvoq formasiyasi mavjud bulgan tog' oldi prolyuvial tekisliklar landshafti.
7. Oq saksovullar o'suvshi past tog'lardagi eol qum landshafti.
8. Mezokaynazoy negizidan iborat bo'lgan sarisazanli shurxoklardan tashkil topgan berk botiqlar landshafti. Bu tur landshaft Mingbuloq botig'ini o'z ishiga oladi.

IV. Janubiy Qizilqum tabiiy-geografik rayoni.

Qizilkumning 42° shm kengligidan janubda joylashgan ikkita kum massivi — Buzauboy va YOmonqumni o'z ishiga oladi. YOmonkum .ETIMTOG' bilan TOMDITOG' orasida joylashgan. yemonkumning janubi va janubi-g'arbida esa Buzauboy qum massivi o'rnashgan. Bu ikki qumlikda xam ari uyasisimon, marza qum relief shakllari keng tarqalgan. Lekin Amudaryo sohillariga yaqinlashgash barxan qumliklari xam uchraydi.

Rayon Qizilqum okrugining qishi nisbatan iliq (yanvarning o'rtasha xarorati —4—4,8°), yozi esa issik, (iyulning urtasha Harorati +31°) va quruq bo'lgan qismi hisoblanib, harorati +10° dan yuqori bo'lgan davrdagi harorat yig'indisi 4850° yetadi.

R a y o n u z n a v b a t i d a q u y i d a g i l a n d s h a f t l a r g a b o ' l i n a d i .

5. Rayon xududining eng kup qismini ishg'ol qilgan oq saksovul usuvshi qizilkum turli eol kum landshafti. Bu landshaft yemonkum va Buzauboy kumliklarini uz ishiga oladi.

6. Efemer usimliklari tarqalgan sur-kung'ir tuproqli pliosen — eski turtlamshi davr platolar landshafti.

7. Amudaryo qayirlari va qirg'oqlaridagi utloq-botqoq allyuvial tuproqlarda o'suvshi tuqay va qamishzorlar bilan o'ralgan delta hamda undagi qayirlar landshafti.

8. Amudaryoning suroriladigan utloq tuproqli delta va undagi qayirlar madaniy landshafti.

O'zan tarmoqlari – biror xavzada joylashgan barsha suvlar yig'indisidan paydo bo'lgan gidrografik tizimning tarkibiy qismi. O'zan tarmoqlar xususiyati va tuzilishi tabiiy – geografik sharoitlarning o'zaro murakkab aloqalari: quruqlik yuzasidan oqib kelayotgan suvning miqdori va jadalligi, shu suvning oqish sharoiti bilan xarakterlanadi.

Gidrografik muxitning o'zgaruvshanligi, meteorologik sharoit, quruqlik yuzasi va inson faoliyati o'zan oqimining shosil bo'lishiga, to'yinishga va rejimiga murakkab ta'sir qiladi. O'zani shakli, nishabliklari, suvning oqish tezligi va sarflari, loykaliigi va okiziklari o'zgarishiga moyildir.

Qizilqum okrugini quyidagi tabiiy geografik rayonlarga bo'lamiz:

6. Sulton Uvays tabiiy geografik rayoni
 7. Shimoliy Qizilqum tabiiy geografik rayoni
 8. Bo'kan yetimtov tabiiy geografik rayoni
 9. Janubiy Qizilqum tabiiy geografik rayoni
 10. Tomdi – Quljuqtog' tabiiy geografik rayoni
- Okrugda oltin, slyuda, asbest, boksit, simob, grafit, volfram, talk, granat, yashma, island, shpati, gaz, neft, uran, oltingugurt konlari mavjud.

Bu tabiiy boyliklarni muhofaza qilish va ulardan oqilona foydalanish, konlar atrofini rekultivasiya qilish zarur.

SAVOL VA TOPSHIRIQLAR

Qizilqum okrugini tabiiy sharoitini ta'riflang.

Qizilqum uchun qanday relyef shakllari xos?

Qizilqum okrugini qanday tabiiy geografik rayonlarga ajratamiz?

Okrugni tabiatini muhofaza qilish uchun qanday ishlarni amalga oshirish mumkin?

Quyidagi topshiriqlarni bajaring:

Daftaringizga Qizilqum okrugini geografik ob'ektlarini ruyxat bilan yozing.

QUYI AMUDARYO OKRUGI

REJA:

1 Okrugning relyefi

2. Iqlimi

3. Tabiiy geografik rayonlari

Mavzuning maqsadi: Quyi Amudaryo okrugini tabiiy geografik o'ri, tabiiy geografik rayonlari va uning iqlimi haqida ma'lumot berish.

Okrug Qoraqum cho'li bilan Orol dengizi orasida joylashib, o'z ishiga Amudaryoning qadimiy va hozirgi zamon del'tasini oladi. Okrugni g'arbdan Ustyurt, janubdan O'ngizorti Qoraqum, sharqdan Qizilqum va Sultonuvays tog'lari, shimoldan esa Orol dengizi o'rab turadi. Maydoni 46 ming. kv. km tashkil etadi.

Okrugda bo'r davri yotqiziqlari kpp tarqalgan, uning ustini paleogen, neogen, antropogen davr jinslari qoplab yotibdi. Qadimiy delta sida gil, gilli qum, qumoqlar tarqalgan.

Relyefi asosan, qadimiy o'zanlar orasida nisbiy balandligi 60 – 80 m ga yetadigan tepaliklar, marzalar, qoldiq tog'lardan iborat. Qoldiq tog'lardan Quyanshiq, Qoratorov, Qumbeltov, Jumirtov, Borlitov, Kuskantov, Qoshqantov, Beltov, Manqir, Tuzqir, Tarimqiya, Zangibobo va boshqalar.

Qadimiy daryo o'zanlari – Shortanboy, Kreyg – o'zak, Qora – o'zak, Kindiksoy, Qorako'lsay, Ko'xnadaryo, Daryoliq, Daudan va boshqalar.

Okrug O'zbekistonning eng sovuq hududlaridan biri hisoblanadi. Yanvarning o'rtasha harorati – 4,5^o, - 7,6^o S, eng past harorati - 33^o (Taxiatoshda), eng qurg'oqshil hududida yiliga 79 – 108 mm yog'in tushadi. Okrug Orol dengizi orasida joylashib o'z ishiga Amudaryoning qadimiy va hozirgi zamon delta sini oladi. Okrugni g'arbdan Ustyurt, janubdan Ungizorti Qoraqum, sharqdan Qizilkum va Sultonuvays tog'lari, shimoldan esa Orol dengizi o'rab turadi. Quyi Amudaryoning ushbu chegara orasidagi maydoni 46 ming kv km ni tashkil etadi.

Quyi Amudaryo okrugi janubi-sharqdan shimoli-g'arb tomonga sho'zilgan bo'lib, shu tomonga kengayib, pasayib boradi. Okrug janubda Tuyamuyin tangligidan boshlanib, Orol dengizigasha davom etadi. SHu masofada uning uzunligi 400 km bo'lib, kengligi bir xil emas. Eng janubiy qismida Tuyamuyin tangligida okrugning kengligi taxminan 10—12 km bulib, shu yerdan Amudaryoning qadimiy delta si boshlanadi va shimoli-g'arbgacha qarab kengayib, Xorazm-Toshhovuz tekisligini hosil qiladi hamda kengligi 75—80 km ga yetadi. Amudaryoning qadimiy delta si Taxiatosh tangligigasha davom etadi va torayadi, so'ngra shi-molga tomon yana kengayib qadimiy delta tugab, Amudaryoning hozirgi zamon delta si boshlanadi hamda Orol dengizigasha davom etadi. Shu yunalish buyicha delta pasayadi va kengayib, ba'zi yerlarda 140—150 km ga yetadi.

QUYI Amudaryo okrugi antropogen davrning allyuvial-delta yotqiziqlarining asta-sekin to'planishi va uning delta sining Orol dengizi tomonga o'sishi tufayli vujudga kelgan. Binobarin, Quyi Amudaryoda quruqlikning vujudga kelish jarayoni janubi-sharqdan, ya'ni Tuyamuyin tangligidan shimoli-g'arb, shimol tomonga qarab davom etgan. Amudaryoning hozirgi zamon delta sini Orol dengiziga tutashgan mintaqasida «eng yosh» delta bo'lib, uning maydoni Orol dengizi suv sathining pasayishi hisobiga muttasil kengayib bormoqda. So'nggi 35 yil ishida Orol dengizi suv sathining 15,5 metr pasayishi tufayli uning suvi ba'zi joylarida 100 km gashga shekinib, quruqlikka aylanib qoldi.

Quyi Amudaryo yotqiziqlari yoshi va litologik tuzilishi jihatidan bir xil emas. Okrugdagi eng qadimiy jinslar uning negizini tashkil etuvshi bur davr yotqiziqlari bo'lib, ustini paleogen, neogen va; antropogen jinslari qoplab olgan.

Quyi Amudaryoning qadimiy delta si antropogen allyuvial yotqiziklaridan (gil, gilli qum, qumoq, qumloq va boshq.) iborat bo'lib, ularning qalinligi (bur; davrning tub jinslari ustidan) 20 m, ba'zi joylarda 100 m. ga yetadi. SHuningdek, qadimiy delta shetlarida, ba'zi kishik botiqlarda kul yotqiziqlari ham uchraydi.

Quyi Amudaryoning hozirgi zamon delta si esa, asosan, antropogen davr allyuvial, eol yotqiziqlaridan — qumoq, qumli, gilli qum, gil kabi jinslardan tashkil topib, qalinligi 80— 140 m ga yetadi.

Orol dengizining quruqlikka aylangan qismida esa hozirgi zamon yotqiziqlari (qumoq, qumloq, gil) bo'lib, ular tarkibida har xil tuzlar mavjud, ba'zi joylari esa botqoqlashgan.

Quyi Amudaryo okrugining qadimdan sug'orib dexkonshilik qilinadigan yerlari (Xorazm) da qalinligi 2—3 m ga yetuvshi agroirrigasiya qatlami vujudga kelgan.

Quyi Amudaryo okrugi yer usti tuzilishi jihatidan yassi tekislik bulib, shimolga va shimoli-g'arbga qarab bir oz nishabdir. Lekin qalingi juda sezilarsiz (qiyaligi 0,0017) ligi tufayli Amudaryo tarmoqlanib, ilon izi bo'lib, sekin oqadi. SHuning uchun Amudaryoning qadimiy o'zanlari vujudga kelib uning relefini ancha murakkablashtirgan. O'sha qadimiy o'zanlar orasida nisbiy balandliklari 60—80 mta yetuvshi bir nasha tepaliklar, marzalar va qoldiq tog'lar mavjud.

Quyi Amudaryo okrugining rayonlari

1. Chimboy – Qung'iroq tabiiy geografik rayoni
3. Xorazm tabiiy geografik rayoni
Bu rayon quyidagi landshaftlarga ega.
 1. Tabiiy-geografik rayonning janubi-sharqiy qismida joylashgan, efemer o'simliklari bilan band bo'lgan, sur-qung'ir tuproqli qadimiy (pliosen — eski to'rtlamshi davr) platolar landshafti.
4. Amudaryoning allyuvial-delta tekisligidagi kora saksovul usuvshi taqir-shurxok va shurxokli delta - tekisliklar landshafti.
5. Amudaryoning qadimiy o'zanlari atrofida va rayonning janubi Ungizorti Qoraqumiga tutashgan joylardagi yantoq o'suvshi delta tekisligining eol qumli landshafti.
7. Amudaryoning yangi qayirlarida joylashgan tuqay o'simliklari bilan qoplangan utloq va botqoq allyuvial tuprokli qayirlar landshafti.
8. Kullar atrofida va kishik shurxokli botqalarda joylashgan bir yillik shuralar (soyanka) usuvshi delta -tekisliklaridagishurxoklar landshafti.
9. Xorazm vohasining delta -tekislikligidagi o'tlok, tuproqli madaniy landshaft.

SAVOL VA TOPSHIRIQLAR

1. Quyi Amudaryo Qizilqum okrugi bilan bir geografik kenglikda joylashsada, landshafti jihatidan tubdan farq qiladi, sababini tuchuntirib bering.
3. o'zbekistan Atlasidan (birinshi qismi) foydalanib okrugda qaysi davr yotqiziqlari keng tarqalganligini aniqlab, sababini tuchuntirib bering.
4. Okrug relyefini uzgartirishda qanday omillar muhim vazifani o'ynagan?
5. Nima uchun okrugda yog'in respublika buyisha eng kam tushadi, aksinsha, mumkin bo'lgan bug'lanish yog'inga nisbatan 20 marta ortiq?
6. Tuproq va usimlik xaritalarini tahlil qilib, okrugda keng tarqalgan tuproq - o'simlik turlari ruyxatini tuzib chiqing.
7. Orol dengiz suv satxining pasayishini okrug tabiatiga ko'rsatayotgan salbiy ta'sirini tuchuntirib bering. 7. Okrugda qanday qo'riqxonalar va buyurtmalar bor hamda ular qanday maqsadda barpo etilgan?
6. Nima uchun okrug rayon va landshaftlarga ajratildi?

Quyidagi topshiriqlarni bajaring:

Daftaringizga Quyi Amudaryo okrugini tabiiy geografik rayonlarini, landshaftlarini yozing.

USTYURT OKRUGI

REJA:

1. Okrugning relyefi
2. Iqlimi
3. Tabiiy geografik rayonlari

Mavzuning maqsadi: Ustyurt okrugini tabiiy sharoiti, relyefi, iqlimi, rayonlarini o'rganish

Ustyurt okrugi O'zbekistonning eng shimoliy – g'arbiy qismida joylashib, shimolda va g'arbda Qozog'iston bilan, Janubda Turkmaniston, sharqda esa Quyi Amudaryo okrugi va Orol dengizi bilan chegaralangan.

Ustyurt arid – denudasion plato hisoblanib, balandligi 100 – 200 m atrofida shinklar bilan o'ralgan. Ustyurt platosi geologik tuzilishi jihatdan epipolezoy plitasining bir qismi hisoblanib, negizi paleozoy yotqiziqalaridan iborat, ustini qalin 3 – 4,5 km mezozoy va kaynozoy davrining sho'kindi jinslari qoplab olgan.

SHinklar tektonik jarayonlar (uzulmalar) Orolning abrazion faoliyati va qadimiy daryo eroziyasi natijasida hosil bo'lgan.

Ustyurt okrugida yanvarning o'rtasha harorati – 11, -12⁰ S, iyulniki 27 , 28⁰ S, eng past harorat – 37⁰ S, eng yuqori harorat 44⁰ Sga yetadi.

Sovuq bo'lmaydigan kunlar 153 kunni tashkil etadi. Bu yerda yog'in miqdori 100 -120 mm, Qishda 17%, bahorda 34 %, yozda 23 %, kuzda 26 % i yog'adi. Ustyurt okrugida oqar suvlar yo'q.

Ustyurt okrugini quyidagi tabiiy geografik rayonlarga bo'linadi:

4. SHimoliy Ustyurt tabiiy geografik rayoni
5. Markaziy Ustyurt tabiiy geografik rayoni
6. Janubiy Ustyurt tabiiy geografik rayoni

SAVOL VA TOPSHIRIQLAR

- 1 Ustyurt okrugini tabiiy geografik o'rnini belgilang.
- 2 CHinklar nima, arid - denudasion platoshi?
- 3 Iqlimi haqida nimalar deya olasiz?

Quyidagi topshiriqlarni bajaring:

Daftaringizga Orol dengizini hozirgi ahvoli haqida yozing.

CHIRCHIQ – OHANGARON OKRUGI

REJA:

- 1.Okrugning relyefi
- 2.Iqlimi
- 3.Tabiiy geografik rayonlari

Mavzuning maqsadi: Chirchiq – Ohangaron okrugini tabiiy sharoiti, relyefi, iqlimi, rayonlarini o'rganish

Bu okrug Sirdaryo vodiysining o'rta qismi, Chirchiq hamda Ohangaron vodiylarining qo'yi qismida joylashgan bo'lib, Toshkent – Mirzacho'l botig'ini o'z ishiga oladi. Okrug janub tomondan Nurota, Molguzar va Turkiston tizmalari bilan, sharqdan Mug'ultog', Qurama tog'lari bilan, shimoli – sharqdan Chotqol, Qorjantog' tizmalarining tog' etaklari bilan o'ralgan. Shimol va g'arb tomondan okrugning chegarasi shartli ravishda O'zbekistonning Qozog'iston bilan bo'lgan davlat chegarasi orqali o'tadi. Janubi – sharqda esa 8 km kenglikdagi Xo'jand darvozasi orhali Farg'ona vodiysidan ajralib turadi. Unga Toshkent Sirdaryo, Jizzax viloyatlari hududlari to'g'ri keladi.

Okrug geologik jihatdan G'arbiy Tyanshan va Turkiston megaantiklinali orasidagi sinklinalda joylashib, so'ngra Sirdaryo va uning doimiy hamda vaqtli irmoqlari keltirgan jinslar bilan to'ldirilgan.

Bu yerda SHo'ro'zak, Sardoba, Qorao'y, Yog'oshota va boshqa botiqlar Sirdaryoning o'sha qadimiy o'zanlaridir. Okrugning o'rtasha nisbiy balandligi 373 m – 385 m, Guliston shahri 276 m, Sirdaryo shahri 240 m, Shinoz 278 m, YAngiyo'l shahri 338 m, Bo'zsuvda Chirchiq vodiysining balandligi 473 m ni tashkil etadi.

Okrugning iqlimi kontinental, Arktika havo massalari bemalol kirib keladi. Qishning o'rtasha havo harorati –1, -3⁰ S, iyulning o'rtasha havo harorati 27 – 29⁰ S. eng past harorat –28, -35⁰ S. Yog'inlar notekis taqsimlangan, o'rtasha yillik yog'in miqdori 250 – 300 mm, okrugning shimoli – sharqida 300 – 400 mm ga yetadi.

3. Chirchiq – Ohangaron okrugini quyidagi tabiiy geografik rayonlarga ajratiladi:

7. Forish – Jizzax tabiiy geografik rayoni
8. Mirzacho'l tabiiy geografik rayoni
9. Chirchiq – Ohangaron tabiiy geografik rayoni

SAVOL VA TOPSHIRIQLAR

4. Chirchiq – Ohangaron okrugiga O'zbekistonning qaysi qismi kiradi?
5. Okrug iqlimining asosiy xususiyatlarini belgilang.
6. Okrug qanday tabiiy geografik rayonlarga bo'linadi?

Quyidagi topshiriqlarni bajaring:

Daftaringizga Chirchiq – Ohangaron okrugini tabiiy geografik rayonlarining tavsifini yozing.

FARG'ONA OKRUGI

REJA:

1. Okrugning relyefi
3. Iqlimi
4. Tabiiy geografik rayonlari

Mavzuning maqsadi: Farg'ona okrugini tabiiy sharoiti, relyefi, iqlimi, rayonlarini o'rganish

Farg'ona tabiiy geografik okrugi O'zbekistonning eng sharqida Tyanshan va Oloy tizimlari orasidagi Farg'ona vodiysida joylashgan. Bu okrugning atrofi tog'lar bilan o'ralgan.

Farg'ona tabiiy geografik okrugini janubdan Turkiston va Oloy, sharqdan Farg'ona va Oto'ynoq, shimoldan Chotqol, shimoli – g'arbdan esa Qurama va Qoramozor tog' tizimlari, g'arbdan Mug'ultog' o'rab turadi. Faqat g'arb tomondan okrug torgina "Farg'ona" yoki "Xo'jand" darvozasi orqali Dalvarzin va Mirzacho'l tekisliklari bilan tutashib ketadi. Farg'ona tabiiy geografik okrugining uzunligi g'arbdan sharqqa 370 km, o'rtasha kengligi 80 – 100 km, eng keng joyi esa sharqiy qismida bo'lib, 150 km ga yetadi.

Farg'ona okrugining tekislik qismi Farg'ona botig'i deyiladi, uning atrofini geologik xususiyatlari va relyefi jihatidan bir – biridan farqlanadigan adir va tog'lar o'rab turadi. Farg'ona okrugi tektonik botig'dan iborat bo'lib, asosan prolyuvial – allyuvial jinslar bilan to'lgandir.

Farg'ona okrugining iqlimi quruq, davomli, yozi issiq, qishi mo'tadil, shu kenglikda joylashgan qo'shni Toshkent – Mirzacho'l okrugidan biroz farq qiladi. Okrugning atrofini o'rab olgan tog'lardan esadigan sovuq havo qishda Farg'ona botig'ining markaziy qismida to'planib qoladi, natijada yanvarning o'rtasha harorati – 3⁰ S bo'ladi. Eng past harorat - 30 , - 31⁰ S ga tushadi. Eng issiq 40 – 42⁰ S gasha yetadi.

Okrugda kushli shamollar tez – tez takrorlanib turadi. Bu kushli shamollar tuproq qatlamining ustki qismini ushirib, shang – to'zon vujudga keltiradi. "Qo'qon" va "Bekobod" deb ataladigan shamollar xarakterlidir.

Farg'ona okrugining tabiiy geografik rayonlari

4. Markaziy farg'ona tabiiy geografik rayoni
5. Adirlar tabiiy geografik rayoni

SAVOL VA TOPSHIRIQLAR

4. Farg'ona okrugini qanday tabiiy xususiyatlari bor?
5. Okrugning iqlimi haqida nimalar deya olasiz?
6. Okrug qanday rayonlarga ajratilgan?

Quyidagi topshiriqlarni bajaring:

Daftaringizga Farg'ona okrugida mavjud bo'lgan daryolar ruyxatini tuzing va yozing.

QASHQADARYO OKRUGI

REJA:

1. Okrugning relyefi
2. Iqlimi
3. Tabiiy geografik rayonlari

Mavzuning maqsadi: Qashqadaryo okrugini tabiiy sharoiti, relyefi, iqlimi, rayonlarini o'rganish
Okrug O'zbekistonning janubiy qismidagi Qarshi botig'ini o'z ishiga oladi. U shimolda Qoratepa, Zirabuloq, Ziyovuddin tog'lari bilan, sharqda Hisor tizmasining janubi- g'arbiy qismining quyi etaklari bilan o'ralgan. Okrugning janubida O'zbekistonning Turkmaniston bilan bo'lgan davlat chegarasi o'tadi. G'arbda Quyi Zarafshon okrugi bilan chegaradosh. Jarqoq va Dengizko'l platolari bu ikkala okrugni bir – biridan ajratib turadi. Okrug qalin alyuvial, prolyuvial jinslardan iborat. Ular o'rta va antropogen davrga xos.

Qarshi shahrining shimolida Qung'irtog' (517 m), Koson shahrining janubida Kosontog', Maymoqtog' (500 m), Sandiqli qumligining sharqida Olovuddin tog', Okrugning g'arbida Jarqoq platosi, Qarshi, Nishon, Karnob, Malik cho'l lari va Sandiqli qumligi kabi qatog' cho'l lari mavjud.

Okrug iqlimi boshqa okruglar iqlimidan farq qiladi. Qishi iliq, o'rtasha harorat 0° , $+2^{\circ}$ S, eng past harorat -22° S, -29° S, yozda havo harorati $+28^{\circ}$ S, $+29^{\circ}$ Sni tashkil etadi. Eng yuqori harorat $+43^{\circ}$ S, $+47^{\circ}$ S dir. YOg'in miqdori 180 mm bo'lib, uning 45 – 50 %i bahorga, 37 – 40 % qishga, 10 – 15 % kuzga to'g'ri keladi.

Okrugda alyuvial – o'tloq, qisman botqoq – o'tloq, o'tloq – voha, bo'z – voha tuproqlari, sho'r yerlarda sur – qo'ng'ir, qum, qumli taqir, taqir sho'rxok tuproqlar tarqalgan.

Qashqadaryo okrugini tabiiy geografik rayonlari

4. Quyi Qashqadaryo rayoni
5. Qarshi tabiiy geografik rayoni

SAVOL VA TOPSHIRIQLAR

4. Qashqadaryo okrugiga O'zbekistonning qaysi qismi kiradi?
5. Okrug iqlimining asosiy xususiyatlarini belgilang.
6. Okrug qanday tabiiy geografik rayonlarga bo'linadi?

SURXONDARYO OKRUGI

REJA:

4. Okrugning relyefi
5. Iqlimi
6. Tabiiy geografik rayonlari

Mavzuning maqsadi: Surxondaryo okrugini tabiiy sharoiti, relyefi, iqlimi, rayonlarini o'rganish
O'zbekistonning eng janubiy qismidagi Sherobod – Surxon vodiysining tekislik qismini egallaydi. G'abrda Kelif – sherobod – Sariqamish past tog'lari va Surxon tog'lari, shimoli – sharqida Hisor tizmasining janubiy yonbag'ri, sharqda esa Bobotog'ning g'arbiy yonbag'rining quyi qismi bilan o'ralgan. Uning janubiy chegaralari esa Amudaryo orqali o'tadi.

Okrug sinklinal botiqda joylashgan. Neogen va antropogen davrning qalin alyuvial va prolyuvial yotqiziqlari bilan to'lgan. Okrugda tog'lar ko'tarilib, botiqlar sho'kib bormoqda. Surxondaryoning shimoli – sharqidan, janubi g'arbida 170 km sho'zilgan. U yerda balandligi 270 – 550 m keladigan qiya tekisliklar ko'p.

Surxondaryo okrugini g'arbdan, shimoldan va sharqdan o'rab turgan tog'lar yozda ham qishda havo massalarining okrugga o'tishiga ancha to'sqinlik qiladi. Shuning uchun okrug butun respublikamizdagi eng issiq o'lkadir. Yillik o'rtasha harorati $+17^{\circ}$ S.

Yoz quruq va jazirama issiq, qish yumshoq va iliq keladi, shuning uchun ham ham okrug subtropik o'simliklar o'sa oladi.

Okrug berk botiqda joylashganligi tufayli yog'in kam. (133 mm – 360 mm).

Daryolari. Surxondaryo To'polondaryo va Qoratog'daryoning qushilishidan vujudga keladi. Amudaryogasha bo'lgan qismida 60 ga yaqin soylar kelib qo'shilishadi. Ularning eng kattalari Toshko'priksoy, Oqqopsoy, SHurshisoy, Quruqsoy, Lalmikorsoy va Lovlovsoylardir.

SHerobodaryo – Amudaryoning o'ng irmog'i, Irg'ali va Qizilsoy daryolarining qushilishidan hosil bo'ladi. Uzunligi 186 km.

Okrugda Janubiy Surxon (suv sig'imi 800 mln m^3), Ushqizil (suv sig'imi 165 mln m^3) suv ombori mavjud.

Surxondaryo okrugini tabiiy geografik rayonlari

4. Termiz – denov tabiiy geografik rayoni
5. Sherobod tabiiy geografik rayoni

SAVOL VA TOPSHIRIQLAR

1. Surxondaryo okrugiga O'zbekistonning qaysi qismi kiradi?
2. Okrug iqlimining asosiy xususiyatlarini belgilang.
6. Okrug qanday tabiiy geografik rayonlarga bo'linadi?

Quyidagi topshiriqlarni bajaring:

Daftaringizga okrug iqlimining asosiy xususiyatlarini, tabiiy geografik rayonlarini landshaftlarini yozing.

G'ARBIY TYANSHAN OKRUGI

REJA:

1. Okrugning relyefi
2. Iqlimi
3. Tabiiy geografik rayonlari
4. Daryolari

Mavzuning maqsadi: G'arbiy Tyanshan okrugini tabiiy geografik o'rni, chegaralari, iqlimi, tabiiy geografik rayonlari haqida ma'lumot berish.

G'arbiy Tyanshan okrugini G'arbiy Tyanshan tog' tizmasining O'zbekiston hududidagi qismi kiradi. Okrug mustaqil tabiiy – geografik o'lka sifatida g'arbda Toshkent – Mirzacho'l okrugiga bilan o'ralgan, shimolda, sharqda va janubda uning chegarasi shartli ravishda O'zbekistonning Qozog'iston, Qirg'iziston hamda Tojikiston bilan bo'lgan davlat chegarasiga to'g'ri keladi. Bu chegara shimoli – g'arbda Qorjantog', shimolda Talas Olatog'i, sharqda Piskom tog'larining o'q qismlari, janubda esa Qurama, Mug'ul tog'larining suvayirg'ish qismlari orqali o'tadi.

G'arbiy Tyanshan okrugini o'zining geologik rivojlanish tarixi, yer yuzasining tuzulishi va geografik muhitning boshqa xususiyatlari jihatidan Tyanshan tog' tizimining qolgan qismlaridan farq qiladi. Okrug hududida paleozoy ohaktoshlari, qumtoshlari va slaneslaridan iborat. Ular orasida esa granit, granidiorit va porfir kabi otqindi jinslar ham uchraydi. Tog'larning yonbag'rlarida va quyi etaklarida hamda daryo vodiylarida yosh mezo – kaynazoy yotqiziqlari, paleogen va neogen davr shag'al va gil qatlamlari ham bor.

2. G'arbiy Tyanshan okrugining iqlim xususiyati Toshkent – Mirzacho'l okrugining iqlimidan keskin farq qiladi: qish sovuq, yoz esa salqin va sernam bo'ladi. Yanvarning o'rtasha harorati – 3^o, - 14^o S. Qish oylarida shimoliy va shimoliy – sharqiy havo massalari ta'sirida eng past harorat – 32^o S dan pastga tushishi mumkin. Okrugda yoz oylarining harorati Toshkent – Mirzacho'l okrugiga nisbatan bir oz past – iyul oyining o'rtasha harorati 20 – 26^o S. eng yuqori harorati esa ayrim joylarda 30 – 40^o S ga yetadi. Sovuqsiz kunlarning umumiy soni bir yilda 200 ga boradi.

Yog'in miqdori tog'larning g'arbiy qismida 1000 mm ga yetadi, sharqiy yonbag'rida 200 mm, asosiy qismi qish va bahor oylariga to'g'ri keladi.

G'arbiy Tyanshan okrugining tabiiy geografik rayonlari

1. Tog'li Chirchiq tabiiy geografik rayoni
9. Yuqori Ohangaron tabiiy geografik rayoni

Daryolari

Asoiy daryolari Chirchiq va Ohangaronidir. Chirchiq daryosi Chotqol, Pskom daryolarining qo'shilishidan vujudga keladi. So'ngra o'ng tomondan Ugom, Qizilsuv, Qoraqiya, Oqtosh, Sho'ralisoy, shap tomondan Quramqulsoy, G'alavasoy, Oqsoqotasoy, Parkentsoy, Boshqizilsoy kabi irmoqlarni qo'shib oladi.

Chotqol daryosi Qorag'ulja va Qoraqasmoq daryolarining qushilishidan vujudga keladi, uzunligi 223 km, suv yig'adigan havzasining maydoni 6870 km².

Pskom daryosi Maydantol bilan Og'ayin daryolarining qushilishidan vujudga keladi, uzunligi 70 km, suv sarfi 82,2 m³, maydoni 2840 km².

Chirchiq daryosining eng yirik irmog'i Ugom daryosidir. U Talas Olatog'ining janubiy yonbag'iridan Oqburxon nomi bilan boshlanadi. Uzunligi 70 km, havzasining maydoni 889 km².

Ohangaron tog'li qismida tog' vodiya oqadi. Angren shahridan o'tkash, uning vodiysi kengayadi, keng qayirlar vujudga keladi. Ohangaron daryosining Yakkaarshasoy, yertoshsoy, Serkaqirildisoy, Dukent, Qarabov, Niyozbosh kabi irmoqlari bor.

SAVOL VA TOPSHIRIQLAR

1. G'arbiy Tyanshan okrugiga O'zbekistonning qaysi qismi kiradi?
2. Okrug iqlimining asosiy xususiyatlarini belgilang.
3. Okrug qanday tabiiy geografik rayonlarga bo'linadi?

TURKISTON – NUROTA OKRUGI

REJA

1. Okrugning relyefi
2. Iqlimi
3. Tabiiy geografik rayonlari

Mavzuning maqsadi: Turkiston – Nurota okrugini tabiiy geografik o'rni, uni iqlimi, geografik rayonlarini o'rganish.

Turkiston – Nurota okrugiga Turkiston tizmasining g'arbiy qismini va Nurota tizmasini o'z ishiga oladi. U janubda O'rta Zarafshon, g'arbda Qizilqum, shimolda Toshkent – Mirzacho'l okruglari bilan chegaradosh. Okrugning faqat janubi – sharqiy qismida chegara shartli ravishda O'zbekistonning Tojikiston bilan davlat chegarasi orqali o'tadi.

Turkiston tizmasi Mastshoh tog' tuguni yaqinida Oloy tizmasidan ajralib shiqadi va kenglik buylab 350 km ga sho'ziladi. Uning eni o'rta hisobda 60 km, balandligi esa 3600 – 4000 m. Shumqortog', G'ubduntog', Qaroqshitog', Molguzar, Shovqortog' kabi tizmaning davomlari mavjud.

Nurota tizmasi Turkiston tizmasining shimoli – g'arbga sho'zilgan davomidir. Tizmaning uzunligi Temurlang darvozasidan Nurota qishlog'igasha 200 km, eng keng yeri markaziy qismida bo'lib, undan g'arbga va sharqqa borgan sari tog'ayadi. O'rtasha balandligi 1500 m, eng baland yeri markaziy qismidagi Hayotboshi yoki Zargar sho'qqisi 2165 m ga yetadi. Nurota tizmasining sharqiy qismi Quytosh tog'i deb ataladi. tabiiy geografik o'rni

Turkiston – Nurota okrugini past joylarida yoz quruq va issiq, o'ish esa u qadar sovuq bo'lmaydi. Balandroq joylarda yoz salqin, qisqa, qish esa sovuq bo'lib, uzoq davom etadi. Yanvarning o'rtasha harorati okrugning tekislik qismlarida 0,2⁰S bo'lsa, tog' tepalarida SHahriston dovonida - 11, 4⁰, eng past harorat esa - 25, - 34⁰S gasha yetadi. YOz oylari 26, 25, 15⁰S gasha yetadi. Sovuqsiz kunlar 100 – 200 kuni tashkil etadi.

Turkiston – Nurota okrugini tabiiy geografik rayonlari

1. Turkiston tabiiy geografik rayoni
2. Nurota tabiiy geografik rayoni

SAVOL VA TOPSHIRIQLAR

1. Turkiston – Nurota okrugiga O'zbekistonning qaysi qismi kiradi?
2. Okrug iqlimining asosiy xususiyatlarini belgilang.
10. Okrug qanday tabiiy geografik rayonlarga bo'linadi?

HISOR – ZARAFSHON OKRUGI

REJA:

1. Okrugning relyefi
2. Daryolari
3. Tabiiy geografik rayonlari

Mavzuning maqsadi: Hisor –Zarafshon okrugiga, relyefi va uning o'ziga xos xususiyatlarini oshib berish.

Hisor –Zarafshon okrugiga respublikamizning janubiy qismidagi Hisor va Zarafshon tizmalarining g'arbiy va janubiy g'arbiy qismini o'z ishiga oladi. Shimolda Zarafshon, sharqda Surxondaryo, janubda Amudaryo va g'arbda Qashqadaryo botiqlari bilan o'ralgan.

Hisor-Zarafshon okrugi Pomir va Tyanshan tog' tizmalari orasidagi oraliq landshaft zonasida joylashgan, geologik tuzilishi jihatidan ham Turkistonning shimoliy va janubiy tog' yoylari o'rtasidagi kontakt regionidir. Shu sababli okrugda Turkistonning shimoliy yoyida joylashgan Tyanshan tog'laridagiga nisbatan paleozoy jinslari kam bo'lib, kuproq mezozoy va kaynozoy yotqizilari uchraydi; paleozoy (silur, devon, karbon) ohaktoshlari, slanes va qumtoshlari juda kam bo'lib, faqat okrugning shimoli-sharqiy va markaziy qismidagi antiklinal tog'-larining zaminini ishg'ol qiladi. Lekin bu jinslar gersin burmalanish ta'sirida marmarsimon ohaktoshlarga va metamorfizlashgan slaneslarga aylanib ketgan. Okrugdagi asosiy yotqizilqlar esa mezozoy kumtoshlaridan, gilli slaneslaridan, ox.aktoshlaridan, qizil gil va mergellaridan iborat bo'lib, so'nggi tektonik jarayonlar ta'sirida strukturalari o'zgargan.

Okrugdagi Hisor, Shaqilqalon va Qoratepa tog'larida sho'kindi jinslar orasida intruziv yotqizilqlar ham uchraydi. Bular granit, diorit, porfirlardan iborat bulib, gersin orogenetik jarayoni bilan bog'liq xolda paydo bo'lgan.

Gersin orogenetik jarayonida vujudga kelgan tog'lar keyinshalik tekislangan va ancha pasayib, tipik tog'lik xususiyatlarini yuqotgan. Biroq pasayib, tekislanib qolgan tog'lar alp tektonik jarayonining bu rayonga kushli ta'sir etishi tufayli (chunki okrug Pomir tog'lariga yaqin joylashgan) yana qayta ko'tarilgan. Lekin keyinshalik turli kushlar ta'sirida tog'lar yemirilib, hozirgi holatiga kelib qolgan.

Okrug orografiyasining uziga xos xususiyati shundaki, butun tog'lar Hisor va Zarafshon tizimlariga kiradi va g'arbga hamda janubi-g'arbga tomon pasaya borib, qoldiq tog'larga aylanib ketadi, Bu tog' dahalari bir-birlaridan chuqur dare vodiylari orqali ajralib turadi. Okrugning mutloq balandligi 500—4500 m, ayrim sho'qqilari esa 4600 m ga yetadi. Bu esa okrugning alp turidagi baland TOG'LI ulka ekanligidan dalolat beradi. Darhaqiqat, okrugning yer yuzasi juda past-baland bulib, tog'larning uq qismi daryo vodiylaridan 1500—3000 m tik kutarilib turadi va shukdilar qoyal, qirralidir.

Hisor-Zarafshon okrugi relyefining bunshalik murakkab bo'lishiga uning geologik tuzilishi ham juda katta ta'sir kursatgan: hududda slanes va ohaktoshli jinslarning kup bo'lishi ,TOG' yonbagirlarining koyali, dare vodiylarining esa tog', chuqur va tik bulishiga olib kelgan. Aksinsha, okrugning g'ovak, bo'sh sho'kindi jinslardan iborat bulgan adir qismining relefi unsha murakkab emas. Bu kismida daryolar denudasiya jarayonida uzan tagini emas, balki yon tomonini ham yuvib, chuqur bulmagan keng vodiylar hosil qilgan.

Zarafshon tizmasi okrugning shimolida bulib, uning Egri bugri dovonidan g'arbda bulgan qismi shu okrugga qaraydi.

Hisor –Zarafshon okrugi Pomir va Tyanshan tog' tizmalari orasidagi oraliq landshaft zonasida joylashgan, geologik tuzilishi jihatidan ham Turkistonning shimoliy va janubiy tog' yoylari o'rtasidagi kontrakt regionidir. Okrugda paleozoy, mezozoy, kaynozoy yotqizilqlari uchraydi. Hisor, Shaqilqalon, Qoratepa tog'larida sho'kindi jinslar ham uchraydi. Bular diorit, porfir, granitlardan iborat bo'lib, gersin orogenetik jarayoni bilan bog'liq holda paydo bo'ladi.

Zarafshon tizmasi sharqdan g'arbga qarab bir nesha bo'laklarga bo'linib, Shaqilqalon, Qoratepa, Zirabuloq, Ziyovuddin tog'lari nomi bilan ataladi.

Hisor tizmasi 68^o sharqiy uzunlikda Kishtut daryosinig yuqori oqimi orqali 2 qismga ajraladi:


1. janubi – g'arbga tomon yo'nalgan va Kishtut hamda Qoratepa daryolari orasida suvayirg'ish hisoblanadigan Mashitli tog'i.

2. Shimoli – g'arbga tomon chegara buylab yo'nalgan qismi Hazrati Sulton tog'i Hisor tizmasining bevosita davomidir.

Boysun tog'ining janubida Kuhitang tog'i bor. Bu tizma janubi-g'arbga 50 km shuzilgan va balandligi 3137 m ga yetadi, bu yerda karst jarayoni rivojlangan. Kuhitang tog'ida uzunligi 4 km ga yetadigan g'orlar bor.

Boysun tog'ining sharqida unga parallel xolda Surxontog' joylashgan, u kichkina, lekin ancha baland (3722 m) tizmadir. Bu tog'ning janubida shimoli-sharqdan janubi-g'arbga yunalgan Klif-SHerobod past tog'lari o'rnashgan. Klif-SHerobod past tog'larining o'rtasha balandligi 900—1000 m, eng baland yeri esa 1126 m. Bu tog'lar SHerobod daryo vodiysida tugab, so'ngra shimoli-sharqqa qarab Sherobod-Sariqamish past tog'lari boshlanib ketadi. Bu past tog'larning eng baland yeri 1216 m ga yetadi va

janubi-g'arbdan shimoli – sharqqa qarab Gazlafon, Beshqiz, Qorabunadir, Takasakradi, yetimkalis tog'lari deb ataladi.



Hisor-Zarafshon okrugining orografik chizmasi:

1. Taxtaqorashi dovoni. 2. Hazrati Sulton sho'qqisi—4648 m. 3. Shaqilqalon tog'ining Zebon sho'qqisi —2336 m. 4. Koratepa tog'ning Kamqo'ton sho'qqisi —2595 m. 5. Ziyovuddin TOG'INING Dardko'l sho'qqisi —914 m. 6. Xuroson sho'qqisi —3744 m. 7. SHaqshar tizmasi. 8. Kushtang TOG'I. 9. Zarkosa shuvdisi 2230 m. Daryolari.

Jinnidaryo Qashqadaryoning birinshi ancha sersuv irmog' i hisoblanib, Hisor tizmasining Oqota, SHertog' cho'qqilaridan boshlanadi. Uzunligi 57 km, suv yig'adigan havzasining maydoni 367 km², qor va muz erishidan tuyenadi.

Oqsuv daryosinig uzunligi 115 km, suv yig'adigan havzasining maydoni 1050 km², Hisor tizmasidagi Botirboy va Seversev muzliklaridan boshlanuvshi Botirboy va Xonakasuv irmoqlarining qo'shilishidan vujudga keladi.

Tanxozdaryo uzunligi 104 km, suv yig'adigan maydoni 459 km². Daryo Hisor tog'idagi G'ozikuldan boshlanadi. Sarturg'ayirmog'igasha bo'lgan yuqori oqimi Qarankul nomi bilan yuritiladi.

Yakkabog'daryo uzunligi 108 km, havzasining maydoni 1060 km² Daryo Hisor tizmasining janubi – g'arbiy tarmoqlaridan boshlani, Tanxoz daryosiga kelib quyiladi.

G'uzordaryo uzunligi 86 km, havzasining maydoni 3220 km² G'uzordaryo SHaqshar tog'idan boshlanuvshi Kattauru va Kishikuru, O'lmas tog'idan boshlanuvshi irmoqlarni qo'shilishidan vujudga keladi.

To'polondaryo Hisor tog'idagi Hazrati Sulton (4643m) sho'qqisi yaqinidan Qorasuv nomi bilan boshlanib, sungra Tamshush nomini oladi va G'ova irmog'ini qushib olgash To'polondaryo nomini oladi.

Qoratog'daryo - Hisor tizmasining janubiy yonbag'ridan boshlanib, uzunligi 112 km, havzasiing maydoni 682 km² daryo qor va muzlarning erishidan tuyenadi.

Sangardak Hisor tog'idan Tegikonor nomi bilan boshlanadi, Qizilsoy irmog'ini qushib olgash Qizilsuv, so'ngra Sangardak nomini oladi. Uzunligi 114 km, havzasining maydoni 948 km² bo'lib, qor va yomg'ir suvlaridan tuyinadi.

Xujaipok Xo'jabo'zborak tog'idan boshlanib, uzunligi 97 km, maydoni 765 km². **Sheroboddaryo** uzunligi 186 km, Amudaryoning o'ng irmog'i. Boysun tizmasining shimoli – g'arbidagi Belao'ta tog'idan boshlanadi.